

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA'LIM VAZIRLIGI
A.QODIRIY NOMLI JIZZAX DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

Maktabgacha ta'lim nazariyasi va uslubiyati kafedrası

KAT.OQ'IT.G.QO'SHAQOVA

OILASHUNLIK FANIDAN MA'RUZA MATNI

ANNOTASIYA

Oilashunoslik fani psixologning asosiy faoliyat turlaridan biridir. Xizmat ko`rsatish ishlari o`qituvchilar, o`quvchilar, ota – onalar uchun olib boriladi. Oila psixologiya fani asosiy oila munosabatlari individual va guruxiy bo`ladi. Oila psixologiya fani psixologlar ish tajribasini umumlashtirish shuni ko`rsatadiki o`qituvchilar, o`quvchilar, ota – onalar psixologga turli tuman muammolar bo`yicha murojaat qiladilar. Bunday muammolarni hal qilishda psixolog bir qancha maslahatlarni beradi. Bundan tashqari turli yoshdagi bolalarning tengdoshlari, hamda oilasi bilan munosabati, bolalar jamoasining shakllari, kasbiy malakalarini oshirish yo`llari, o`quvchilarning qobiliyatlari, layoqatlari, qiziqishlarini aniqlash va rivojlanish yo`llari, hamda o`quvchilarni kasbga yo`naltirish ishlarini olib boradi.

Ushbu fanni bolalar o`quvchilar, talabalarning yosh xususiyatlarini hamda jadal rivojlanishini hisobga oluvchi ularni psixikasining barcha jabhalarini hisobga oluvchi dinamik taraqqiyotga kafolat beruvchi dastur ishlab chiqarishga butun faoliyatini yo`naltiradi hamda mumuinsoniy, etnopsixologik xususiyatlar muhitida kamolotga intiluvchi shaxsni tarkib toptirishni bosh maqsad deb tanlaydi.

Psixologik xizmatning rivojlanish tarixi. Oila psixologiya fani haqida Nizom. Maktabda amaliyotchi psixologning huquqlari vazifalari. Oila psixologiya fani psixologning ish hujjatlari, psixologik honasiga qo`yiladigan talablar. Maktabgacha ta`lim muassasasida amaliyotchi psixolog xizmatining asosiy yo`nalishlari. Bog`cha psixologining o`zini reklama qilishi.

Bu fan psixologiya fanlari, pedagogika fanlari, falsafa, anotomiya - fiziologiya va boshqa fanlarining nazariy va amaliy xulosalariga tayanadi.

Psixika, biogenetik, sotsiogenetik, psixogenetik yondashuvlar, psixologiya fanining metodlari, bolalar psixikasi va psixologik xususiyatlari, talim va talimning zamonaviy usullari.

1.MAVZU: OILASHUNOSLIK FANING MAQSADI VA VAZIFALARI.

Dars o'quv maqsadi: Talabalarga "Oilashunoslik" faning predmeti, maqsadi va vazifalarini o'rgatish.

Tushunchalar va tayanch iboralar: predmet, vazifalar, jamiyatning iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy, milliy havfsizligini, jamiyat va oila.

Asosiy savollar:

1. O'rta Osiyo xalqlarining tadrijiy taraqqiyoti .
2. O'zbek oilasining shakllanish bosqichlari.
3. Xalq og'zaki ijodi namunalarida oila masalalarining yoritilishi.
4. Oila munosabatlarida dinning o'rni.

Asosiy o'quv materiali qisqacha bayoni

O'rta Osiyo xalqlarining tadrijiy taraqqiyoti tarixida IX-XII asrlar o'zbek xalqining tashkil topishi davri hisoblanadi.

Qadimda Turon, so'ng Turkiston va Movarounnahr deb yuritilgan bu o'lka ko'p ming yillik tarixga egadir. Farg'ona va Ohangaron vodiysida olib borilgan arxeologik tadqiqotlar. ibtidoiy odam to'dalari zaminimizda bundan 700-500 ming yililgari, ya'ni antropogen davrida ham istiqomat qilganini tas-diqladi.

Insoniyat tarixining eng qadimiy ibtidoiy to'da davrida odamlar o'rtasida oilaviy aloqalar hali aniq tartibga tushmagan edi. Faqat ibtidoiy urug'doshlik bosqichidagina bu munosabatlarda sifat o'zgarishlari yuz bera boshladi. Surxondaryo, Samarqand, Toshkent viloyatlarida olib borilgan arxeologik.; qazilmalar natijasida bu yerlarda miloddan avvalgi 12-10 ming yilliklarda ibtidoiy to'dalar qon-qarindosh.bo'lib yashay boshlaganini tasdiqlovchi ashyolar topilgan. To'dalar yashagan yarim yerto'la shaklidagi chaylalar, o'choqlar, ov qurollari, ularni yasash asboblari, suyakdan yasalgan ayollar haykalchalari, turli xil tasvirlar o'yib tushirilgan taqinchoqlar va boshqa topilmalar bu davrda urug'doshlik ona tomondan boshqarilib, matriarxat o'rnatilganidan guvohlik beradi. Oilalardagi mehnat taqsimotiga ko'ra erkaklar ovchilik, ayollar uy xo'jaligi bilan shug'ullangan.

Miloddan avvalgi 5-3 ming yilliklarda odamlar tosh qurollari yasashni birmuncha takomillashtirdilar. Bu yangi tosh davri neolit oila tarixining dastlabki bosqichi, deb e'tirof qilinadi. Ana shu davrda erkaklar va ayollar o'rtasidagi o'zaro umumiy jinsiy munosabatlar barham topib, juft nikoh urf bo'la boshladi. Natijada juft nikohli oila jamiyatning dastlabki ijtimoiy birligiga aylandi.

Bundan yana 3-2 ming yil keyin, jez davrida o'lkada xo'jalik yuritishning yaylov chorvachiligi va dehqonchilikka asoslangan shakli qaror topishi bilan ona urug'i an'analari kuchli bo'lgan ijtimoiy munosabatlar asta-sekin yemirilib, erkaklarning jamoadagi mavqei ortib bordi.SHu sababli **ayollar** iqtisodiy jihatdan **erkaklarga qaram** bo'la boshladi.

Ibtidoiy jamoa shakli shiddat bilan yemirilib, qabilalar o'rtasida dastlabki sinfiy munosabatlar vujudga kela boshlagan ana shu.davrda patriarxal katta oilada ota huquqi qaror topib mustahkamlandi. Qarindoshlik otaga qarab belgilanadigan bo'ldi, urug'lar

ichidagi munosabatlar otaning iqtisodiy va huquqiy hukmronligi asosiga qurilib, bolalar ota mulkiga merosxo'r bo'la boshladilar.

Miloddan avvalgi VII - milodiy IV asrlarda Urta Osiyoning qadimiy tarixiy-madaniy o'lkalari Xorazm, Sug'd, Baqtriya va boshqalar shakllanib, bu o'lkada ham sinfiy jamiyatga o'tish boshlandi, dastlabki davlatlar, jumladan Katta Xorazm va Baqtriya podsholigi vujudga keldi. O'rta Osiyo yerlarida sug'diylar, baxtarlar, chochliklar ma'lum etnik elat sifatida tarkib topdi. Ular o'troq hayot kechirar, bu elatlarni dehqonchilik va chorvachilikdan iborat iqtisodiy birlik bilan birgalikda madaniy va til birligi ham birlashtirib turardi. Biroq vohalar atrofidagi dasht aholisi saklar hali ijtimoiy rivojlanishning qabilaviy urug'-jamoachilik bosqichida yashardilar. Chunki ko'chmanchilik turmush tarzi qabilaviy ana'analar asosida yashashni talab etardi. Ana shu davr nikoh-oila munosabatlariga tarixiy manbalarga tayangan holda nazar tashlaydigan bo'lsak, ajdodlarimizdan To'marisning ham elyurt uchun sadoqatli, o'z qabilasi va oilasi sha'ni uchun jonini fido qilishga tayyor ayol timsolining yorqin namunasi bo'lganini alohida ta'kidlash zarur. To'marisning eri massaget qabilalari ittifoqining hukmroni bo'lgan. U vafot etgandan so'ng hokimiyat To'maris qo'liga o'tadi.

Eron ahomaniylaridan Kayxusrav (Kir II), ehtimol, bu vaziyatdan foydalanib qolish maqsadida miloddan avvalgi 530 yilda o'sha vaqtda qudratli davlatlardan hisoblangan massagetlar yurtiga katta qo'shin bilan bostirib kirish tayyorgarligini boshlab yuboradi. Yunon tarixchisi Gerodotning "To'qqiz; kitobli tarix" asarida yozilishicha, To'maris Kayxusravni avvaliga tinch qo'shni bo'lib yashashga chaqirib kelgan. „Ammo Kay-xusrav unga qarshi yurish boshlaydi (I jild, 204-216 -boblar).

To'maris lashkarlari halssh jang qilishga o'rgangan edi. SHuning uchun yurtga jiddiy xavf tug'ilganda To'maris massagetlar sarkardasi ma'suliyatini zimmasiga olib, dushmanning ro'parama-ro'para halol jang qila olishiga imkoniyat yaratish maqsadida eron qo'shinlarining Araks (Amudaryo)dan bemalol o'tib olishi uchun o'z lashkari bilan bu joydan chetlashib turadi.

Biroq To'marisning mardligiga qaramasdan Kayxusrav hiyla ishlatadi. U To'marisning o'g'li Spargapisesni ko'shini bilan mast qilib, asir oladi. O'g'lini bandilikdan ozod etish va¹ urushni to'xtatish to'g'risidagi To'marisning da'vatlariga dush-man rad javobini beradi.

Spargapises bu isnodga chiday olmasdan asirlikda o'zini o'zi o'ldiradi. SHundan so'ng miloddan avvalgi 530 yilning iyul-avgust oylarida massagetlar bilan Kayxusrav qo'shinlari o'rtasida shiddatli jang boshlanib, unda eronliklar tormor etiladi. Kayxusrav ham jangda o'ldiriladi.

To'marismard, aqlli, adolatparvar shu bilan birga jasur, qahramon, mustahkam irodali ayol timsoli. To'maris uchun o'z qabilasi, massagetlar tinchligi, yurt mustaqilligi muqaddasdir. Kayxusravning o'ldirilishi O'rta Osiyo xalqlarini Eron ahomaniylariga tobelikdan qutqarmaydi./Miloddanavvalgi 520-518. yillarda Doroqo'shinlari saklar yurtiga bostirib, kiradi va uni tobe qiladi. Miloddan avvalgi 329 yilda makedoniyalik Iskandar O'rta Osiyoga hujum qilib, ikki yil ichida uni to'liq bo'ysundiradi.

Milodiy I asrning oxiri, III asr boshlarida bu hudud qudratli Kushan podsholigi tasarrufiga o'tadi. VI asr o'rtalarida esa Turk hoqonligi vujudga keladi.

Turk hoqonligiga birlashgan aholining ijtimoiy hayoti ham, xo'jaligi ham turlicha edi. Ko'chmanchi chorvadorlarda urug' jamoachilik an'analari kuchli edi. Qabila va urug' jamoalarining negizini patriarxal katta oilalar tashkil etardi.

SHu tariqa o'zbeklar alohida etnik birlik (elat) sifatida O'rta Osiyoning markaziy viloyatlari Movarounnahr, Xorazm, Yettisuv, qisman SHarqiy Turkistonning g'arbiy mintaqalari-da shakllangan. O'zbek xalqi asosini qadimda shu hududlarda yashab, sug'orma dehqonchilik, hunarmandchilik bilan shug'ullanib kelgan mahalliy sug'diylar, baxtariylar, xorazmiylar, farg'onaliklar, yarim chorvador qang'lilar, ko'chmanchi sakmassagetlar kabi etnik guruhlar tashkil qilgan.

XI - XII asrlarda Qoraxoniylar davrida Movarounnahr va Xorazmda siyosiy hokimiyat turkiy sulolalarga o'tishi munosabati bilan o'zbek xalqi etnogenezining yakuniy bosqichi boshlandi. G'arbiy Qoraxoniylar davlati doirasida hozirgi o'zbeklarga xos turkiy etnos qaror topdi. Bu davrda o'zbek xalqiga xos elatni belgilovchi hudud, til, madaniyat, tarixiy qismatning umumiyligi, etnik o'zlikni anglash, etnosning uyushqoqligi, ma'lum bir davlat doirasida bo'lishi, din umumiyligi va bir qancha shu kabi boshqa etnik alomatlar shakllandi.

O'zbek oilasi ham o'zbek millati bilan birga shakllanish bosqichlarini bosib o'tgan. Oilaning tarixiy shakllaridan biri bo'lgan *patriarxal - katta oila* ota tomonidan qarindosh-lik, urug'-aymoqchilikka asoslangan edi. *Katta oila* odatda bir necha og'agini, ularning xotinlari, o'g'illari, kelinlari, turmushga chiqmagan qizlari va hokazolarni birlashtirardi. Bunday oila uch yoki undan ham ko'proq avlod vakillaridan ibo-rat bo'lib, uning a'zolari soni ba'zan 100 kishidan ham ko'proq-ni tashkil etardi.

Oila tuzilishining bunday shakli Xorazmda "*katta oila*", Zarafshon vodiysida "*ota uyi*", Qashqadaryoda "*bir qozon*", "*katta ro'zeor*", Qoraqalpog'istonda "*koile*" deb atalgan.

Katta oila Yaqin va O'rta SHarkdagi barcha mamlakatlarda mavjud bo'lgan. O'rta Osiyoda *katta oila* miloddan avvalgi 1000 yillikda paydo bo'lgan. Miloddan avvalgi USH-SH asrlar-da o'lkada *katta oila* juda keng tarqalgan. *Katta oilaning* iktisodiy asosini oila ixtiyoridagi ishlab chikarish vositalari yer, chorva mollari, mehnat qurollariga umumiy egalik tashkil etgan. Hatto kelin uchun qalin ham umumiy mulkdan berilgan. *Katta oilad*,a nikoh asosan bir urug' vakillari o'rtasida tuzilgan.

Oila munosabatlarida din alohida o'rin egallashi yaxshi ma'lum. Olimlarning ta'kidlashiga ko'ra Markaziy Osiyo, yanada aniqrog'i Xorazm zardushtiylikning asl vatanidir. Zardushtiylikning muqaddas kitobi - "Avesto" ham shu zaminda paydo bo'lgan. Zardushtiylikda olov gunohlardan tozalovchi sehrli kuch hisoblanadi va unga sig'iniladi. "Avesto"da ezgulik xu.do-si Axuramazda, yomonlik timsoli Anxra-Maynko (Axriman), yigit qiyofasidagi quyosh va yorug'lik tangrisi Mitra, go'zal qiz siymosidagi unumdorlik, farovonlik tangrisi. Anaxita, go'zal qush qiyofasidagi baxt, taqdir va boylik tangrisi Humo gavdalanadi.

"Avesto" ibtidoiy oila qoidalarini ham ifodalaydi. CHunonchi, agar ayol homilasini nobud qilsa, bu odam o'ldirishdek gunoh hisoblangan. Buning uchun javobgarlik ayol va er zimmasiga yuklangan. Bu ayb uchun ular oshkora qatl etilishlari

lozim bo'lgan. SHu bilan birga erkak zurriyot qoldirish qobiliyatiga ega bo'lmasa, unga tamg'a bosilgan yoki beliga zanjir bog'lab yurishga majbur qilingan.

Abu Rayhon Beruniy "Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar" asarida oila munosabatlariga doir "Ro'zi Isfandarmo'z" ("Ro'zi" - kun, "Isfandarmo'z" - iffatli, eriga sadoqatli xotin farishtasi" nomi) bayrami haqida ma'lumot beradi. Hayo-iffatli, sadoqatli ayollarning bu bayrami Isfandarmo'z oyi¹ ning 5-kunida nishonlangan. Beruniyning yozishicha, "O'tmish zamonlarda bu oy va kun xotinlar hayotiga xos bo'lib, erlar² ularga ehson qilar edilar".

Ilk sinfiy (quldorchilik) jamiyati shakllana boshlagan milodiy V asr tarixchilar fikriga ko'ra Markaziy Osiyo xalqlari uchun tub burilish, qulchilikdan feodal jamiyatga o'tish davridir. Katta patriarxal oilaning yemirilishi va undan kichik oilaning ajralib chiqishi ham shu davrga to'g'ri keladi. Lekin bu katta oilaning umri tugadi, degan ma'noni kyoltirib chiqar-maydi. Katta oila feodal tuzumda ham uzoq yillar davomida saqlanib qolgan. Unga asta-sekin barham berilishi mulk shakli tubdan (qabila-urug'chilik umumiy mulkidan xususiy mulk-ka o'tish) o'zgarishi bilan bog'likdir.

Markaziy Osiyo shaharlari, umuman iqtisodiy jihatdan ta-raqqiy etgan hududlarda kichik oila milodiy U-U1 asrlarda tarkib topa boshladi. Ko'chmanchi jamoalarda esa kichik oila-larning paydo bo'lishi X-XN asrlarga borib taqaladi. SHu bilak birga iqtisodiy jihatdan qoloq hududlarda XIX asr oxi-ri XX asr boshlarida ham patriarxal - katta oila qoldiqlarini kuzatish mumkin.

VII asrda Movarounnahrning arablar tomonidan istilo qili-nishi, o'lkada islom dinining tarqalishi ijtimoiy, shu jumladan nikoh-oila munosabatlariga ham o'z ta'sirini ko'rsatdi. Umuman o'lkada aholining musulmonchilikka o'tishi bir yarim asr davom etgan.

Islom dini Arabistonda vujudga kelgan bo'lsa ham u Movarounnahrda ravnaq topgani musulmon olamida e'tirof etiladi. O'lka ulamolari ilohiyot, huquq, ahlok va ijtimoiy ta'limotga oid madaniy va ma'naviy merosni takomillashtirib borganlar. Burhoniddin Marg'inoniy va uning mashhur "*Xtsdoya*" asari buning eng yorqin dalillaridan biridir.

Burhoniddin Marg'inoniy Farg'onada tavallud topib, Mar-g'ilon, Buxoro, Samarqand diniy va ma'rifiy markazlarida Hadis, tafsia va fiqh ilmini o'rgangan.

Burhoniddin Marg'inoniyning shoh asari - "Hidoya" arabcha-Dan tarjimada "**to'g'ri yo'l ko'rsatish**", "ishonchli qo'llanma" ma'nolarini anglatadi. Unda islom huquqi - fiqhga doir ko'p masalalar qatori alohida "Nikoh kitobi" mavjuddir. "Hidoya"-Da "Musulmonlarning nikohlari faqatgina (kamida) ikkita guvoh hozirligida bog'lanadi. Guvohlar ikkisi ham hur, oqil, bolig' musulmon erkaklar yoki bir er ikki ayol bo'lmog'i lozim". Muallif (Burhoniddin Marg'inoniy) aytadilar: "Bilginki, nikoh bobida guvohlik shartdir". CHunki Rasululloh (s.a.v.) guvohlarsiz nikoh nikoh emas" deganlar".¹⁶ Islom huquki qon-qardoshlar o'rtasida nikohni ta'qiqlaydi. "Hidoya"da bu qoida Kur'onning Niso surasi 22-,23-oyatlari keltirilgan holda asoslab berilgan. Nikoh-oila munosabatlariga doir islom tartib-qoidalarida oilada erning hukmronligi ko'zda tutilgan: "Ayolning ...taloq qilishga haqqi yo'q. Chunki er uning xo'jayi-nidir va u taloq qilishga haqlidir".

SHu bilan birga oilada ayollar ham o'z haq-huquklariga ega bo'lganlar. "Hidoya"da "Abo' Hanifa va bir rivoyatda Abu Yusuf-ning nazdlarida, oqila, bolizg'a, hur ayolning

nikohi hoh u qiz bo'lsin, hoh juvon bo'lsin, valiysiz ham o'zining roziligi bi-lan bog'lanaveradi", degan koida quyidagicha asoslanadi: "Nikoh joizligining sababi shundan iboratki, bu masalada kelishi-cha, ayol o'zining xolis haqqidan foydalangan, chunki u oqila, oq-qorani ajrata oladigan bo'lgani uchun o'z haqqidan foydala-nishga haqli. SHuning uchun ayol mol-mulkni. tasarruf etishga ham, o'zi uchun er tanlashga ham haqqi bor"¹⁹

Burhoniddin Marg'inoniy nikohda **ayol huquqini** quyidagicha izohlaydi: "Bizning fikrimiz: balog'atga yetgan qiz bevosita shariat qonunlariga buyurilgan, o'zicha hur insondir. SHunday ekan, uni majburlashga hech kimiing haqqi yo'q. Balog'atga yetmagan yosh qizga esa, uning aqli hali yetilmagani uchun vasiylik tayinlanadi. Balog'at yoshiga yetishi bilan uning aqli ham mukammal bo'ladi. Unga shariat qonunlariga amal qilish buyurilgani buning dalilidir. Natijada uning hukmi xuddi o'g'il bolaning hukmiga hamda molni tasarruf etishdagi qoidaga o'xshab qoladi. Ota mahrga faqat qizning roziligi bo'lgandagina ega bo'lishi mumkin. Aks holda, agar rozi bo'lmasa, mahrni olishga haqqi yo'q".²⁰

"Hidoya"da nikohni bekor qilishda er-xotinning huquqlari bab-barobar ekani ham ta'kidlanadi: "(Quduriy) aytadi: "(kuyov-qalliq balog'atga yetganlaridan keyin nikohni bekor qilish uchun qozining hukm chiqarishi shart qilinadi)"...CHunki nikoh Maxfiy zararni daf etish uchun bekor qilinadi va bu maxfiy zarar nikoxda ko'zda tutilgan maqsadlarga halal berishi mumkin. SHuning uchun bu masalada erkak bilan ayolning haquhuqlari bab-barobar e'tiborga olingan"²¹.

O'zbek oilasi shakllanishi tarixi jamiyatda qadim zamon-lardan ayollarga alohida hurmat e'tibor bilan .munosabatda bo'linganidan dalolat beradi. Bu yigit yoriga munosib ekanini isbotlash uchun qaylig'i shartlarini bajarishi shartligi udumida, boshqa urf-odatlarda o'z ifodasini topgan. Masalan, "Qorasoch pari" ertagida podsho qizi Qorasochning yor tanlashda yigitlarga qo'ygan shartlari e'tiborga molikdir.

Qorasoch pari Qirqqiz tepaligiga chiqib: "Kimda kim shu tepa ustiga chiqib, mening qo'limdan ushlab tushsa, men o'sha odamning vafodoriman" deydi. Bundan xabar topgan Rum hukmronining o'g'li Qodir do'sti Nodir bilan shu podsholikka keladi. Nodir do'stiga yordam berish maqsadida Qirqqiz tepaligiga chiqib Qorasoch parini olib tushadi.

Lekin qiz birinchi sharti bajarilgani bilan qanoatlanmaydi. U yigitning fahm-farosati, topqirligini ham sinab ko'rishga qaror qiladi. Qorasoch Nodirga bir dona sadaf berib yuboradi. Yigit bu sadaf yoniga huddi o'shandek sadaf qo'shib qizga qaytaradi. Qorasoch Nodirga yuborgan sadafi orqali o'z nasl-nasabini bildirib, yigitning bunga fahmi yetsa, uning ajdodlarini ham bilish niyatida edi.

Ertakda topqirlik sinovi davom etadi. Qorasoch Nodirga ikkinchi marta bir juft sadaf yuboradi. Qiz bu bilan "juft sadaf ikkimizning sevgimizdap ortiq narsa bormi?" savolini bergan edi. Fahm-farosatli yigit ikki sadafga yana bir sadaf qo'shib: "Ikkimiz sevgisini bezaydigan narsa bo'lajak farzandimiz" javobini beradi.

Biroq bu ham podsho kizini to'la qanoatlantirmaydi. Navbatdagi jumboq shakarga maydalangan gavhar aralashtirilib solingan piyolada yashiringan edi. Nodir bu piyoladagi aralashmaga sovuq suv qo'shish bilan "vafodor er va xotinni faqat ajal ajratishi mumkin" javobini yo'llaydi.

O'zbek qizlariga xos hayo xalq og'zaki ijodi namunalaridan yana biri - "Masturaxon" ertagida tasvirlanadi. Podshoning! uchta - Oyto'ra, Boyto'ra va Mastura qizi bor edi. Ular polizdan o'zlari uchta - Oyto'ra ok, Boyto'ra ko'k, Mastura qizi qovun uzib, otalariga tortiq qiladilar. Podsho vazirlari amaldorlariga bu qovunlarni so'yib beradi. Oq qovun pishi| o'tib ketgan, ko'k qovun na shirin, na bemaza chiqadi, qizil qovunga pichoq tekkizilishi bilan tarsillab yorilib ketadi.

Podsho uch qizi bir polizdan nima uchun turlicha qovun uzganligi haqida o'ylab, bu jumboqqa javob topishni vazirga buyuradi. U esa hukmdorga qizlaringiz sizdan o'zlarini turmushga uzatishni so'rashyapti, deydi. Buni pishib o'tib ketgai qovun Oyto'raning qari qizga aylanayotgani, Boyto'ra hozir uza-tilmasa sharti ketib parti qolishi, Mastura esa oila qurishga ayni yetilganini anglatishi bilan izohlab beradi.²³

O'zbek qizlarining oila qurishga munosabatlari, ularning g'oyat zukkoligiga "Aqlli qiz" ertagi misol bo'la oladi. Yetmishga kirgan podsho nav-nihol qizga uylanish uchun sovchi yuboradi. Farosatli qiz qarib quyilmagan bu hukmronni izza qilish maqsadida undan qalin uchun yigirmata bo'ri, o'ttizta ayg'ir qirqta yo'lbars, ellikta tulki, oltnishta no'xta, yetmishta axt so'raydi.

Mutlaqo kutilmagan bu shart mag'zini chaqishga podsho o'jizlik qiladi. Saroy donishmandlari unga yotig'i bilan yigirm. yashar yigit bo'riday, o'ttiz yashar-ayg'irday, qirq yo'lbarsdek ellik-tulkidek bo'lishini, odam oltnish yoshida no'xta, yetmishdg esa axtaga aylanishini tushuntiradilar.²⁴

Xalq orasida "Erni bor qiladigan ham, yo'q qiladigan ham| xotin" naqli juda keng tarqalgan. Buning misollaridan bir "Malikai Husnobod" ertagida ta'sirchan holda bayon etiladi.

Har bir narsadan bahona topib, qahrini sochishga odatlanib qolgan johil podsho daraxtdagi qarg'aning "qag'" degani nima; ma'no bildirishini ulamolardan so'raydi. Ular qanaqa javob bersalar ham podsho zulmiga duchor bo'lishlarini bilganlar holda sukut saqlaydilar. Qizi Malikai Husnobod esa ularni qutqarish uchun: "Qarg'aning "qag'" degani erni bor qiladigan; ham xotin, yo'q qiladigan ham xotin" deydi.

Bunday javobdan darg'azab bo'lgan podsho qizini zindonga tashlashga buyuradi. Boshqalar uchun o'zini bu qismatga duchor qilgan malikaga rahmi kelgan vazirlardan biri Husnobodni zindondan chiqarib, daryoga oqizib yuboradi. Suvda uni baliq yutib yuboradi. Bu baliqni tutib olib, qiz hayotini saqlab qolgan podachi Husnobodning aqliligi, tadbirkorligi bilan xayotini to'g'ri yo'lga soladi. U qutqargan malikaga uylanib, boyib ketadi, pirovardida podsho o'ladi.

Afsona, rivoyat, ertaklar qadim zamonlarda ham o'zbek oilalari uchun yurtparvarlik, mardlik va jasurlik, mehnatsevarlik, halollik, ornomus, sevgi va muhabbatga sadoqat, yuksak ahloqlilik, aqllilik va tadbirkorlik, boshqa oliyjanob fazilatlar xos bo'lganini yaqqol namoyon etadi.

Xalq og'zaki ijodi namunalarida muayyan darajada bo'rttirishlar, ilohiy kuchlar, mo''jizalarga qaramasdan ular aslida turmush voqeligini tasvirlaydi. Jumladan, yigit va qiz oila qurishdan avval ma'lum shartlarni bajarishlari udumiga oid hayotiy misollar tarixiy manbalarda ko'p uchraydi. CHunonchi, O'rta Osiyodagi ayrim urug' va elatlarda yigit qizga uylanishdan avval kurash tushib, pahlavonligini namoyish etishi odati yaxshi ma'lum. Bunda yigit kizni yiqita olsa, u oila boshlig'i, hukmron bo'lardi.

Aksincha, kurashda qiz yigit kuragini yerga tyokkizsa, yigit oilada noiloj unga bo'ysunardi.

Ulug' mutafakkirlarimiz ham nikoh-oila munosabatlari, oila odobi, farzand tarbiyasi masalalariga katta e'tibor berganlar. Abu Nasr Forobiy "Fozil insonlar shahri", "Baxt-saodatga yetishuv haqida" , "Aql ma'nolari haqida" va boshqa asarlarida panteistik dunyoqarashni rivojlantirdi. Uning asarlari ilg'or falsafiy oqimning rivojida katta ahamiyat kasb etdi. Forobiy jamiyatning kelib chiqishi, vazifasi, xususiyatlari haqida o'z zamonasi uchun ilg'or bo'lgan ta'limot yaratdi. Buyuk mutafakkir asarlarida insonning ijtimoiy mohiyati, unga tarbiya va ta'lim berish zarurati, ta'lim-tarbiya uslublari, bundan kutilgan maqsad chuqur tadqiq etiladi. Forobiy ta'limotida inson - dunyo taraqqiyotining eng mukammal va yetuk yakunidir.

"Baxt-saodatga erishuv haqida" risolasida bilimlarni o'rganish tartibini birma-bir sanab o'tadi; dastlab o'rganilishi zarur bo'lgan ilm olamning asoslari haqidagi ilmdir. So'ng tabiiy ilmlarni tabiat jismlarining tuzilishi, shak-li, osmon jismlari haqidagi ilmlarni o'rganish lozim. Bundan so'ng, umuman, jonli tabiat - o'simlik va hayvonlar haqidagi ilm o'rganiladi.

"Bundan keyin, - deb davom etadi Forobiy insonni o'rganishga kirishamiz va insonning inson bo'lishidan kutilgan maqsad va muddaoni o'rganamiz va shuning natijasida inson-ning nima va qanday narsa ekanini bilib-aniqlab olamiz. SHundan keyin biz insonning hozirgi kamolotga erishuviga sabab bo'lgan narsalarni o'rganishni boshlaymiz. Bu narsalar esa xayr ehsonli ishlar, go'zal insoniy fazilatlar bo'lib, bu fazilatlarni insonni shu kamolotga erishuvdan mahrum kila-digan salbiy xislatlarni o'rganish yo'li bilan ajratib ola-miz. Bu salbiy xislatlar har turli yomon odatlar, nuqsonlar va be'mani hatti-harakatlardir. Biz bu yomon xulq-atvor, be'mani xatti-harakatlarning kelib chiqish sabablarini o'rganish-dan avval, shu xulq-atvor, hatti-harakatlarning o'zi.bilan ta-nishib chiqamiz. Mana bu tanishishga madaniy, ya'ni Madaniga (shaharga yoki jamoaga) oid bilimlar deb nom beramiz. Bu ilm shunday narsalarni o'rgatuvchi ilmki, uning yordamida shahar xalqlari va shaharlik bo'lmagan xalqlarni o'z ichiga olgan, -ya'ni inson olamiga xos bo'lgan barcha xislatlarni o'zida umum-lashtirgan odamzot jismidagi har turli a'zolar kabi (umu-miy xususiyatlar) kishiga ma'lum bo'ladi".Aqliy va ahloqiy tarbiya masalalar atroflicha tahlil etilgan Forobiy ta'limotiga ko'ra, axloqiy tarbiya aqli, fazilatli inson tarbiyalashning eng muhim shartlaridan bo'lib, aqliy tarbiya bilan uzviy ravishda bog'langandir. Uning axloqiy ideali, xususan, "Fozil insonlar shahri" aearida o'z ifodasini topadi. U kaysi tartibda axloqli qilib tarbiyalash, xususan, bolaning qaysi xislatlariga e'tibor berish kabi masalalarga to'xtab o'tirmaydi. Balki ideal axloqli inson-ning abstrakt obrazini yaratish bilan, tarbiya sohasida shuobrazni namuna qilib olish zarur degan fikrni olg'a suradi. forobiy: "O'zida o'n ikki tug'ma xislatni birlashtirgan kishigina axloqli odam bo'la oladi", deb ta'kidlaydi. Uning fikricha bu fazilatlar quyidagilardan iborat:

birinchidan, bunday odamning barcha a'zolari shu darajada mukammal taraqqiy etgan bo'lishi zarurki, u bu a'zolari bilan bajarmoqchi bo'lgan barcha ishlarini osonlik bilan amalga oshira olsin;

ikkinchidan, barcha masalani, muhokama va mulohazani tezdan va to'g'ri tushuna oladigan, uning ma'nosini anglay oladigan, so'zlovchining maqsadi va aytilgan fikrning chinligini tezda payqay oladigan bo'lsin;

uchinchidan, xotirasi juda baquvvat bo'lsin, ko'rgan, eshitgan, sezgan narsalarining birortasini ham esidan chiqarmay, yodida saqlab qoladigan bo'lsin;

to'rtinchidan, zehni shu darajada tez va o'tkir bo'lsinki, biror narsaning alomatini sezishi bilan, bu alomat nimani bildirishligini tezdan bilib olsin;

beshinchidan, so'zlari aniq bo'lsin, fikrini va aytmoqchi bo'lgan mulohazalarini ravon va ravshan bayon eta olsin;

oltinchidan, bilish va o'qishga muhabbati bo'lsin, o'rganmoqchi bo'lgan bilimni charchashni sezmasdan osonlik bilan o'zlashtira olsin;

ettinchidan, ovqatlanishda, ichimlik iste'mol etishda ochko'z bo'lmasin, tabiati qimor o'yinlarini o'ynashdan uzoq bo'lsin va ular keltiradigan xursandchilikdan jirkanadigan bo'lsin; **sakkizinchidan**, haqiqatni va haqiqat tarafdorlarini se-vadigan bo'lsin, yolg'on va yolg'onchilarga nafrat bilan qaraydi-gan bo'lsin;

to'qqizinchidan, ruhi g'ururli va o'z vijdonini qadrlaydigan bo'lsin, uning ruhi o'z tabiati bilan past ishlardan yuqori va olijanob ishlarga intiladigan bo'lsin;

o'ninchidan, dirham, dinor va shu kabi turmush buyumlariga jirkanish bilan qarasin;

o'n birinchidan, o'z tabiati bilan adolatni va adolat uchun kurashuvchilarni sevadigan, adolatsizlik za jabr-zulmga hamda adolatsizlikka hamda jabrzulm o'tkazuvchilarga nafrat bilan qaraydigan bo'lsin, o'z odamlari va boshqalarga adolatli bo'lsin, go'zal va yaxshi hisoblangan narsalarini barchaga takdim etgan holda, odamlarni adolatga targ'ib etadigan va adolatsizlik natijalarini yo'qotadigan va ularga yo'l qo'ymaydigan bo'lsin;

o'n ikkinchidan, adolatli bo'lsin, ammo qaysar bo'lmasin, adolat oldida qaysarlik qilib, o'zbilarmonlikka berilmasin, lekin har qanday adolatsizlik va pastkashlik oldida qat'iy; bo'lsin, o'zi^zarur deb bilgan narsasini amalga oshirishda qat'iylik ko'rsatsin va qo'rqmas, jasur bo'lsin, qo'rqish va ojiz-likni bilmasin".

Forobiy bu fazilatlar ichida, ayniqsa, donolikka, aqllilikka juda katta e'tibor beradi.

Bu xislatlar fazilatli, yaxshi jamoaning boshlig'iga nisbatan sanab o'tiladi, ya'ni Forobiy barcha jamoalar ichida eng oliyjanob, fazilatli jamoani ajratadi va shu olijanob jamoani boshqarib tura oladigan, unga rahbar bo'la oladigan kishi eng olijanob inson bo'lishi zarurligini alohida ta'kidlab, bunday olijanoblikka erishmoq uchun qanday xislatga ega bo'lish lozimligini ko'rsatib o'tadi.

O'zbek oilasida ana shu insoniy fazilatlar hamisha yuksak qadrlab kelingan.

Inson shaxsi, uning kamoloti, aqlidrok, sabr-toqat va kamtarlik, go'zallik va did, poklik masalalari Abu Rayhon Beruniy asarlarida ham muhim o'rin egallaydi. U "inson jamiyatda o'z qarindosh-urug'lari bilan birlashib olishga majburdir, bun-dan maqsad bir-birini qo'llab-kuvvatlash hamda har bir kishi ning ham o'zini, ham boshqalarni ta'minlash uchun ishlarni bajarishdir"degan xulosaga keladi.

O'z-o'zidan tushunarliki, bu bevosita oila munosabatlariga ham taalluqlidir. Beruniy ta'limotiga muvofiq oila barqaror bo'lishi uchun uning a'zolari, birinchi navbatda er va xo-tin - farzandlar ota va onasi yuksak ahloq-odob egasi bo'lishi, yurish-

turishi, muomala madaniyati ibratli, umuman turmushda ko'pchilikka namuna bo'lishi kerak: "Inson o'z ehtiroslariga hukmron, ularni o'zgartirishga qodir, o'z jon va tanini tarbiyalar ekan, salbiy narsalarni maqtagudek narsalarga aylanti-rishga, uni ma'naviy shifokorlik bilan davolashga hamda asta-sekin, axlok haqidagi kitoblarda ko'rsatilgan usullar bilan illatlarni bartaraf etishga qodirdir".

Abu Ali ibn Sino butun dunyo tomonidan tabobat ilmining yetuk bilimdoni, deb e'tirof qilinishi bilan birga "Donish-noma", "Risolai ishq" asarlarida axloq madaniyati, oila qoida- . lari, urf-odatları yuzasidan teran fikrlar bildirgan. Ibn Sino e'tiqodicha, sezgi, muhabbat oila baxti, barqarorligi-ning negizidir. U "Eng yuksak sevgi bu insoniy sevgi bo'lib, bunday sevgi kishini sahovatli qiladi, uni oqko'ngil va jozibali insonga aylantiradi,³¹ deb yozadi.

Abu Ali ibn Sino oilada kattalarning izzatini joyiga qo'yish, kichiklarga mehr-shafqatli bo'lish, ular tarbiyasi bi-lan shug'ullanish, o'zaro sadoqat va mehr-muruvvat fazilatları qaror topishi ahamiyatini alohida uqtiradi. Ana shu jihatlar o'zbek oilasining muhim xususiyatlari ekani shubhasizdir.

XI asrda yashagan G'arbiy Eron podshohining nabirasi Kayko-vus ibn Iskandarning mashhur "Qobusnoma"sida ham sog'lom va ahil oila qadriyatları tilga olinadi: "Ey farzand, agar xotin olmoq tilasang, o'z hurmatingni yaxshi saqlag'il. Garchi mol aziz bo'lsa ham, xotin va farzandingdin darig' tutmag'il. Ammo xo-tinni pokdil, farzandni farmonbardor va mehribon tutg'il, bu ish sening qo'lingdadur...

Xotin kamolga yetg'on, oqila^bo'lg'ok, onasining kadbonulig'in, otasining kadxudolig'in ko'rg'on va bilg'on bo'lsun. Agar bunday nozanin qo'lingga tushsa, uni aslo ko'ldin chiqarmag'il va jahd qilib uni olg'il..."

"Qobusnoma"da farzand tarbiyasi haqida ham qimmatli fikrlar bildirilgan. Jumladan, farzandga yaxshi nom ko'yish ota-onaning birinchi burchi ekanligi ko'rsatilgan: "Ey farzand, agar farzanding bo'lsa, anga yaxshi ot qo'yg'il, nedinkim, otadin farzand haqlaridin biri unga yaxshi ot qo'ymoqdur",

Kaykovus ota-onalar o'z farzandlarini ilm, kasb-hunarga O'rgatishları, odobli qilib tarbiyalashları zarurligini yozadi. Uning oila qurishda eqzogamiyaga rioya qilish zarurligi haqidagi mulohazaları ham foydadan holi emas: "Lskin agar o'g'lingni) uylantirmoq va qizingni erga bermoqtilasang, zikhor o'z qarın doshların bilan berishib-olishmag'il. Begonadin xotin olg'il| nedinkim o'z qarindoshların din olmasang ham ular seninp bilan go'sht, qondek yaqindurlar. Boshqa qabiladin xotin olg'il. Bu bilan bir qabilani qilmish bo'lg'aysan, toki bir quvvating ikki bo'lg'ay, ikki tarafdin madading va ko'maging ko'paygay.

Amir Temur ham oila qurish masalalariga davlat yumushla» ridek judajiddiy e'tibor bergan. Buyuk Sohibqiron xususa~ kelin tanlash haqida quyidagi fikrlarni bildirgan: "O'g'illa-1 rim, nabiralarim va yaqinlarimni uylantirmoq tashvishida; kelin izlamogga e'tibor berdim. Bu ishni davlat yumushlar bilan teng ko'rdim. Kelin bo'lmishning nasl-nasabini, yett pushtini surishtirdim. Xos odamlar orqali sog'liq-salomatli-gini, jismonan kamolotini aniqladim. Kelin bo'lmish nasl4 nasabi, odob-axloqi, sog'lom va baquvvatligi bilan barcha qusur lardan holi bo'lsagina el-yurtga katta to'y-tomosha berib, kelin tushirdim."

Farhod va SHirin, Layli va Majnunlarning ehtirosli ishqini dostonlarida kuylagan Alisher Navoiy oila qurishni¹ savob ish deb hisoblagan:

*"Muvofiq tushsa kadbonu,
Davlatu jam'iyatga bo'lmoqdadur hamzonu.
O'zining oroyishi andin
Va uylukning osoyishi andin.
Jamoli bo'lsa, ko'ngulga margub
Va salohi bo'lsa-, jonga matlub.
Oqila bo'lsa, ro'zgorga andin saloh
Va intizom va maosh asbobiga sendin tartib va saran-jom.
Bu nav' juft kishiga qovushsa,
Balki mundoq komgorlik ilikka tushsa,
Nihoniy gamu mehnatda hamroz va hamdaming bo'lgay.
Va mahfiy va pinhon dardu mashaqqatga damsoz va mahraming bo'lgay.
Ro'zgordin ham jafo yetsa,
Anising ul va charxi davvordin
Xar ibtilo kelsa, jalising ul.
Ko'nglung gamidin ul yeamnok
Va badaning za'f malolatidin ul halok".*

Ya'ni oilada xotin oqila bo'lsa, davlatu jamiyatga foyda. U uyning bezagi, erning hamdardi. Go'zal bo'lsa dilga yoqimli, xushfe'l bo'lsa tanga malham.

Xotin ro'zg'orda tadbirkor bo'lsa, oila tirikchiligi saran-jom-sarishta bo'ladi. Bunday xushfe'l, oqila, axloq-odobli ayol bilan oila qurish baxti senga kulib boqsa, u mehnatda ham, g'am-tashvishda ham doim hamdarding, ham- nafasing bo'ladi. U sening qalbing dardidan ham, kasalliging azobidan ham forig'etadi. . -

SHu bilan birga Alisher Navoiy nazdida yomon xotin-boshga bitgan balo:

"Nosoz juft evga muhliq marazdur oshkor va nuhuft. Salita bo'lsa, ko'ngul andin ranja va qabiha bo'lsa, ruh-ga andin shikanjo.

*Yamon tillik bo'lsa, abushqa ko'ngli andin yaroelig, Yamon ishlik bo'lsa, uydin obodlig- bartaraf, Badkora bo'lsa, uy andin bayt ut-talaf*³⁷

Ya'ni, nosoz xotin oilani oshkor yoki pinhona barbod, halok etuvchi marazdir. U uyatsiz, shallaql bo'lsa, undan dil og'riydi, azob chekadi. Tili zahar xotin er qalbini yaralaydi, yuzini qaro qiladi. Agar buning ustiga may ichuvchi ham bo'lsa, ro'zg'or-Dan baraka ko'tarilib, oila barbod bo'ladi.

SHuni alohida ta'kidlash kerakki, nikoh, oila shakllari, o'zbek oilalarining ijtimoiy va milliy xususiyatlarini xolis o'rganish, tahlil etish imkoniyati mustaqillik yillarida-gina tug'ildi. Ma'lumki, sho'ro hukumati davrida boshqa masa-lalar qatori oila munosabatlariga ham sinfiy mafkura nuq-tai nazaridan yondoshilarnardi. SHuning uchun Turkiston o'lka-sida qalin kabi rasm-rusmlar qulchilik munosabatlaridek baholanib, ayol haq-huquqlarining toptalishi, uning oldi-sot-disi, deb da'vo etilardi.

Bunda ruslar, boshqa millatlarda ham xuddi shunday odat mavjud ekanini (mashhur rus rassomining "Tengsiz nikoh" surati, A.Gertsenning Rossiyadagi tengsiz nikohlarni afsus - na-domat bilan: "to'ydan oldin sepilgan baxtsizlik urug'i" deb baholashi buning yorqin dalolatlaridir) yodga olmaslikka harakat qilinardi. Holbuki, Rossiyada qiz

turmushga chiqayotganda unga sepi bilan birga katta miqdorda pul ham berilishi ham-maga ma'lum edi.

O'zbek oilalarida qalin, qator tadqiqotchilar astoydil asos-lashga urinayotganlardek, qizni tarbiyalash uchun to'lov - "sut haqi" emas, aksariyat hollarda kelin liboslari, to'y xarajat-lari uchun mo'ljallangan edi. Bu o'rinda qalin miqdori kudalar o'rtasida yakkama-yakka kelishib olinishi, u mahalla-kuy, qarindosh-urug'larga ovoza qilinadigandan ancha kam bo'lishini ham ta'kidlash lozim. Qalin miqdori oila nufuzining o'ziga xos mezon bo'lgani sababli uning miqdorini atayin oshirib ko'rsatish odatiy holga aylangandi.

Oila munosabatlari bilan bog'liq urf-odatlar, nikoh tur-li shakllarining ijtimoiy, insonparvarlik mohiyatini fal-safiy jihatdan to'g'ri baholash ham nihoyatda muhimdir. Zero, bu tarzda ilmiy asoslash u yoki bu xalq nikoh-oila munosabat-larigagina emas, umuman butun millat mentaliteti xususiyat-lariga to'g'ri baho berish uchun zarurdir.

SHu munosabat bilan qalinning sho'ro davri tadqiqotlarida feodal-patriarxal nikoh-oila munosabatlari qoldig'i, deb ta'riflanishi ilmiy asosga ega emasligini aytish kerak. CHunki, qalinning kelib chiqishi islom dini bilan bog'liq emas. Bu rusum mintaqada islom tarqalishidan oldin ham mavjud bo'lib, qadimiy huquq - **Odat** bilan belgilab qo'yilgan edi.

O'zbek oilalarida mavjud bo'lgan ayrim ta'qiqlar ham ma'naviy-axloqiy xususiyatlarga ega ekanini o'qtirish lozim. Jumladan, er va xotinning o'zaro muloqotda bir-birining nomlarini tilga olmasliklari hozir ham uchraydi. Ularning bir-birlarini to'ng'ich farzandlari nomini, yoki "ular", "bolalarning otasi", "bizni bolalar", "onasi", deb chakirishlari chuqur ma'naviy mohiyatga egadir. Kelinlar birgina o'z turmush o'rtoqlarinigina emas. balki erining barcha qarindosh-urug'larini, shu jumladan kichik yoshdagilarni ham "siz"lashlari, amaki va tog'alarini "mulla aka", jajji qayin singillarini "poshsha oyim" deb atashlari huddi shundan dalolat beradi. Fikrimizcha, bu oiladagi o'zaro samimiy hurmat belgisidir.

Kelinning "chillasi" (to'ydan, farzand ko'rgandan so'ng 40 kun mobaynida ko'chaga chiqmaslik) xususida ham xuddi shunday fikr bildirish mumkin. Bu ta'qiq SHarkda qadimda 12-14 yoshli qizlar ham turmushga uzatilganligi sababli paydo bo'lgan. Bu odat yosh kelinning pokizaligi. uning ortiqcha his-hayajonlar-dan, turli jarohat olishlardan saqlanishi uchun foydali bo'lga-

ni shubhasizdir.

O'zbek oilasining turmush sharoiti milliy turar joylarning qadimdan o'ziga xosligidan ham anglashiladi. Oila uchun mo'ljallangan uylar odatda ko'cha va qo'shni tomoni devor bilan o'ralgan hovlilardan iborat bo'lardi. Barcha turar joy va xo'jalik xonalarining derazalari ichkari tomonga qaratilgan. Hovli ikki qismga - bolalar va ayollar uchun ichkari hovli hamda nomahram erkaklar va mehmonlar uchun mehmonxona tarzidagi hashamatli xonalardan iborat tashqa-ri hovliga bo'lingan.

O'zbek oilalarida dahliz va katta uydan iborat ikki xonali turar-joy eng ko'p tarqalgan edi. Ular o'sha vaqtlarda oldi ay-vonli va ayvonsiz, aeosan tosh, paxsa yoki xom g'ishtdan qurilgan.

O'zbek oilasi shakllanishi jarayonida uning o'ziga xos xusu-siyatlari ham paydo bo'ldi:

birinchidan, o'zbek oilasi bu davrda o'lkada islom dini tarkalishi natijasida islomning oilaga taaluqli qonun-qoida-lariga asoslangan edi. Bu oilada erning mavkei balandligini, shu bilan birga xotin ham muayyan haq-huquqlarga egaligini

bildiradi;

ikkinchidan, o'zbek oilasi o'z o'tmishdoshlarining eng yaxshi fazilatlari - yurtiga, el-ulusiga, qon-qardoshlariga sadoqat mexr-muhabbat, mehnatsevarlik, fidoyilik, hamdardlik va bo'shqa xislatlarni mujassamlashtirgan edi;

uchinchidan, o'zbek oilasi SHarq ahloq-odobi me'yorlari -ahillik, o'zaro yordam, kattalarga hurmat, kichiklarga izzat va mehribonlik, vafodorlik, poklik, andishalik, hayo va uyat, sabr qanoat, vazminlik, qanoatlilik asosiga kurilgan edi;

to'rtinchidan, o'zbek oilasi serbutoqlik, serfarzandlits bilan ajralib turardi. Bu avlodni davom ettirish ma'suliyati, katta oila an'analari, kadimiy bolaparvarlik qadriyatlar bilan izohlanardi. Xalqimizda "O'nta bo'lsa o'rni boshqa" naqli bejiz paydo bo'lgan emas: o'zbeklar eng bolajon millatlardandir; "

beshtinchidan, o'zbeklarda oila qurishga o'ta jiddiy munosa batda bo'lingan. SHuning uchun xalkda "Ot olish uchun bir oy kengash qil, uylanish uchun bir yil", "Tanish-bilish -bir yil' chilik, qudachilik - ming yilchilik ", "Aslini bilmay so'z de-maslar, naslini bilmay qiz bermaslar" deyishadi;

oltinchidan, o'zbek oilasi juda qadimdan jamoaviy tur mush tarziga asoslangan. O'zbeklar o'trok hayot kechirganliklari: ri, dehqonchilik bilan shug'ullanganliklari uchun ular yanpya yerlarni o'zlashtirish, bu maydonlarga suv chiqarish uchun ariq[^] zovurlar qazishda bir-birlarini qo'llab-quvvatlashlariga-1 jamoa bo'lib hamjihatlik bilan ishlashlariga to'g'ri kelgan. I

Qadim-qadimdan o'zbeklarda hashar eng ajoyib udum bo'lgan! ligi ham ana shu turmush tarzining amaliy ifodasidir. Jamoa hashari bilan uy-joylar, ko'priklar kurilgan, boshqa obodon-1 chilik ishlari amalga oshirilgan.

O'lkada hududiy qo'shnichilik " mahalla", "guzar\ "masjid"» "jamo", "elat" nomlari bilan atalib, bu faqat joy nomiga emas, shuningdek bu hududda istiqomat qiluvchi jamoani ham anglatgan.

Jamoaning yoshlar tarbiyasidagi o'rni ham juda katta edsh "bir bolaga yetti mahalla ota-ona" iborasi ham buni yakkol ifodalaydi;

ettinchidan, mehmonnavozlik o'zbek oilasining eng qady-miy xususiyatlaridan biri. O'zbek xonadonlarida uylarida mexmonlar uchun maxsus eng katta va hashamatli xona kurilgan. Gap-gashtaklik, mushoira juda keng tarkalgan.

Mehmon oilada eng mo'tabar zot - ota darajasiga ko'taril-gan: "Mehmon otangdek ulug'". O'zbek oilasi xonadoni eshigini takillatib kirgan har kanday kimsa - hatto u g'anim bo'lsa ham izzat-ikrom bilan kutib olingan.

Hozirgi davrga qadar mehmon bir oilaning emas, balki shu yerda yashovchi qo'ni-ko'shnilar uchun ham eng aziz va tabarruk inson hisoblanishi Farg'ona vodiysi, Xorazm viloyati, boshka xududlarda saqlanib qolgan. Agar mehmonning vaqti yo'qligi yoki boshka biror sababga ko'ra u shu mahalladishlokdagi qo'shni-larnikiga mehmondorchilikka bora olmasa, unga atab maxsus pishirilgan eng mazali taom mehmon turgan xonadonga olib kelinadi;

sakkizinchidan, o'zbek oilasi uchun bag'rikenglikdantilik ham xosdir. O'zbeklar ko'ni-ko'shnilari ular qaysi millat va elatga mansubliklaridaysi dinga e'tiqod

qilishlaridan qat'i nazar ahil va inoqdinch-totuv yashaganlar. O'lka aholisi ko'p millatli bo'lganiga qaramasdan tarixda millatlararo nizolar kuzatilmagan. O'zbeklarning boshqa millat vakillari bilan turmush qurishlari hollari xam kam emas.

O'zbek oilasi shakllanishi davrida katta (patriarxal) oila-dan kichik (monogam) oilaga o'tish hollari kuzatilishi munosabati bilan tub aholi nikoh-oila munosabatlari xususiyatlari-ga taalluqli quyidagi masalalar alohida ahamiyatlidir

birinchidan, bir urug', qabila, millat vakillaridan iborat oilalardagina emas, shuningdek mahalliy turli elatlarga mansub oilalarda ham uning a'zolari ota hamda ota urug'i milla-tiga mansub ekanlarini yaxshi bilardilar. Har bir tub mil-latning etnik birlashuvi, bu millatlar ichidagi urug'-aymok-chilik alohidaligining bo'shashishi sharoitlarida bevosita oila-Aagi o'zlikni anglash asta-sekin milliy o'zlikni anglashning shakllanishiga xizmat kildi. O'z navbatida milliy o'zlikni anglash uruqqa mansublik hissini orqaroqqa surib ko'ydi. A'illiy rivojlanishdagi bu taraqqiyot boshkalardan ilgariroq o'troq hayot kechirishga o'tgan xalqlarda kuzatiladi.

SHu munosabat bilan, fikrimizcha, oilaning etnosni birlashtiruvchi roli millatni jipslashtirish, uning o'ziga xosligini hamda o'zligini saqlab qolishning, shuningdek jamiyat, davlatni rivojlantirishning muhim omili bo'lib keldi va bo'lib qoladi;

ikkinchidan, Markaziy Osiyoda aholining aksariyat qismi I qishlokda yashashi sababli mehnat qurollari ibtidoiy, dala-larni sug'orish mashaqqatli bo'lgani holda dehqonchilik qilish \ uchun birgina jamoaning emas, balki oila qarindosh-urug'la-rining ham sa'y-harkatlarini birlashtirish talab etilardi. O'lkada katta oilalar saqlanib qolingan shu omillar I qatori bu bilan birga ma'naviy-axloqiy mezonlar ham ta'-sir o'tkazardi. O'zbek oilalarida katta avlod birgina farzandlari emas, nevaralari tarbiyasi uchun ham o'zlarini mas'ul hisoblar edilar. SHuning uchun katta oiladan yangi oila | nevara uylanganidan keyingina ajralib chiqishi tasodifiy . emasdi.

Katta oila, ayniqsa, nochorroq aholi o'rtasida ko'proq tahlil bo'lgani va saqlanib qolgani iqtisodiy jihatdan maq- ; sadga muvofiqligi bilan ham izohlanardi. Katta oilada uning a'zolari uchun xo'jalik yuritish, ishlab topilgan da-romadni sarf etish, bir qozondan ovqatlanish har tarafla-ma manfaatliroq edi. SHu sababli ham jamoa uylangan o'g'il-ning katta oiladan ajralib chiqishiga salbiy munosabatda bo'lardi.

O'zbek oilasida onaning o'g'li uylanganidan so'ng odatda boshqa tug'masligi ham.fikrimizcha, ijobiy xususiyatlar qatoriga kiradi. Bundan jamoadagi axloqiy-etik qarashlar oila-da bolalar soni haddan tashqari ko'payib ketishiga ma'naviy jihatdan hayrihohlik bildirilmaganligi xulosasi kelib chiqadi. Uylashimizcha, bu "yozilmagan qonun"ga amal etilishida ota-onalar, jamoaning juda kech ko'rilgan bola yetim bo'lib o'smasligi to'g'risidagi g'amxo'rlik ham yotadi. CHunki, bu davrlarda tub aholining o'rtacha umr ko'rishi 40-50 yoshdan oshmasdi.

Nazorat savol va topshiriqlari

- 1.Oilashunoslik fanining predmeti va vazifalarini aniqlang?
- 2.Jamiyat va oila deganda nimani tushunasiz?
- 3.Yoshlarni oiladagi muloqotga tayyorlash haqida ayting?

Tavsiya etiladigan qo'shimcha adabiyotlar

1. SHoumarov G'.B. "Muhabbat va oila" Toshkent, 1994 yil
2. SHoumarov G'.B. taxriri ostida "Oila psixologiyasi" Toshkent, 2000 yil
3. "1001 savolga psixologning 1001 javobi" SHoumarov G'.B. taxriri ostida. Toshkent 2000
4. «Xademay oila quramiz» Toshkent 2004 yil
5. Kinessa "Brak pod mikroskopom" M.1997 yil

2.MAVZU: SHAXSLARARO MUNOSABAT JARAYONIDA SHAXSNI SHAKLLANISHI.

Dars o'quv maqsadi: Shaxslararo munosabat jarayonida shaxsni shakllanishi haqida talabalarga o'rgatish.

Tushunchalar va tayanch iboralar: Ilk bolalik yoshi (0-3 yosh), bog'cha yoshida davri (3-6 yosh), kichik maktab yoshi (6-11 yosh), o'rta maktab yoshi (15-17 yoshi), katta maktab yoshi (15-17 yoshi).

Asosiy savollar:

1. Barqaror guruhda shaxsni shakllanishi.
2. O'zgaruvchan muhitda shaxsni shakllanishi.
3. Shaxs shakllanishining yosh davrlari.

Asosiy o'quv materialini qisqacha bayoni

1. Shaxsni shakllanishini umumiy holda uni "yangi ijtimoiy muhitga kirish va unga jarayoni" sifatida tasavvur qilishi mumki. Bunda so'z bolaning bog'chadan maktabgacha, o'smirning yangi kompaniya (guruh)ga, abituriyentning mehnat jamoasiga, chaqiriluvchining armiyaga global kenglikda, ya'ni chaqaloqlikdan yetuklik darajasigacha bo'lgan jarayon xaqida so'z borar ekan, buni inson hayoti sifatida, uni turli xil guruhlardagi faoliyati va bu faoliyatni tushunishi va unga moslasha borib, o'zini shakllantirib borishi deb tushunish darkor.

Barqaror guruhda shaxsni shakllanishi bosqichlari "shaxsni rivojlanishi davrlari" deb ataladi. Shaxsni rivojlanish davrlarini uchga bo'lish mumkin:

- 1) moslashish, 2) individual yondoshish, 3) birlashish.

Shaxsni shakllanishini birinchi davri xarakatdagi guruhning normalarini faol o'zlashtirish va faoliyatning forma va vositalarini egallashni faraz qiladi. O'zining individualligini tashkil qiladigan barcha narsalarni u yangi guruhga olib kirib, subekt o'zini shaxs sifatida ilgaridek ehtiyojlarini qodira olmaydi, chunki u harakatdagi guruhning normalarini (ahloqiy, o'quv, ishlab chiqarish va boshqa) o'zlashtira olmagan va guruh a'zolari kabi faoliyatning vosita va usullarini egallamagan bo'ladi. Unda "hamma qanday bo'lsa, shunday bo'lishi", guruhga ko'proq moslashish zaruriyati tug'iladi.

Bundan tashqari, guruhiy faoliyatda shaxsning yangi qirralarini ochib beradigan qulay sharoit yaratilishi mumkin va bu guruhiy rivojlanishi darajasiga mos keladi hamdahu darajani ushlab turadi. Shunday qilib bu birinchi davr bo'lib, u-moslashish davridir.

Ikkinchi davr- sub'ektining "hamma kabi" bo'lib kolishi va individ sifatida birinchi davrda ehtiyojlarini qondirilmaganligi orasidagi karama-qarshiligi bilan boshlandi. Bu davrda sub'ekt o'zini individualligini ko'rsatish uchun vosita va usullarni topishga xarakat qiladi. Masalan: yangi guruhga tushgan o'smir boshqalardan ajralib turishga harakat qilmay, balki guruhdagi qabul qilingan muomala, leksikasi, kiyinish, umumiy qiziqish va didiga, moslashish qiyinchiliklariga bardosh berib, bu taktikaga ergashib o'z shaxs sifatida o'zligini yo'qotayotganligini his qila boshlaydi. Bu holatda u butun ichki imkoniyatlarini

o'zining individual xususiyatlarini yuzaga chiqarishga yo'naltiradi. Bu ikkinchi davr-individuallik davridir.

Uchinchi davr-bir tomondan-oldingi davrlardagi sub'ektning individual xususiyatlarini boshqalar tan olishini va uning o'ziga xosligini ko'rishlari bo'lsa, ikkinchidan-uning individual xususiyatlarini qabul qilishlari, qo'llab-quvvatlashlariga, ehtiyojini guruhiiy faoliyatda qondirilishi qarama-qarshiligida ifodalanadi.

Kechagi o'quvchi, bugungi yosh ishchi bo'lgan sub'ekt ishlayu chiqarish brigada a'zosi bo'lib, moslashish davridan o'tib, ikkinchi davrda esa o'zining individualligini topishiga harakat qiladi, shaxs sifatida jamoada o'z o'rnini topishga intiladi. Buni natijasida aniqlangan ijroiiy tafovutlar (ishchanlik, hazil ishdagi topqirlik, qidokorlik) qabul qilinishi va qo'llab-quvvatlanishi-shaxsni guruhga birlashishi yuzaga keladi.

Shunday qilib, uchinchi davr-shaxsni guruhga birlashish davridir. Bu davr doirasida guruhiiy faoliyatda inidvidda yangicha shaxs yuzaga chiqardi. Yuqorida aytib o'tilgan davrlar shaxsnin shakllanishida ma'lum bir holatni tashkil etadi. Indivii ishtirok etayotgan ijtimoiy holat o'zgarganda shaxs shakllanishi ham o'zgarish yuz beradi. Masalan: Biror bir rahbar lavozimidan tushgandan keyin yuqorida aytib o'tilgan davrlarni qaytadan boshidan o'tkazadi.

2. Shaxs ishtirok etayotgan va o'zgarayotgan ijtimoiy muhit nisbatan barqaror bo'lib, u ham doimiiy o'zgarishda va shakllanishda bo'ladi. U ya'ni muhit doimiiy ravishda yangi va yangi qirralarini ochib boradi va odamni yangidan yangi holatlarga duchor qilaveradi. Masalan: o'rta maktab sharoitida shaxs shakllanishi bir maromda o'tsa, ishlab chiqarish brigadasiga o'tganda yoki harbiy xizmatga chiqarilganda keskin o'zgaradi. Chunki turli guruhlarda o'ziga xos ijtimoiy psixologik qonuniyatlar mavjudki, bu o'z navbatida jiddiiy nazariy xatolarga va amaliy qarorlarni noto'g'ri qabul qilishiga olib kelishi mumkin. O'zgaruvchan muhitda shaxsni shakllanishi bosqichlari shakllanishi davri deyiladi. Barqaror muhitda shaxs shakllanishi jarayoni yetarlicha qiyin bo'lsa, o'zgaruvchan muhitda esa yanada qiyin kechadi, chunki indivii bir muhitdan bunga teskari bo'lgan va ijtimoiy – psixologik qonuniyatlari boshqa guruh qabul qilingan shaxs boshqa guruh tomonidan inkor qilinganda u yana va yana o'zining shaxsiiy pozitsiyasida qattiq turishiga to'g'ri keladi. Shunday qilib, qarama-qarishliklarning yangi qirralari yuzaga chiqaveradi va shaxs shakllanishi jarayonini qiyinlashtiradi, bu esa asablarning buzilishiga olib kelishi mumkin.

Shaxs guruhda shakllanadi, shaxsning shakllanishi xususiyati va xarakteri guruhning shakllanganlik darajasi bilan belgilanadi. Mashhur psixolog va pedagog A.S.Makarenkoning "Shaxs jamoada va jamoa orqali shakllanadi" fikrini davom ettirgan holda, "bola, o'smir, o'spirin shaxs shakllanganlik darajasi turlicha bo'lgan guruhlariga izchillik bilan kirishi natijasida shakllanadi".

Shaxsning yuksak siqatlarini rivojlanishi uchun qulay sharoitlarni yuqori daraja shakllangan guruh, ya'ni jamoa yaratib beradi.

3. Pedagogika va psixologiya fanlari shaxsni shakllanishini quyidagi yosh davrlariga ajaratishadi:

1. Ilk bolalik yoshi (0-3 yosh),

2. bog'cha yoshida davri (3-6 yosh),
3. kichik maktab yoshi (6-11 yosh),
4. o'rta maktab yoshi (15-17 yoshi),
5. katta maktab yoshi (15-17 yoshi).

Ilk bolalik yoshida shaxs shakllanishi oilada amalga oshiriladi. Oilaviy munosabatlardagi kelib chiqqan holda bola shaxsi yoki g'amho'r, mehribon, o'z xato va kamchiliklarini tan olishdan qo'rqmaydigan, ochiq ko'ngil, kichik odamlar majmuriyatlaridan qochmaydigan, yoki qo'rqor, dangasa, baxil, injiq, o'zini o'ylaydigan bo'lib shakllanishi mumkin.

Ilk bolalik yoshida shakllanish davri quyidagi natijalarni ayd etadi: birinchidan-moslashishi darajasida oddiy ko'nikmalarni o'zlashtirish va ijtimoiy hayotga kirishish vositasi sifatida so'zlashni lozim; Ikkinchidan-individuallanshish asosida atrofdagilarga o'zigi qarshi qo'yish; ya'ni "meni oyim", "men onamni qiziman, o'g'liman", "meni o'yinchoqlarim" kabi o'zini boshqalardan ajratib ko'rsatishi va uchinchidan esa-moslashish, ya'ni o'zini harakatlarini boshqarilishiga yo'l qo'yishi, atrofdagilar bilan hisoblashishi, kattalarning talablariga bo'ysunishi va boshqalar.

Bog'cha yoshi davri-bolani bog'chalar o'z tengdoshlari guruhiga kiritilishi va bu guruhni referent shaxs sifatida boshqalardagi va bola ota-onasi bilan teng ko'radigan tarbiyachi tomonidan boshqarilishi bilan xarakaterlanadi. Tarbiyachi ota-onalar yordamida faoliyatning turli forma va turlaridan (o'yin, o'quv mehnat va sport) foydalangan holda o'z atrofida jipslab; ularda ijtimoiy fazilatlarni shakllantirishga harakat qiladi. Bu davrda shaxs shakllanishining uch davri faraz qilinadi: birinchisi-moslashish-boshqalar bilan o'zaro xarakat qilish sharoitida halq-atvor normalari va usullarini o'zlashtirish; ikkinchisi-individuallashish-bola o'zidan boshqalarda uchramaydigan, boshqalardan ajralib turadigan biron xususiyatini ko'rsatishi, (salbiy yoki ijobiy) va bunga bolalarning, ota-onasi va bildirilishiga harakat qiladi, uchinchisi esa- kirishib ketish-bolaning o'zining xarakatlari bilan boshqalarga o'xshamaslini ko'rsatish va maktabga kattalarning yordamini qabul qilishiga tayyorligini bildirishga intiladi.

Kichik maktab yoshida ham xuddi bog'cha yoshi davridagidek kechadi. Bunda ham uchta davr o'quvchining sinfdoshlar guruhiga kirishib ketishiga imkoniyat yaratib beradi. Bu yosh davrida faqat tarbiyachidan farqli o'laroq o'qituvchi kunlik dars nazorati asosida va baxo qo'yish asosida bolaning o'z tengdoshlari bilan o'zaro munosabatlarini hamda ota-onalari bilan rol o'ynaydi, shu bilan birga o'quvchini o'ziga nisbatan bo'lgan munosabatini ham o'zgartirishga yordam beradi, ya'ni o'ziga "boshqanim ko'zi bilan" qarashga o'rgatadi.

Ta'kidlash lozimki, nafaqat o'quv faoliyati kichik maktab yoshidagi o'quvchini shaxsini shakllanishida muhim faktor bo'ladi, balki katta yoshdagilarning uning o'quv faoliyatiga, o'zlashtirishiga intizomiga va harakatchanligiga bo'lgan e'tiborlari ham muhim hisoblanadi.

Kichik maktab yoshidagi uchuinchi davr, ya'ni birlashish, kirishib ketish davri o'quvchida "o'quvchi-o'quvchi", "o'qituvchi-o'qituvchi", "o'quvchi-ota-ona" tizimida yaqqol namoyon bo'ladi va ahamiyat kasb etadi.

O'rta maktab yoshida esa o'ziga xos spetsifik xususiyati shundan iboratki, bu davrda o'quvchining shaxsi shakllanishi rivojlangan guruh sharoitida yuzaga keladi, lekin bunda sharoitlar boshqa, yosh davridagidan keskin farq qiladi, ya'ni turli fandan turli o'qituvchilarning dars o'tishi, jamoat ishlarining mohiyati, qishloq xo'jalik ishlari, turli kechalar va xokazolar, organizmdagi biologik o'zgarishlar va jinsiy yetilishlar ham ma'lum darajada ahamiyatga ega bo'ladi.

Bu vaqtga kelib, guruhlar ham sifat jihatdan o'zgaradi. Turli ko'rinishdagi faoliyat turlari turlicha vazifalarni bajarishi jarayonida turli maqsadlarni ko'zlagan guruhlarini yuzaga keltiradi. Bir guruhda ijobiy xarakterdagi tasavvurlar tug'lsa, ikkinchi guruhda esa salbiy fikrlar ustunlik qilishi, uchinchi bir guruhda esa shaxsni shakllanishiga to'sqinlik qiluvchi fikrlar tug'ilishi mumkin.

O'smirning guruhlararo qarama-qarshi pozitsiyasining ahamiyati ham kam emas, chunki bu holat ham ma'lum jihatdan ham uning ichki dunyosini shakllanishida muhimdir.

Shaxsning jamoada shakllanishi jarayoni-yoshlikning spetsifik xususiyati bo'lib, bu katta maktab yoshi bilan chegaralanib qolmaydi, balki yoshlikning ostonasi ham hisoblanadi. Mehnat jamoasida shaxsning moslashishi, individuallashuvi va kirishib ketishi insonning yetuk shaxs bo'lib yetishishini ta'minlaydi va jamoaning o'zini ham jamoa sifatida shakllanishi sharti hisoblanadi. Yuqori shakllangan guruhga shaxsning kirishib ketishi, jamoaga berilgan xarakteristika-shaxsga berilgan xarakteristika bo'lib hisoblanadi (ya'ni, guruhiy shaxsiy sifatida, shaxsiy esa guruhiy sifatida).

Nazorat savol va topshiriqlari

- 1.Barqaror guruhda shaxsni shakllanishi haqida ayting?
- 2.O'zgaruvchan muhitda shaxsni shakllanishi haqida gapiring?
- 3.Shaxs shakllanishining yosh davrlari haqida ayting?

Tavsiya etiladigan qo'shimcha adabiyotlar

1. Karimova V.M. Oilashunoslik . Toshkent, 2000 yil
2. Karimova V.M. Sotsial psixologiya. Toshkent, 1996 yil
3. Petrovskiy A.V tahriri ostida. Umumiy psixologiya. Toshkent, 1996 yil
4. Davletshin M.G. Umumiy psixologiya. Toshkent, 1996 yil
5. SHoumarov G'.B. "Muhabbat va oila" Toshkent, 1994 yil
6. SHoumarov G'.B.taxriri ostida "Oila psixologiyasi" Toshkent, 2000 yil
7. "1001 savolga psixologning 1001 javobi" SHoumarov G'.B. taxriri ostida. Toshkent 2000

3.MAVZU: HOZIRGI ZAMON OILALARINING TURLARI.

Dars o'quv maqsadi: Talabalarga oila klassifikatsiyasi. oilaning asosiy funktsiyalari haqida o'rgatish.

Tushunchalar va tayanch iboralar: kommunikativ, rekerativ, felitsitologik, regulyativ, relaksatsiya, funktsiya.

Asosiy savollar:

1. Hozirgi zamon oilalarning turlari.
2. Hozirgi zamon oilasining asosiy funktsiyalari.
3. Oilaning reproduktiv, iqtisodiy tarbiyaviy kommunikativ, rekerativ, felitsitologik, regulyativ, relaksatsiya, funktsiyalarining asosiy ahamiyati.

Asosiy o'quv materiali qisqacha bayoni

Hozirgi zamon oilalarining qanday turlarga ega ekanligi va ularning ijtimoiy-psixologik xususiyatlarini bilish, ularga xos muammolarni o'rganish, oilaviy hayotda ro'y berishi mumkin bo'lgan noxushliklarning oldini olish imkonini beradi. Quyida shular haqida qisqacha to'xtalib o'tamiz. Oila uni xarakterlovchi turli mezonlarga ko'ra quyidagilarga farqlanadi:

1. **To'liqligiga ko'ra:** to'liq, noto'liq va qayta tuzilgan (ikkinchi nikoh) oilalar.
2. **Bo'g'inlar soniga ko'ra:** nuklear (ota-ona va bolalardan iborat bo'lgan) va ko'p bo'g'inli (ikki va undan ortiq avloddan iborat oila a'zolari birga yashovchi) oilalar.
3. **Bolalar soniga ko'ra:** farzandsiz, bir iki bolali 3-4 bolali, 5 va undan ortiq bolali oilalar. Turli malaklarda bu mezonlar turlichadir. Masalan, AQSh, Frantsiya, Germaniya, Gretsiya, Rossiya va boshqa rivojlangan davlatlar 3-4 bolali oilalar ko'p bolali oilalar hisoblanadi. O'zbekistonda bunday oilalar farzandlar soni o'rtacha bo'lgan oilalar sarasiga kiradi.
4. **Er-xotinning ijtimoiy kelib chiqishiga ko'ra:** ishchilar, dehqonlar, xizmatchilar, ziyolilar oilasi aralash tipdagi oila.
5. **Er-xotinning ma'lumot maviyasiga ko'ra:** oliy ma'lumotlilar, o'rta-maxsus, o'rta tugatilmagan o'rta maxsus yordamchi maktab ma'lumotiga va turli saviyadagi ma'lumotga ega bo'lgan qayliqlardan tashkil topgan oila.
6. **Oilaning "yoshiga" ko'ra:** yosh oila (1 yilgacha 3-5 yillik, 6-10 yillik turmush tajribasiga ega bo'lgan oilalar) o'rta yoshdagi oila, yetuk yoshdagi oila qariyalar oilasi.
7. **Qayliqlarning ota-ona oilasi** (ota-onasi)ning moddiy ta'minlanganlik darajasi jihatidan qudalarning tafovut mavjudligi bo'yicha bir-biriga mos va mos bo'lmagan oilalar.
8. **Regional jihatlarga ko'ra:** shahar qishloq, aralash tipdagi oila.
9. **Nikohdan qoniqqanlik saviyasiga ko'ra:** ajralish saviyasida-nikohdan qoniqqanlik darajasi quyi saviyada bo'lgan oila, o'rta saviyada va nikohdan qoniqqanlik darajasi yuqori saviyadag oila.

10. Oila ayol yoki erkak yetakchiligiga ko'ra: er yetakchi bo'lgan oila xotin yetakchi bo'lgan oila, er va xotin yetakchilikni birga bajaradigan (biarxat) oila.

11. Oliada er-xotin orasidagi munosabatlariga ko'ra: avtoritar, demokratik liberal, aralash tipdagi oiladir.

12. Er-xotinlarning millatiga ko'ra: bir millatli yoki baynalmilal oilalar. Baynalmilal oilalarni o'z navbatida ikkita bo'lish mumkin.

- dini, urf-odatlar yoki tili bir guruhga millat vakillari orasida nikohlar masalan o'zbek-tojik, o'zbek-qozoq, o'zbek-turkman, rus-ukrain, o'zbek-tatar va boshqalar.

- dini, urf-odatlar yoki tili bir guruhga kirmagan millat vakillari orasidagi nikohlar, masalan, o'zbek-rus, o'zbek-ukrain, o'zbek-eston, o'zbek-nemis va boshqalar.

Yuridik rasmiylashtirilganligiga ko'ra: sinovdagi oila (birga yashashadi, ammo hali nikohni rasmiylashtirmagan, chunki bir-birlarini norasmiy nikohda sinashayapti) rasmiylashtirish arafasidagi oila (birga yashashadi, oila qurish maqsadi aniq, ammo ayrim ob'ektiv sabablarga ko'ra rasmiylashtirish kechiktirilayapti), nikohdagi oila, nikohdan tashqari oila (ayrim erkak kishilarning ikkinchi, uchinchi, yuridik jihatdan norasmiy oilasi). Nikohdan tashqari oilalarning ayrimlari pinhona bo'lsa, ko'pchiligi haqida erkak kishining birinchi oilasi va qarindoshlari bilishadi.

Hozirgi zamon oilasining asosiy funktsiyalari. Oilaning ijtimoiy funktsiyalari haqida gapirganda, bir tomonda jamiyatning oilaga ta'sirini, ikkinchi tomondan esa umumiy ijtimoiy tizimda oilaning o'rnini, oilaning hal qiladigan ijtimoiy (jamoatchilik) funktsiyalarini hisobga olish lozim. Barcha oldingi jamiyatlarda oila quyidagi asosiy funktsiyalarni bajargan: iqtisodiy, reproduktiv, tarbiyaviy, rekreativ, kommunikativ, regulativ (boshqaruv). Insoniyat taraqqiyotining hozirgi bosqichida hozirgi zamon oilasining asosiy funktsiyalari qatorida quyidagilarni sanab o'tish mumkin: iqtisodiy, reproduktiv, tarbiyaviy, rekreativ, kommunikativ, regulativ (boshqaruv), feliotsitologik kabilar.

Oilaning iqtisodiy funktsiyasi.

Oilaning iqtisodiy funktsiyasi uning asosiy funktsilardan biri hisoblanadi. Oila iqtisodi, byudjeti, daromadini rejali sarflash, kundalik xarajatga zurur buyumlarga pul ajratish, bir necha yildan so'ng olinadigan narsalarga mablag' yig'ish, tejab ro'zg'or yuritish er-xotinning katta tajriba, malakaga ega bo'lishlariga bog'liq. Masalan, bola tarbiyasi, bolani iqtisodiy ta'minlash borasidayoq uning jamiyatga keltirgan foydasi katta miqdorni tashkil etadi. Tasavvurga osonroq bo'lishi uchun aytish mumkinki, har bir bolani voyaga yetkazish uchun oila davlatga kamida 1 ta "Neksiya" avtomashinasi qimmatini miqdorida iqtisodiy foyda keltiradi. Bu boradagi, ya'ni har tomonlama kamol topgan ma'naviy ahloqiy yetuk, jismoniy-psixologik sog'lom shaxsni yetishtirishning ma'naviy-ahloqiy jihatlarini hech qanday iqtisodiy mezon bilan o'lchab bo'lmaydi.

Bu oilani iqtisodiy funktsiyasini atigi birgina shaxsni shakillantirishdagi foydasini ko'rsatadi xolos. Oilada xo'jalik ishlarini yuritish, moddiy ne'matlar

ishlab chiqarish kabilar uning jamiyat oldidagi iqtisodiy funktsiyasi ahamiyatini tobora orttiraveradi.

Oilaning reproduktiv funktsiyasi.

Oilaning muhim bo'lgan funktsiyalaridan yana biri bu uning reproduktiv (jamiyatning biologik uzluksizligini ta'minlash, bolalarni dunyoga keltirish) funktsiyasidir. Bu funktsiyaning asosiy mohiyati inson turini davom ettirishdan iboratdir.

Oilaning jamiyat oldidagi reproduktiv funktsiyasi va uning bajarilishi deyilganda aholi sonining qayta tiklanish uchun har bir oilada nechtdan farzand bo'lishi lozimligi nazarda tutiladi. Statistik ma'lumotlarga ko'ra, agar har bir oilada bittadan farzand bo'ladigan bo'lsa, bunday xalq sakkizinchi avloddan keyin yo'q bo'lib ketishi mumkin ekan. Har bir oilada ikkitadan farzandning bo'lishi ham aholi sonini saqlab turishni ta'minlay olmaydi. Demograflarning ta'kidlashlaricha, oila o'zining reproduktiv funktsiyasini bajarishi uchun har bir oilaga o'rtacha 2,6 ta farzand to'g'ri kelishi kerak.

Oilaning tarbiyaviy funktsiyasi

Oilaning muhim ahamiyatga ega bo'lgan yana bir funktsiyasi tarbiyalash funktsiyasidir. Bolalarning aqliy, jismoniy, ahloqiy, estetik tarbiyasiga oilada asos solinadi. Oila inson deb ataluvchi binoni faqat poydevorini qo'yish bilan cheklanmasdan, balki uning so'ngi g'ishti qo'yilguncha javobgardir. Ota-onas-atkor, bola-san'at asari, tarbiya jarayoni esa san'atning o'zidir.

Jamiyatning komil fuqarosini shakillantirish, tarbiyalash hozirgi zamon oilasining mazkur funktsiyasi darajisiga kiradi. Chunki shaxsning ijtimoiylashuvi dastavval oilada amalga oshadi. Oiladagi tarbiya orqali shaxsga ma'lum bir siyosiy g'oyaviy dunyoqarash, axloqiy me'yorlar va hulq namunalari, jismoniy sifatlar singdiriladi.

Oilaning kommunikativ funktsiyasi.

Oilaning kommunikativ funktsiyasi oila a'zolarining o'zaro muloqot va o'zaro tushunishga bo'lgan ehtiyojini qondirishga xizmat qiladi. Psixologik tadqiqotlarda ta'kidlanishicha, turli ijtimoiy fientatsiyalar, ustanovkalar, xissiy madaniyat, odamning axloqiy, ma'naviy va psixologik salomatligi-oiladagi o'zaro, ichki muloqot xarakteri, oiladagi katta a'zolarining muloqotda psixologik ustanovkalarni namoyon qilishlari, oliadagi axloqiy-psixologik iqlimga to'g'ridan-to'g'ri bog'liqdir.

Oilaning rekreativ funktsiyasi.

Nikoh-oila munosabatlari yuzaga kelgan dastlabki, ibtidoiy zamonlardan buyon unga xarakterli bo'lib kelgan xususiyatlardan biri, undagi shaxslararo munosabatlar talablaridan biri uni o'z a'zolarining axloqiy-psixologik himoyalaniishni ta'minlash, shuningdek bolalarga va mexnatga yaroqsizyoki keksa qarindoshlarga moddiy va jismoniy yordam ko'rsatish kabilardan iborat bo'lib kelgan.Bu xolat o'z navbatida oilaning asosiy funktsiyalardan yana birini, uning reaktiv funktsiyasining tashkil qiladi. Oilaning rekreativ-o'zaro jismoniy, moddiy, ma'naviy va psixologik yordam ko'rsatish, bir-birining salomatligini mustaxkamlash, oila a'zolari dam olishini tashkil etish funktsiyasidir.

Oilaning felitsitologik funktsiyasi.

Hozirgi zamon oilasining tobora ahamiyati ortib borayotgan funktsiyalardan biri felitsitologik funktsiyasidir (italyancha felitsite-baxt). Shaxsiy baxtga erishiga intilish oilaviy munosabatlar tizilishida ko'p jihatdan hal qiluvchi bo'lib bormoqda. Baxt nima o'zi? Hozirgi zamon oilasi o'z a'zolarining baxtini ta'minlashda qanday rol o'ynaydi? Baxtga intilish har bir inson uchun tabiiydir va ayni shu baxtga intilish ularni oila qurishga undaydi. Inson o'ziga ato etilgan baxtning to'rtidan uch qismni oiladan, choraktaga yetar-etmas qismini boshqa narsalardan topadi. Oilada er-xotinning bir-birini to'liq tushunishi-ularning o'zlarini baxtli xis qilishlarini ta'minlaydi.

Oilaning regulativ funktsiyasi.

Oilaning regulativ funktsiyasi oila a'zolari o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni boshqarish tizimini, shuningdek birlamchi ijtimoiy nazoratni, oilada ustunlik va obro'ni amalga oshirishni o'z ichiga oladi. Bunda kattalar tomonidan yosh avlodni nazorat qilish va ularni moddiy hamda ma'naviy tomondan qo'llab-quvvatlash nazarda tutiladi.

Oilaning relaksatsiya funktsiyasi.

Hozirgi zamon oilasining eng asosiy funktsiyalardan biri relaksatsiya funktsiyasidir. Bu degani oila a'zolarining jinsiy, emotsional faoliyatini, ruhiy-jismoniy quvvatini, mehnat qobiliyatini yana qayta tiklash demakdir. Ish kuni davomida ko'tarinkilik, kuchli zo'riqish bilan ishlagan xodim, ishchi ishdan so'ng o'z uyida, oila a'zolari qurshovida, boshqa tashvishlarini unutib, ular unga ko'rsatadigan mehri-oqibatdan o'zaro muloqot, ular tomonidan bo'ladigan emotsional qo'llab-quvvatlash, beriladigan daldalardan ruhiy quvvat olib, ertangi kun mehnat faoliyatiga o'zini qayta tiklab olishi lozim bo'ladi. Buning uchun esa uning oilasida tinchlik, totuvlik, o'zaro tushunish, o'zaro hurmat mehri-oqibat, ijobiy psixologik iqlim xukm surmog'i lozim.

Nazorat savol va topshiriqlari:

1. Hozirgi zamon oilalarning turlari haqida ayting?
2. Hozirgi zamon oilasining asosiy funktsiyalari deganda nimani tushunasiz?
3. Oilaning reproduktiv, iqtisodiy tarbiyaviy kommunikativ, rekerativ, felitsitologik, regulativ, relaksatsiya, funktsiyalarining asosiy ahamiyati haqida ayting?

Tavsiya etiladigan qo'shimcha adabiyotlar

1. SHoumarov G'.B. "Muhabbat va oila" Toshkent, 1994 yil
2. SHoumarov G'.B. taxriri ostida "Oila psixologiyasi" Toshkent, 2000 yil
3. "1001 savolga psixologning 1001 javobi" SHoumarov G'.B. taxriri ostida. Toshkent 2000
4. «Xademay oila quramiz» Toshkent 2004 yil
5. Kinessa "Brak pod mikroskopom" M.1997 yil

4.MAVZU: OILA MA'NAVIYATI.

Dars o'quv maqsadi: Talabalarga oilada ota-onaning o'rni,o'zbekistonda oila, davlat va jamiyat munosabat omillari,oilada totuvlik muhitini yaratishni o'rgatish.

Tushunchalar va tayanch iboralar: Oila, ota-onaning o'rni,o'zbekiston, davlat va jamiyat ,munosabat, omillari, totuvlik .

Asosiy savollar:

- 1.Oilada ota-onaning o'rni
- 2 O'zbekistonda oila, davlat va jamiyat munosabat omillari
- 3.Oilada totuvlik muhitini yaratish omili.

O'zbekistan Respublikasining mustaqillikka erishishi jamiyat hayotining barcha sohalarida amalga oshirilayotgan poklanish, oila, oilaviy munosabatlar, oilada ma'naviy va jismoniy barkamol yosh avlodni tarbiyalash borasida ham jiddiy o'zgarishlar qilishni ta qozo etdi. Jumladan: oilaning jamiyatdagi o'rni, oilaviy munosabatlarga bog'li q milliy an'analar, sermazmun milliy kadriyatlarining ildizlari ajdodlarimiz merosini o'rganish va ommalashtirish, milliy oilaviy tarbiyada umuminsoniy qadriyatlarining o'rnini yuksaltirish va uning oilada uyg'unlashuvini ta'minlash, o'zbek oilasiga xos xususiyatlarni (mentalitetini) yaratish va keng targ'ib etish jamiyatning asosiy negizi hisoblanmish oilani isti qlol mafkurasiga mos shaklan va mazmunan shakllantirishning garovidir.

Har bir millatning ma'naviy boyligi milliy va umuminsoniy qadriyatlarining birligidan tashkil topadi. Ma'naviy meros utmishning yutug'i. Uni to'la, odilona egallash va rivojlantirish esa xozirgi avlodning vazifasidir. o'z madaniy merosini, qadriyatlarini bilmaslik yoki mensimaslik man qurtlikdir, Ularni boyitib, yuksak darajaga ko'tarishga intilmaslik esa millat va uning isti qloli uchun fojeadir. Ma'naviyati yuksak darajada rivojlangan insongina isti qlol, vatanimizning ulug' bir kelajagi uchun mehnat qilishga o'zida kuch va qudrat topa oladi.

SHaxs ma'naviyati dastlab oila sharoitida shakllanadi va jamiyat ma'naviyatini belgilovchi mezon sifatida namoyon bo'ladi.

SHu boisdan, madaniy merosdan, bugungi kun qadriyatlaridan tug'ri foydalana olish, tarixdan to'g'ri xulosa chi qara bilish, o'z tarixiga va bugungi ahvoliga, madaniy merosi va ma'naviy qadriyatlariga, diniga va ahlo qiga, mavju siyosiy va hu qu qiy amaliyotiga, turmush tarziga tan qidiy ko'z bilan qaray olish – musta qillikni mustahkamlashning muhim ma'naviy asosidir. Mana shu ma'naviy asos har bir ota-ona, oilaga kirib borsagina oila ma'naviyati qaror topishi tabiiydir. Aksincha bo'lsa esa oiladagi har bir yoshni jamiyatimizda bo'layotgan o'zgarishlarni noto'g'ri tal qin etishga olib keladi.

o'zbek oilasida vataniga, xal qiga, oilasiga, isti qlol g'oyalariga sado qatli, fidokor, musta qil fikrlaydigan, dunyo qarashi keng, e'ti qodi yuksak, i qtidorli, tashabbuskor, mas'uliyatli, ma'naviy va jismoniy barkamol avlodni voyaga yetkazish kelajagi buyuk o'zbekistonning gullab-yashnashi uchun garovdir,

Yuksak ma'naviyatga ega ota-ona oilaning mohiyati, qadri, burch, mas'uliyat, oila vazifalari, oilada barkamol farzand tarbiyasi, oilani moddiy

jihatdan ta'minlash, uning osoyishtaligini saqlash kabn vazifalarni anglab yetadi va unga amal qiladi.

Yuksak ma'naviyatli ota-ona farzandlarini insonparvar, vatanparvar, axloqiy jihatdan pok, bilimli, kamtar, oliyjanob qilib tarbiyalaydi.

Ma'naviyat ilm-fan, falsafa, ahloq, huquq, adabiyot va san'at, xalq ta'limi, ommaviy axborot vositalari, urf-odatlar, an'analar, din va boshqa ko'plab tarixiy amaliy va zamonaviy qadriyatlarning ta'sirida shakllanadi. Aynan shu qadriyatlar oilada ota-ona, katta yoshdagi oila a'zolari ta'sirida shakllanadi.

O'zbek xalqi qadimdan oila ma'naviyatiga alohida e'tibor qaratgan. Bugungi kunda ma'naviy merosdan foydalanib, mustaqil respublikamiz talabiga javob beradigan yoshlarni tarbiyalash har bir oilaning muqaddas burchidir.

Bu burchni sharaf bilan ado etish oilada yosh avlod ongiga avlodlar shajarasi, kasb-kori, urf-odatlari, an'analari, tarbiya usullari, jamiyat taraqqiyotidagi o'rni, o'ziga xos ijobiy tarixini singdirish, undan g'ururlanish hissini tarbiyalashdan boshlanadi. O'z ota-onasidan, oilasi, avlod-ajdodlari tarixidan g'ururlangan inson o'z o'lkasi, millati, xalqi, tili, dini, madaniyatidan g'ururlanishi, Uni avaylab -asrashi, dunyoga ko'z-ko'z qilishi tabiiydir. Buning uchun oilada bolaning ongiga yoshlikdan boshlab «sen tarixi boy, ulug' millatning farzandisan», «sen ulug' mutafakkirlar, allomai-zamonlarni dunyoga keltirib, tarbiyalagan bobokalonlarning ajdodisan», «o'zbek xalqi boy ma'naviyatli, vatanga, xalqqa, sadoqatli xalq», «Bizning mamlakat dunyoda tabiati eng go'zal, boy diyor» kabi tushunchalarni singdirib bormoq lozim.

Yurtboshimiz I.Karimov ta'kidlaganidek: «har bir insonning, ayniqsa, endigina hayotga qadam qo'yib kelayotgan yoshlarning ongiga shunday fikrni singdirish kerakki, ular o'rtaga qo'yilgan mas'ulatlarga erishishi o'zlariga bog'liq ekanligini, ya'ni bu iarsa ularning sobit qadam shijoatiga, to'la-to'kis fidokorligiga va cheksiz mehnatsevarligiga BOG'LIQ ekanini anglab yetishlari kerak. Xuddi shu narsa davlatimiz va xalqimiz ravnaq topishining asosiy shartidir». SHu boisdan ham yoshlar tarbiyasiga alohida e'tibor berish, ularni jamiyatimizning ijtimoiy, iqtisodiy va ma'naviy taraqqiyotida faol ishtirok etishlarini ta'minlash har bir oilaning, fuqaroning, davlat va nodavlat tashkilotlarining burch va vazifasi hisoblanadi.

Yurtboshimiz o'zlarining nutqlarida yoshlar tarbiyasi, oilada tarbiya masalasiga barchaning diqqatini qaratayotgani bejiz emas, chunki XXI asrda yashab samarali mehnat qilish, o'zbekistonning buyuk kelajagini bunyod etish asosan bugungi yosh avlod zimmasiga tushadi. SHuning uchun yoshlarni chuqur bilimli, yuksak madaniyatli, mehnatsevar va tashabbuskor shaxslar etib shakllantirish oilada hayot tajribasiga ega, turmushning achchiq-chuchugini qurgan, qiyinchiliklarda toblangan yoshi ulug'larimiz, faxriylarimiz va ota-onalarning, shu bilan birga, mazkur ishga davlat etilgan tarbiyachilar va jamoatchilikning asosiy vazifasidir.

Sir emaski, ma'naviy-ma'rifiy islohotlarning mazmun va mohiyatini teran anglamaslik, loqaydlik, mahalliychilik, ma'naviy va moddiy qadriyatlarga beparvolik oila ma'naviyatiga salbiy ta'sir etuvchi illatlardir. Buning oldini

olishning muhim vositalaridan biri oilada bo'sh va qtni samarali tashkil etishdan iboratdir.

I. A. Karimov Uzbekiston Resiublikasi Oliy Kengashining birinchi sessiyasida so'zlagan nut qida aytganlariday, «San'atda oshkoralikni pesh qilib, televizor, kino ekranlarida, matbuot vositalarida bo'lmag'ur lavhalarni aks ettirish, bema'nilik va hayosizlikni, ba'zan esa hatto axlo qiy buzu qlikni targ'ib qilishlar ko'rinib kolgan»¹ edi.

Bunday milliy urf-odatlarimiz va axlo qimizga zid keladigan qili qlar qaerdan paydo bo'ldi? Davr ta q qozosimi? Insoniyat kamoloti ifodasimi? Yoki ma'naviy-tarbiyaviy ishlarimizning tug'ri yo'lga qo'yilmaganligimi?

SHuni unutmazlik kerakki, insoniyat va millatlar takomili hech qachon milliy an'analarni poymol etish, axlo qu odob pardalarini g'ijimlash evaziga emas, aksincha, insonni yanada balandro q ma'naviyat, poklik va odob chu q qisiga olib chi qishda namoyon bo'ladi.

Odamlarning ongini, ruhiyatini, ismu jismini poklantirish hozirgi kundagi tarbiyaviy-ma'naviy faoliyatimizning asosini tashkil etmokda. Bunga sabablar kup. Bir o'rinda o'tmish davrlar asoratidan qutilish ko'zda tutilsa, ikkinchi o'rinda inson tabiatida uchraydigan, kezi kelganda xuruj qilib turadigan qusurlardan qutulish ehtiyoji ham mavjud. Musta qillik zamoni ana shunday ob'ektiv va sub'ektiv insoniy xususiyatlar, fazilatlarni poklantirish yuliga, azaliy va milliy tara q qiyot o'zaniga solib yubordi. Milliy kadriyatlarimiz, urf-odatlarimiz o'ziing umumbashariy mohiyatini namoyon etish imkoniyatiga zga bo'ldi.

Milliy an'ana va qadriyatlar rivoji shunday bir dialektik printsipga asoslanganki, kimki o'z xal qi milliy qadriyatini bosh qa millat qadriyatlariga teskari qo'ymagan holda va, aksincha, bosh qa millat ma'naviyatini chu qur his qilish darajasiga o'sib chi qsa va o'z milliy qadriyatini bemalol va beminnat namoyish etish imkoniyatiga ega bo'lsa, milliy munosabatlarda do'stona i qtisodiy va ma'naviy mulo qotdan o'zga niyat bo'lmasa, ana shunda turli millatlarning ma'naviyatini ifodalovchi umumbashariy qadriyatlar o'sib boraveradi.

az tarixini, ma'naviyatini, kadriyatlarni o'zi bunyod etuvchi xal q, elat va millatlarga endi shunday imkoniyatlar yaratilmo qdaki, xal qimizning ham jaxon xal qlariga faxrlanib, iftixor tuyg'usi bilan ko'z-ko'z qiladigan fazilatlari qanchalik mul-ko'l bulsa, yangi tug'ilib, shakllanib qoladigan qusurlarni bartaraf etishga ham a qli va zakovati yetarlidir. Buni milliy urf-odatlarimiz, axlo qu odobimiz, chin insoniy ne'matlarimiz ta qozo etadi.

Binobarin, «Ajdodlarimizning ruhi poklari va urf-odatlari, bizning eng yaxshi an'alarimiz qayta tiklanganda islohatlar muvaffa qiyatga erishadi. o'ta o' qimishli, ruhan bardam va jismonan ba quvvat kishilargina isti qlol va tara q qiyot yulini bosib o'ta oladi. Sarchashmalari buyuk ajdodlarimizning tafakkurlari va muddaolaridan boshlanadigan xal qimizning ma'naviy qadriyatlari i qtisodiy o'zgartirishlarimizning mustahkam poydevori bulib xizmat qiladi».

Oilaviy bayramlarni nishonlash, yoshlar tarbiyasida alla, ertak, xal q ma qol va matallaridan, qo'shikdaridan samarali foydalanish, birgalikda madaniy xordi q, chi qarishni, milliy sport o'yinlari va musoba qalarini, tarixiy obidalar va qadamjolarga sayoxatlar uyushtirish, bosh qa millat ma'naviyatiga hurmat bilan

munsobatda bo'lish, oila kitobxonligini tashkil etish, oilada til, muloqot va kiyinish madaniyatiga alohida e'tibor berish, farzandlarga kasb-xunar o'rgatish, oilada bo'sh va qatni ijtimoiy foydali mehnat vositasida samarali tashkil etish oila ma'naviyatini shakllantirishning muhim sharti hisoblanadi. Bu o'rinda Vazirlar Mahkamasining «Ma'naviyat va ma'rifat sohasidagi islohotlarni yanada chuqurlashtirish va samaradorligini oshirish bo'yicha 1998-2000 yillarga muljallangan Dastur»i muhim dasturulamal bo'lib xizmat qiladi.

Mamlakatimizda har bir fuqaroning ma'naviy-ma'rifiy yuksakligiga erishish davlatimiz tomonidan amalga oshirilayotgan isloxoatlarning asosiy yo'nalishlaridan birini tashkil etar ekan, bu boradagi ishlarning tamal toshlari aynan oilada qo'yiladi. Jamiyat ma'naviyatini shakllantirish bilan bog'liq ishlar quyidagi yo'nalishlarda amalga oshiriladigan ta'limiy va tarbiyaviy tadbirlar vositasida olib borilmoqda, bu albagga oila bilan ham bog'liqdir:

- mahallalar, oilalar va xotin-qizlar orasida amalga oshiriladigan madaniy-ma'rifiy tadbirlar tarzida;

- maktabgacha tarbiya muassasalari, umumtalim maktablari, oliy va o'rta maxsus ta'lim o'quvchi, talabalari, yoshlar va boshqa toifadagi fuqarolar o'rtasida olib borilayotgan tadbirlar;

- ommaviy-axborot vositalari, matbuot vositasida amalga oshirilayotgan ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar;

- ma'naviy-ma'rifiy ishlarni takomillashtirish, samaradorligini oshirish bilan bog'liq; ilmiy-nazariy, ilmiy-amaliy va ilmiy-metodik yunalishlarda tadqiqot ishlari olib borish, sotsiologik tadqiqotlar o'tkazish;

- xalqlar, millatlararo do'stlik-birodarlik, ahillik, totuvlikni ta'minlashga qaratilgan tadbirlar;

- madaniy-ma'rifiy, ijodiy tashkilotlar tomonidan aholining ma'naviy madaniyatlilik darajasini oshirish, ularning bo'sh va qatni samarali tashkil etish maqsadida amalga oshiriladigan tadbirlar;

Mazkur yo'nalishlarda olib boriladigan madaniy-ma'rifiy ishlar oilasiz, oila a'zolarining ishtirokisiz bo'lishi mumkin emas.

Ushbu tadbirlar majmuasi negizida yirik oilaviy sport musoba qalari, qo'shiq bayramlari, oilaviy ansambllarning ko'rik-tanlovlari, san'at bayramlari iqtidorli ijodkorlar bilan O'TKAZILADIGAN ijodiy kechalar, milliy musiqqa, raqs, qo'shiq, milliy estrada san'atini keng targ'ib etishga qaratilgan maxsus teleko'rsatuvlar, teleradio darslari tashkil etish har bir fuqaro ma'naviy ongi va tafakkurini shakllantirishda ijobiy natijalar beradi.

Mamlakatimizda mustaqillik yillarida erishgan yutuqlarimiz, istiqbol g'oyalari bilan sug'orilgan ko'rgazmali targ'ibot vositalarini shakl va mazmun jihatidan rang-barangligini ta'minlash, xalq og'zaki ijodi namunalarini kuylovchi oilaviy baxshilar va ularning sulolalari chiqishlarini tashkil etish va ularning ijodlari asosida hujjatli filmlar yaratish va ularni har bir oilaga kirib borishini ta'minlash ma'naviy barkamol fuqarolarni tarbiyalashda muhim vosita hisoblanadi.

Ijtimoiy-ma'naviy muhitni yanada sog'lomlashtirish, diniy aqidaparastlikning oldini olish, ma'naviy tubanlik, zo'ravonlik kabi illatlarni

batamom yo'q qilishga erishish maqsadida har bir idora va tashkilotda, ta'lim-tarbiya muassasalarida, jamoa xo'jaliklarida maxsus «ma'naviyat kunlari», «ma'naviyat saboqlari»-o'quvlari; muzey, tarixiy qadamjolariga sayohatlar Vatan mehnat qahramonlari, tarixiy va taniqli shaxslar bilan uchrashuvlar o'tkazish; ijodkor oilalar, yoshlar klublari tashkil etish; ajdodlarimiz madaniy merosi, urf-odatlari, tuy va motam marosimlari, xalq og'zaki ijodi, o'zbek milliy xunarmandchilik na'munalarini yig'ish, o'rganish va kelgusi avlodlarga yetkazish maqsadida ilmiy ekspeditsiyalar uyushtirish oilada ma'naviy yuksak avlodni shakllantirishda ijobiy rol o'ynaydi.

Oila-mahalla; oila-maktab; oila-jamoatchilik; oila- oliy va o'rta maxsus o'quv muassasalari hamkorligi tizimi asosida o'tkaziladigan tadbirlar albatta ijobiy samara berishi tabiiy.

Xalqimizda shunday milliy odat, an'ana va fazilatlar borki, ular boshqa xalqlarda yuquligidan tashqari (men boshqa millatlarning yaxshilik sifat va an'analari kamsitayotganim yoki), insoniyat ma'naviyatining nodir zarfasi qalari sifatida boshqalarda hayrat uyrotishga imonim komil. «o'zbek xalqi azaldan jamoa tuyg'usiga moyil, — degan edi I. A. Karimov. — Bizlar to'yda ham, azada ham yonma-yon turib, oddiy kunlarda ham bir-birining xolidan xabar olib, kattaning hurmatini, kichikning izzatini joy-joyiga qo'yib, beva-bechoralarning, yetim-esirlarning boshini silab, xullas, odamgarchilikni barcha narsadan ustun qo'yib yashagan insonlarning farzandlari bulamiz»¹. Jamoaga suyanish va jamoatchilik fikrini hurmat qilish xalqimizning eng olijanob fazilatidir. Buni mahallalardagi ijtimoiy-axloqiy rasm-rusumlar isbot qilib kelmoqda. Birgina to'y marosimimizning o'zini milliy fazilatlarimizning guldastasi desab o'ladi. Uzbekxonadonidagi birorta tuy kengashsiz, maslahatsiz o'tmaydi. hatto kelin va kuyov tanlashdan boshlanadigan odatlarimiz ham kelajakdagi yosh oilaning tinchtotuvligini nazarda tutadi: kimning farzandi, ota-onasi qanaqa odamlar, mahallakuyda obrusi qanaqa, mustaqil oila tebratib ketishga qurbi yetadimi, yomonqiliq, yoki odatlari yuqumi, qarindosh-urug'lari qanaqa odamlar, hatto avlodajdodlarida biror anduhik alomatlari bo'lmaganmi? Bu savollarga ijobiy javob olingachgina ikki tomon o'z rozi-rizoligini beradi. Bunday odatlarimizning nimasi yomon? ha, deb bunaqa savollar bilan kelin yoki kuyov izlansa, yoshlarning mus-taqilligi, mudabbati poymol etilmaydimi, degan e'ti-rozlar bulishi mumkin. Tug'ri, ba'zan ota-ona obrusi muhabbatdan ustunlik qilgan dalillar uchraydi. Lekin, umuman olganda, sinab-surishtirgan oilalarning qudachiligi, ota-onalar bosh-qosh bo'lgan tuyu-tomoshalarning natijasi yaxshi bo'lishi hammaga ayon.

o'zbekona jamoat fikriga va jamoat bo'lib ish yuritish fazilatimiz diqqatga sazovor. Tuylarimiz kupchilik uchun jamoa tomonidan utkaziladi. Tuy oldidan bo'ladigan maslahatlar, qarindosh-urug'ning erta sahardan kelib, to'yxona oldida ko'l qovushtirib, nozik tavoze ila mehmonlarni kutib olishlari, hovlida esa to'y mutasaddilarining odamlarni joylashtirib oldiga iltifot bilan choy va osh tortishlari — bu milliy odatlarimizning ko'rki emasmi? Yetti yot begona odamlar mahalladan stol-stul tashishsa, qazon, samovar, choynak-piyola olib kelsa, to'y tarqalguncha mezbon yonida tursa — bunaqa olijanoblik, bunaqa jamoaviy rux, va mexrni kayorda kurgansiz?

Odamlarning boshini qovushtiradigan, ularni bir tan bir jon bulib mex,nat va roxdtga jalb etadigan purx,ikmat urf-odatlarimizni sanab ado etib bulmay-di. «X,ashar» deb atalgan shunday milliy udumimiz borki, uning ta'rifi xdr kdnday millat odamlarini xdyratga soladi. «Vakt — pul» degan ak,ida butun dunyo-ga ildiz otgan paytda uz vaktini tekinga, odamgarchi-likka, milliy urf-odatga beminnat baxshida etish in~ soniy ex,sonlikning chukdisi emasmi?

Milliy urf-odatlarimiz, ota-bola, qaynona-kelin, qarindosh-ururchilik va hokazo ma'naviy ziynatlarimizni o'ylasak, ko'z oldimizga birinchi galda Ab-dulla Jodiriyning «o'tgan kunlar» romani keladi. Nazarimda, o'zbek xal qining' milliy fazilatlarini ulug'lovchi, uni dunyodagi eng nozikta'b xal qlar qato-riga olib chi qib, kuz-kuz qilgan bu romanga teng keladigan asar hamon yaratilgani yu q. o' quvchilar hatto etnografik yunalishda bulsa-da, milliy g'urur va iftixor tuyg'ularini o'ygotadigan o'zbekona asarlarga chan qo q bo'lib yurgandek tuyuladi.

O'zbekistonda oila, davlat va jamiyat munosabat omillari

1998 yili o'zbekistonda 3,8 million oila bo'lib, shundan 58,7 foizini 5 va undan ko'p bolali oilalar tashkil etgan. Keyingi 35 yil ichida oilalar soni 1,8 milliontaga ko'paygan, uning 1 mln.ga ya qini shahar, 950 mingtasi qishlo q oilalariga to'g'ri kelgan. Yoki so'nggi 10—15 yil davomida yiliga 250 ming atrofida yosh oilalar vujudga kelgan. Bugungi kunda respublikamizda har bir oilaga taxminan 4—5 farzand to'g'ri keladi. o'zbekiston oilalarining 35 foizdan ortig'ini yosh oilalar tashkil qiladi. Yosh oilalar deganda, er va xotinning yoshi mos ravishda 26—30 yoshdan oshmagan, 5 yilgacha nikohda bo'lgan, bolali yoki bolasiz oilalar tushuniladi. Mamlakat aholisining 43 foizini 15 yoshgacha bo'lganlar tashkil etadi. Oilalar soni o'sib borishida, ayni qsa, Jash qadaryo, Jizzax, Xorazm va Namangan viloyatlari alohida o'rin tutadi.

Umuman, oila va jamiyat bir-biriga chambarchas bog'li q tushuncha bo'lib, jamiyatning o'zi ham oilalardan tashkil topadi. Oila esa o'z o'rnida jamiyat bag'rida vujudga keladi, rivojlanadi. Ayni paytda oilaning jamiyatda o'z vazifalari mavjud.

Oilaning mohiyati va vazifalari dunyodagi barcha hal qlar uchun bir xildir. Lekin uning tashkil topishi, tara q qiy etishi va oiladagi vazifalarni bajarish jarayonlari har bir hal qda alohida, o'ziga xos xususiyatga ega.

Musta qillik munosabati bilan o'zbeklarning oilaviy hayotida istibdod yillarida ta' qi q ostida bo'lgan ba'zi xususiyatlarni tiklash masalasi hal qilinmo qda. Masalan, tarixan tashkil topgan hovlining tash qi va ichki hovliga bo'linishi — hal qning milliy ruhini, iymonu e'ti qodini, toatu ibodatini aks ettirgan.

Hovlilarning ichki va tash qiga bo'linishi ayollarda farosat va malohat tuyg'ularini shakllantirishga, farzandlarning har xil odamlar nigohidan yiro qro q bo'lishiga, orti qcha gap-so'zlarni eshitmaslikka, kattalarning ishiga aralashmaslikka imkon bergan. Ayni qsa, bu milliy odat to'y va ma'rakalarni o'tkazishga katta qulayliklar tug'dirgan. Yevropa madaniyatining ba'zida ko'r-ko'rona targ'ib qilinishi

oilada ham o'z aksini topdi, tarbiyaviy ta'sirning kamayishiga, ojizlanishiga olib keldi, ma'naviy qashsho qlanish kuchaydi. Mamlakatimiz milliy istiqlolga erishgach, xalqning oilaviy qadriyatlari asta-sekin tiklanmoqda, sun'iy ravishda turmushga kiritilgan ayrim oilaviy marosimlar xalq nazaridan qolib bormokda.

O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasida «Oila jamiyatning asosiy bo'ginidir hamda jamiyat va davlat muhofazasida bo'lish huquqiga ega» deyiladi. Yangi «Oila kodeksi» ga va Konstitutsiyamizning 63-modda, 2- qismiga binoan «Nikoh tomonlarning uxtiyoriy roziligi va teng huquqligiga asoslanadi. Yangi oila BMTning 1948 yil 10 dekabrda qabul qilingan.

«Inson huquqlari Umumjaxon Deklaratsiyasi» ning 16-moddasida shunday bandlar mavjud:

I. Balog'at yoshiga yetgan erkaklar va ayollar irqi, millati va diniy belgilari bo'yicha hech qanday cheklashlarsiz nikohdan o'tishga va oila qurishga haqli.

II. Ular nikohdan o'tishda, nikohda turgan va qtlarida va uni bekor qilish vaqtida bir hil huquqdan foydalanadilar;

2. Nikohdan o'tayotgan har ikki tomonning erkin va to'liq roziligi asosidagina nikoh tuzilishi mumkin;

3. Oila jamiyatning tabiiy va asosiy hujayrasi sanaladi va jamiyat hamda davlat tomonidan himoya qilinishga haqli.

SHu bilan birga oila huquqi — nikoh tuzish va nikohni bekor qilish tartibi va shartlari; er-xotin, ota-ona bilan bolalar o'rtasida vasiylik va homiylik, bola asrab olish tufayli kelib chiqqan munosabatlar; fuqarolik holati dalolatnomalarini qayd qilish tarzini belgilaydigan huquqiy me'yorlar yig'indisidan iborat.

O'zbekiston Prezidenti Islom Karimov o'zining «O'zbekistonning o'z istiqlol va taraqqiyot yo'li» asarida qayd qilganidek, «bizning davlatimizni ham katta bir oila deb tushunish mumkin va lozim. Bunda o'zaro hurmat va qattiq tartib bo'lmasa, oilaning barcha a'zolari o'z burchlarini ado etmasa, bir-biriga nisbatan ezgulik bilan mehr-oqibat ko'rsatmasa, yaxshi va munosib tarzda yashash mumkin emas. Oila turmush va vijdon qonunlari asosiga quriladi, o'zining ko'pasrlik mustahkam va ma'naviy tayanchlariga ega bo'ladi, oilada demokratik negizlarga asos solinadi, odamlarning talab-ehtiyojlari va qadriyatlari shakllanadi. O'zbeklarning aksariyati o'zining shaxsiy farovonligi to'g'risida emas, balki oilasining, qarindosh-urug'lari va yaqin odamlarining, qo'shnilarining omon-esonligi to'g'risida g'amxo'rlik qilishni birinchi o'rniga qo'yadi. Bu esa eng oliy darajadagi ma'naviy qadriyat, inson qalbining gavharidir». Frantsuz yozuvchisi Viktor Gyugo (1802—1885) ning bu haqdagi quyidagi fikri juda o'rinli bayon etilgan: «Kimki ayol xalq qini

himoya qilsa, bola xu qu qini himoya qilgan bo'ladi, bosh qacharo q aytganda, u kelajakni himoya qilgan bo'ladi».

Keyingi va qtlarda mamlakatimiz ijtimoiy hayotida ayollar mav qeini o'z o'rniga qo'yishga yo'naltirilgan nodavlat tashkilotlari ham yuzaga kela boshladi. SHu jihatdan 1997 yili Toshkentda «Ayol va jamiyat» instituti tashkil topishi bilan bog'li q bo'lgan masalalarni bayon etmo q lozim. Adliya bosh qarmasi ro'yhatidan o'tkazilgan bu institutning tad qi qotchilik va siyosiy ta'lim bo'limlari mavjud.

Oilada ota-onaning o'rni

Inson kamolotining ko'rinishlaridan biri – obro'-e'tiborga ega bo'lishdir.

Obro' bir kun yoki bir yil mobaynida hosil bo'ladigan jarayon emas. Obro'ni inson hayot mazmunidagi faoliyati jarayonida asta-sekin shakllanib boradi. Ota-onaning oiladagi obro'si tarbiya vositasi sifatida xizmat qiladi. Obro' oilaviy munosabatlar jarayonida shakllanadi.

Ma'naviy ahlo qiy hislatlarni, zamon ruhiga moc tushadigan fazilatlarni shakllantirishga qaratiladi. Mazkur toifadagi oila a'zolari davrasidagi suhbatlar, munozaralar, baxslar mulohazalar o'zaro tenglik, hurmat ruhiga bo'ysundiriladi. Oilaviy munosabatlarining ushbu ko'rinishda turli yoshdagi, jinsdagi bolalarga ma qsadga muvofi q tarbiyaviy ta'sir o'tkazish imkoniyati mavjuddir.

SHu boisdan tasodifiy vo qea va xodisalarning sodir bo'lish turli tarzda baxolanadi va ularga bevosita alo qador oila a'zolari turmush tajribasidan kelib chi q qan xolda yo rag'batlantiriladi yoki tanbeh beriladi, jazolanadi. Bunday odilona amalga oshirilgan mulo qot ta'sirida o'gil- qizlar ruhiy dunyosida ota-onaga nisbatan dilkashlik, xushmuomalalik, o'z faoliyati uchun javobgarlik, o'z-o'zini bosh qarish kabi muhim insoniy fazilatlar paydo bo'ladi.

Oilada munosabatning yana bir turi «avtoritar» -- yoki «obro'talab» munosabat deb atalib, bunda ota-onaning obro'si shaxslararo mulo qotda hal qiluvchi, yetakchi rol o'ynaydi. SHaxslararo teng hu qu qlilik, erkin hatti-harakat qilish, tashabbuskorlik bunda o'z ahamiyatini yu qota boshlaydi. Oila a'olarining yurish-turishi, hatti-harakati ko'pincha kattalar tomonidan cheklab qo'yiladi.

Ota-ona tomonidan tarbiyaviy ta'sir o'tkazishning asosiy usuli bu jazolash hisoblanadi, biro q, onda-sonda rag'batlantirish usulidan foydalanilganda ham ma'naviy rag'batlantirish imkoniyatiga ega bo'lmaydi, munosabatdagi bunday noxushlik ota-ona ko'zlagan tarbiyaviy ma qsadni amalga oshirmaydi va past samara beradi. Buning o qibati natijasida oila a'zolari o'rtasida, mehr-o qibat hissi pasayadi. Ushbu paydo bo'lgan salbiy nu qtai nazar ota-onaga nisbatan qo'llaniladi.

Farzandlarda ota-onaga ya qinlik mehr-muxabbat hissi bir oz bo'lsada kamayadi, keyinchalik bu tuyg'u uzo qlashishi «begonalashish» tomoniga o'sib o'tadi.

Oilaviy turmush munosabati ichida «liberal» (murosasozlik) toifasi ham ko'zga tashlanib turadi. Oila davrasida ota yoki ona murosasoz, ko'ngilchang bo'lishlik tash qi ko'rinishidan ili q ruhiy i qlimini o'ziga aks ettirganday bo'lib tuyulsa ham, aslida unda hamjihatlik, o'zaro tushunish yetishmaydi. Murosozlik

tasirida farzandlar fe'l-atvorida munofiqlik, ikkiyuzlamachilik, kelishuvchilik kabi illatlar tarkib topishi mumkin.

Ota-ona obro'si oiladagi axloqiy tarbiyaning garovi hisoblanadi.

Buyuk allomalarning mulohazalariga ko'ra, tarbiyada hazilga yo'l qo'yuvchi jiddiylik hukm surishi lozim, lekin hamma ish hazilga, ermakka, sertakalluflikka, adovat, tirnoq orasidan Kir izlashga aylanib ketmasligi kerak.

SHu boisdan muayyan pedagogik-ruhiyat qonun-qoidalariga rioya qilingan holda ota-onalar tarbiya printsiplari, usullari, vositalari bilan qurollangandagina haqiqiy nazokatga va odobga erishish mumkin. Bu narsa ulardan chuqur izlanishlarni talab qiladi. Oilada farzandlarga tarbiyaviy ta'sir ko'rsatishining iltimos, maslahat, ishontirishi, talab qilish, buyruq va tanbeh berish, jazolash, rag'batlantirish singari qator usullaridan o'z o'rnida va me'yorida foydalanilmasa, ko'zlangan maqsadga erishib bulmaydi.

Mezon tuyg'usi va me'yoriy hissigacha amal qilish ota-ona ruhiy dunyosiga, ma'naviyatiga singib borsa, u holda farzandlaridan uzoqlashishi, begonalashish, bordi-keldiga borish, anglashilmovchilik g'ovining vujudga kelishi, baxkanalashish, badjahlilik, asabbuzarlik hulloq-atvori namoyon bo'lmaydi.

Tarbiyaning muhim roli nutiq hisoblanadi, shuning uchun ota-ona o'z nutqi qida yoqimsiz ohang bilan, mantiqsiz va qaytariq so'zlarini ishlatish va qo'llash bilan farzandlarni ranjitmaslik, ularda ishonch hissini so'ndiradigan, hazil-mutoyiba, samimiy bo'lmagan fikr va mulohazalardan saqlanish kerak. Hayotda muloyimlikka, shirinsuxanlikka, samimiylikka, sof vijdonligi, dilkashlik va hotamtoylikka hamdardlikka nima yetsin!

Odatda, ota-ona nazokatli bo'lgandagina haqiqiy obro'-e'tiborga erishadi. Bundan tashqari obro'libo'lmoq uchun ishonch har tomonlama rivojlangan bo'lishi, shuningdek aqliy, ahloqiy estetik jihatdan muayyan cho'qqiga erishgan bo'lishi darkor. Bularning barchasi ota-onadan aql-zakovatli, milliy udum va urf-odatlarini mukammal egallagan shaxs bo'lishni talab qiladi.

Oilaviy turmushda farzand kamol topishini to'g'ri yulga qo'yishning asosiy vositasi bolada e'tiqodni shakllantirishdir. Buni bolani faqat ishontirish yo'li bilan amalga oshirsa bo'ladi.

SHuning uchun ota-ona o'g'il - qizlarni voyaga etkazishda ularni ko'rqitishga yoki asossiz buyruq berishga tayanmasligi kerak. Xo'sh, ota-ona obro'si farzandlarda qachon paydo bo'ladi? Oilaviy turmush tajribalaridan shu narsa ma'lumki, ota-onaning obro'si davlat va oila a'zolari oldida javobgarlikni his qilishdan boshlanadi. Mabodo ota-ona o'z ishi, o'z burchi uchun javobgar ekanligini tasavvur qila olsa va unga amaliyotda rioya qilsa, mana shu narsa ularning obro'-e'tibor kuzonishi uchun asosiy zamin hisoblanadi. Ularning ruhiy dunyosi, ma'naviyati oilaviy iliq muhit uchun yetarli va ta'mirchan bo'lsa, o'z-o'zidan obro' qozonilaveradi, oila a'zolari o'rtasida mehr-muhabbatga erishadi.

Agarda ota-onalar o'zlarining hul q-odob hislatlari, his-tuyg'ulari, hatti-harakatlarida bularga rioya qilsalar, oila a'zolari hamda jamoatchilik o'rtasida yetarli darajada obro' qozona oladilar. Lekin, obro' qozonish shaxsning

tezkorlik bilan amalga oshiriladigan sifati emas. Ota-ona obro'si butun h.ayot davomida kundalik ibratli hul qi, axlo qi, intizomi, a ql-zakovati, kamtarinligi, ishbilarmonligi bilangina qo'lga kiritishadi. Ibrat, namuna, chekilgan zahmat, zakovat, chin ezgu niyat, hayrli ish, samimiylik evaziga yuzaga kelgan obro' ha qi qiy obro' bo'ladi.

Bunday obro' farzanddar hayrixohligi va hamdardligiga sazovor bo'ladi. Natijada oila a'zolari totuv, osoyishta, ino q, ahil, xotirjam, hamjixat turmush kechiradilar. Oiladagi farzanddar yuksak his-tuyg'uli, ma'naviyatli, madaniyatli inson sifatida ruhiy ozu qa oladilar, ular ota-onalari bilan bexad faxrlanadilar, his-hayajonga to'ladilar va shu **o'URUR** bilan yashaydilar, asta-sekin eng zarur shaxsiy fazilatlarini egallab boradilar. Oilaviy turmushda ayrim ota-onalar fa qat tazyi q o'tkazish yo'li bilan farzandlari hamda bosh qa oila a'zolari davrasida obro' orttirishni xohlaydilar, bu narsani yashashning asosiy vositasi deb hisoblaydilar. Bunda ular qo'r qitish, buyru q berish, ruhan ezish, tah qirlash, u tazyi q o'tkazish usullarini qo'llaydilar. Goho ular zaxarxandalik va badjallikni bola tarbiyasining eng muhim usuli deb biladilar. Jo' qinch asosida bolada vujudga kelgan «tobelikni», «bo'ysunishni» ular o'zlaricha farzandlari davrasida erishgan obro'si deb o'ylaydilar, tarbiyaning bu usuli yu qorida aytib o'tilganidek avtoritar deb aytiladi.

Ayrim ota-onalar esa o'z farzandlari bilan kamro q mulo qotda bo'lishni, o'zlarini ulardan uzo qro q olib yurishni shu yo'l bilan obro' orttirishni ham hayol qilishadi. Ularning nazarida go'yo farzand bilan qancha kam uchrashishsa, ma'lum masofadan muomala qilishsa, shuncha ko'pro q obro' qozonish mumkin emish. Bu noto'g'ri tushuncha, yuzaki qarorga kelish hisoblanadi. Aksincha ota-ona o'z farzandi bilan qancha kam mulo qotda bo'lishsa, ularning ruhiyati bilan ya qindan tanishmasa, o'z ta'sirini o'tkazmasada, ular o'rtasida begonalashish, befar q bo'lish, his-tuyg'ulari, ishonishlari, xohishlari kelib chi qadi.

Hozirgi paytda shunday ota-onalar ham uchraydiki, ular bolaga fa qat rasmiyatchilik bilan munosabatda bo'lish or qali obro' orttirishga harakat qilishadi.

O'z maqsadlarini amalga oshirish uchun ular qildan qiyi q qidirishadi, xatti-harakatlarni keltirib chi qargan asl sababdan ko'z yumishadi. Bolaga hadeb tanbeh berishadi, begonalar davrasida kalaka qilishadi. Uning yurish-turishlarini cheklab qo'yishadi, bo'lar-bo'lmasga tanbeh berishadiyu, arzimaz harakat uchun jerkib, siltab tashlashadi. Farzandlariga ko'p pand-nasihat qilaverish ham shaxslararo munosabatda noxush kechinmalarni vujudga keltiradi. Ota-onalar arzimagan mayda-chuyda muammo, mulohaza, ko'mak uchun ham uzundan-uzo q o'git-nasihat qiladilar. Farzand erkini poymol etib, musta qil fikr yuritishi, intilishini oyo q osti qilishgacha borib yetadilar. Ular o'zlarining nasihatgo'yliklarini ota-onalik burchi deb baholaydilar.

Mayda gaplik, ezmalik bilan o'g'il- qizlar o'rtasida haqiqiy obro' qozonib bo'lmaydi.

Turmushda soxta yaxshilik qilish orqali farzandlari oldida obro' orttirishmoqchi bo'ladigan ota-onalar ham bor. Bunday ota-onalar o'zlarining yumshoq muomalaligi, beozorligi, kechiruvchanligi, yon beruvchanligi, kam talabchanligi bilan farzandlarini o'zlariga rom qilib olishni istaydilar. Ularning fe'l-atvorida, na ma'naviyatida qat'iyatlilik, na talabchanlik, na bar qarorlik mavjud. Tilyog'lamachilik, soxtalik, sun'iylik bilan bolada yuksak insoniy hislatlarni, olijanob his-tuyg'ularni, irodaviy sifatlarni tarkib toptirib bo'lmaydi. Ota-ona obro'sini orttirishda ibrat ko'rsatish usuli muhim rol o'ynaydi, oilada tarbiya ishini muvaffa qiyatli amalga oshirish uchun ota-ona tinmay o'zlarini ham pedagogik, ham ruhiy jihatdan tarbiyalab borishlari kerak, ular o'zlarida yetishmaydigan sifatlarni egallab borib, mavjud illatlarni batamom tugatishlari lozim. Chunki ota-onaning tarbiya jarayonidagi iste'dodi – bu farzandlarga nisbatan muhabbat va sado qatdan iboratdir.

Ota-onalar o'z farzandlari o'rtasida obro'ga ega bo'lishlari uchun qator chora tadbirlarni amalga oshirishlari zarur. Farzandlarni yoshiga mos holda qator tarbiyaviy ishlar olib borishlari darkor.

- Ota-onalar farzandlari davrasida obro' orttirish uchun ularning ruhiy dunyosiga kirib borishlari ayni muddaodir. CHin obro'ga ega bo'lmoqchi bo'lgan har bir ota-ona qimmatli vaqtlarini o'z norasidalaridan xech mahal ayamaskliklari kerak.

- Oila davrasida ota-onalarning kuzatuvchanligi, ziyrakligi, sezgirligi, fahmliligi, hozirjavobliligi, samimiyligi muhim ahamiyat kasb etadi.

- Ota-onalarning o'z farzandlariga va oilaning bosh qa a'zolariga (buva, buvi, kelin va bosh qalar)ga mehribonligi obro' orttirishning eng muhim yo'lidan biridir. Farzandlarining kuchiga, qobilyatiga, aql-zakovatiga xotirasiga, diqqat-e'tiboriga, irodaviy hislatiga, qizi qish-lariga, ko'nikma va malakalariga qarab aqliy va jismoniy topshiriqlar berilishi va o'z vaqtida, uzluksiz ravishda ularning natijasini tekshirish va o'qilona baho berish, rag'batlantirish bolalarda qat'iylik va dadillik fazilatini vujudga keltiradi, mustaqil intimini, tashabbus ko'rsatish sari chorlaydi, kattalarga nisbatan ixlosi ortadi.

- Ixlos, hurmat, intilish, tirishqoqlik obro'ning uzviy zanjirlari hisoblanadi.

- Ota-onalarning ijtimoiy muhitda, jamoatchilik urtasida va oila davrasidagi samimiyligi va g'amxo'rliqi ularga katta obro' keltirishi mumkin.

Ulardagi samimiylilik, g'amxo'rlik fazilatlari farzandlar ruhiy dunyosiga katta ta'sir etadi, ruhlanish, to'liq qinlanishi, shijoat, ehtirosni vujudga keltiradi. Ularning ibratli hislatlari, shaxsiy fazilatlari, irodaviy sifatlari, o'z-o'zini qo'lga olish kabi jihatlari yigit va qizlar qalbida o'chmas iz qoldiradi. Ota-onaga nisbatan ishonch, intilishi moyillik hamdardlik sifatlari shakllana boradi. Oilada

ruhiy muhit, totuvlik mavjud bo'lishi uchun ota-onalarda ha qiy ma'nodagi nazokat hamda obro' mustahkam shakllangan bo'lishi kerak.

Oilada totuvlik muhitini yaratish omili.

Hozirgi ilmiy adabiyotlarda oilaning ma'naviy asosi masalasida, shaxsning kamol topishi bilan uzviy bog'liq bo'lgan bilim, san'at, arxitektura, milliy, diniy, axloqiy, badiiy va boshqa qadriyat turlari, milliy istiqlol mafkurasi kabi talay ma'naviyat va ma'rifat xususida gapiriladi. Bolaning ma'naviy tarbiyasida oilaning ahamiyati muhimligi ta'kidlanadi;

Ota-onaning oiladagi moddiy, tashkiliy, tarbiyaviy va o'zaro shaxsiy masalalar yuzasidan bir-biri bilan bo'ladigan munosabatlari sof, samimiy, er-ning xotiniga, xotinning eriga nisbatan o'zaro hurmat, izzati asosida qurilsagina, bunda u oilada musaffo ma'naviy muhit va hamjihatlik vujudga keladi. Ayni qat, ota-onaning munosabatidagi, ularning bir-biriga mehribonligi, farzandlariga bir xil muomalada bo'lishi, har ikki tomonning qarindosh-urug'lariga bir xilda mehr-oqibat, hurmat bilan qarashi, bir so'zligi, haqiqatni gapirish kabi ijobiy fazilatlarga ega bo'lishi, shuningdek, sog'lom hayot kechirishi, chekish, yolg'onchilik, maishiy buzuvchi qat, dimog'dorlik, manmanlik va boshqa shu kabi illatlardan holi bo'lishi oilaviy munosabatlar madaniyatining sofliqini ta'minlovchi xususiyatlardir.

Bunday ijobiy xususiyatlarga ega bo'lish, serfarzand oilalarda ham, yoki faqat er va xotin yashaydigan oilalarda ham o'g'ip kechadi. Chunki er-xotin turli sharoitda, muhitda tarbiyalangan, ularning qarashlari, ma'lumoti, yoshi, ma'naviy saviyasi va boshqa qalarda nomuvofiqlik mavjud bo'lishi mumkin. Er-xotinning bir-biriga ko'nikishi, o'zaro hurmati, do'stona munosabatlarining shakllanishi uchun ular orasidagi sevgi dastlabki manba bo'lsa, ahloqiy qadriyatlarning gultoji bo'lgan ibrat, hayo, xushmuomalalik, mehnatsevarlik, sarishtalik, ozodalik, pazandalik, g'amxo'rlik, mehr-shafqat kabi azaliy odatlarimiz oilani mustahkamlashda ikkinchi manba bo'ladi.

Institut jamiyatda xotin-qizlarning siyosiy onglik darajasini yuksaltirish bilan birga, ayollarga taalluqli ijtimoiy munosabatlarni o'rganadi, shu orqali ayollarning iqtisodiy, siyosiy, maishiy, madaniy, ta'limiy va boshqa sohalaridagi ahvolini tadqiq qiladi. Bugungi kunda O'zbekistonda xotin-qizlarning ijtimoiy ishlab chiqarish, sog'liqni saqlash, maorif, madaniyat, savdo, maishiy xizmat ko'rsatish sohalaridagi salmog'i 80—90 foizga yetgan. Bu borada «Tadbirkor ayollar uyushmasi» ham katta faoliyat ko'rsatmoqda.

Avvalo ushbu masalada shunga ham e'tibor berish joizki, Respublika Xotinkizlar qo'mitasi huzurida Respublika «Oila» ilmiy-amaliy markazi tashkil etildi.

Oila davlat qaramog'ida bo'lar ekan, unda albatta onalar ijtimoiy muhofazasi masalasini hal etmoq lozim. Prezident farmoniga muvofiq (1994 yildan) bolali oilalarga 3 xil nafaqa to'lanadigan bo'ldi:

1. Bola tug'ilishi munosabati bilan bir yo'la beriladigan nafaqa (6 oy mobaynida murojaat qilinsa, beriladi). Eng kam ish xaqining ikki baravari miqdorida to'lanadi.

2. Bola 2 yoshga yetguncha uni tarbiyalagan onalar uchun beriladigan nafaqa. Ya'ni onaning dekret ta'tiliga 2 yil mobaynida haq to'lanadi. Bu eng kam ish haqining 175 foizi miqdorida beriladi.

3. 16 yoshgacha bolalari bo'lgan barcha oilalarga har oylik nafaqa, murojaat qilingandan keyingi oydan boshlab beriladi. Har oyda to'lanadigan nafaqa oilaning bitta bolasiga eng kam ish haqining 50 foizi, ikkita bolasiga 100 foizi, uchta bolasiga 140 foizi, to'rt va undan ortiq bolaga 175 foizi miqdorida beriladi.

Davlat 16 yoshgacha bo'lgan bolalari bor oilalarga birgina 1997 yilda nafaqalar to'lashga 9,6 mlrd. so'm ajratgan.

Tajribali kishilarning aytishicha, ota-onaning farzand oldidagi burchi nihoyatda mas'uliyatli hisoblanishini ma'nan his qilish darkor. Farzandlarning kelajakda qanday ma'naviyat egasi bo'lishi ko'p jihatdan ota-ona, u bergan tarbiyaga bog'liq. Har bir ota-ona farzandi oldida o'z otalik, onalik burchini to'liq his etishi, unga javobgarligini ma'nan anglab yetishi lozim. SHulardan xulosa qilgan holda, «Sog'lom avlod» davlat dasturini nazarda tutib farzandlar tarbiyasi quyidagi bosqichlarda amalga oshirilishini har bir ota-ona yaxshi bilishi foydadan holi bo'lmaydi:

1. Nasl tarbiyasi, ya'ni bola tarbiyasi bola tug'ilmasdan 3—4 yil oldin boshlanishi zarur. Bu farzand ko'rishni istagan ota-onaning bo'lajak farzandlari taqdiriga mas'uliyat bilan qarab, o'zlarining salomatliklarini yaxshilashlarini nazarda tutadi.

2. Ikkinchi bosqich — homiladorlik davridagi parvarish. Bu masala o'ta muhim ahamiyatga ega bo'lib, «Sog'lom avlod» davlat dasturida ham asosiy mavzu sifatida belgilab beriladi. Ayni qisa, rivojlangan mamlakatlarda homiladorlik davrida onalarga katta g'amxo'rlik ko'rsatiladi.

3. Uchinchi davr bola tug'ilgandan to 6—7 yoshgacha bo'lgan davr. SHu davrga kelib, bola ma'naviyatining kurtaklarini parvarishlash va yanada rivojlantirish davri boshlanadi.

Voyaga yetgan, mehnatga layoqatli farzandlar o'z ota-onalari haqida g'amxo'rlik qilishga majburdirlar.

SHarqda oila muqaddas deb sanalgan va nikohsiz er-xotin bo'lish man etilgan. Millat ko'payishining birdan-bir yo'li erkak va ayolning nikoh va oila munosabatida bo'lishidir. G'arb oilasini g'oyalar dunyosi bosh qarsa, SHarqda oila

urf-odat va diniy qoidalar bilan tartibga solingan. SHarqda oilaviy munosabatlar ham ayollar davomida o'zida diniy, milliy, umuminsoniy madaniyatni shakllantirgani, har qanday sharoitda ham insoniy

qadr- qimmatni ustuvor bilgani, milliy ahloq-odobga asoslanganligi bilan farqlanadi. Sharq oilasiga xos xususiyat oilalarning mustahkamligi, kishilarning oilaviy hayotdan tashqarida yashashni tasavvur qila olmasligi, oilaparvarligi, jamoa bo'lib yashashning ustunligi, serfarzandligi, bolajonligi, oilani muqaddas bilishida namoyon bo'ladi.

Oila qurmoqchi bo'lgan har bir yigit- qiz o'ziga umr yo'ldoshi tanlashda bo'lajak farzandlarining otasi yo onasining shaxsiy fazilatlariga e'tibor berishi kerak. Chunki otaning ahloqi, odo-bi, onaning fazilatlarini bolaga o'tishi isbot talab qilmas haqiqatdir. Xullas, o'g'il ham, qiz bola ham eng avvalo, oila muhitida g'uncha ochadi. Ana shu g'uncha uning ma'naviyatida, qalbida bir umr yo'lchi yulduz kabi nur sochib turadi. Rizouddin ibn Faxriddinning «Oila» risolasida: «Tarbiyali xotin ota-onasini, eri hamda bolasini, butun oila ahlini oilaga munosabati bo'lgan do'stu- qo'shnilarini, xodimu xodimalarini xulqi bilan mamnun qilur», — deyiladi.

Amoma binti Xoris ismli ayol tajribasidan misol. U o'z qizlarini kelin bo'lib, kuyovning uyiga ko'chirilishdan oldin saodatli oila asoslarini bayon qiluvchi nasihatlarini qilib kuzatgan ekan: «Ey qizginam, agar ahli fazl va ahli odoblarga nasihat kerak bo'lmaganida edi, senga nasihat qilmas edim. Lekin nasihat — g'ofilga eslatma, o'qilga yordamdir. Agar qiz bola ota-onasining kambag'alligi sababli erga berilishi kerak bo'lganida, sen hech qachon uzatilmagan bo'lur eding. Chunki otangning boyligi ham, martabasi ham yetarli. Lekin hayot qonunlariga ko'ra ayollar erkaklar uchun va aksincha erkaklar ayollar uchun yaratilgandir.

Ey qizginam, endi o'zing o'sgan havodan ayrilding. O'zing yayrab-yashnagan oshiyondan chiqding va notanish joyga borib, avval o'zing bilmagan sherikka uchraysan. U endi sening xojang, do'sting, mahbubingdir. Sen unga cho'ri bo'lsang, u senga qul bo'ladi. Sen unga yer bo'lsang, u senga osmon bo'ladi. Sen uning uchun 10 hislatni ado qilsang, oilada mas'ul va baxtiyor hayot kechirasizlar:

1. Janoat sohibasi bo'l, undan xayri qib tur, ering uyga nima ko'tarib kelsa, xushfe'llik va odob-nazokat bilan qabul qilib ol va tashakkur ayt.

2. Eringga hamisha itoatda bo'l, amrlarini yaxshi- lab tingla va bajar.

3. Eringning nazari tushadigan joylarga e'tibor qil. Uy ichi va hovlini nihoyatda ozoda va tartibli tut.

4. Eringning burniga xushyor bo'l, dimog'iga yomon hid kirmasin, xushbo'ylik sezs.

5. Ov qatni va qitida tayyorla, aslo kechiktirma, kelishi bilan dasturxon yoz.

6. Uning ov qatlanish va uyg'onish paytini bilib ol, chunki ochlik va uyquning buzilishi erkaklarning g'azabini qo'zg'aydi.

7. Xojangning moli va ashyosiga e'tiborli bo'l, isrof qilma. Avaylab asra, chunki uning molu-dunyosi senikidir.

8. Eringning ya qinlari va qarindoshlarini hurmat qil. Bu bilan xojangni hurmat qilgan bo'lasan.

9. Eringning sirlarini bosh qalarga aytuvchibo'lma, uning ishonchini yo' qotasan.

10. Xojangning amriga osiy bo'lma, uning diniga to'g'ri keladigan barcha buyruqlarini ado qil. SHuni yaxshi bilib olginki, xojang xafa bo'lganda xursand ko'rinishdan, quvongan paytida g'amgin bo'lishdan o'zingni ehtiyot qil.

O'zbekistonda 1980 yilda 173 ming 628 ta, 1989 yilda 200 ming 661 ta, 1996 yilda esa 171 ming 700 ta nikoh qayd etilgan. Bunda qishloqlarda shaharlarimizga nisbatan salkam 2 baravar ortiq yoshlar nikohdan o'tishgani ma'lum.

Oila ikki ustundan iborat:

Birinchisi - **iqtisod**, ikkinchisi — **ma'naviyat**. Oilani shu ikki ustundan birisiz tasavvur etib bo'lmaydi. Lekin iqtisodda imkoniyatdan, ma'naviyatda sharoitdan kelib chiqmoq kerak. SHunda oila mustahkam qo'rg'onga aylanadi. «Eng do'zaxi ayol — eri imkoniyati darajasidan ortiq talab etuvchi ayoldi», — deb u qatriladi muborak hadislarida.

Oila tutishda ma'naviyatning sharoit taqozo etgan tomonlari borki, bu xaqda allomalarimiz eslatib o'tishgan. Beruniy oila qurayotgan qizlarga ota-onaning pand-nasihatlarini keltirib, oiladagi tinch-totuvlik ko'proq ayollar zimmasiga tushishini ta'kidlab shunday yozadi: «Ey qizim! Sen o'rgangan uyingdan ketib, notanish xonadonga tushmoqdasan. Sen bo'lajak kuyovingning hamma hislatlarini bilmaysan. Sen yer bo'l, u esa osmon bo'ladi. Demak, sen u bilan shunday yo'l tutki, uning oldida yer kabi kamtar bo'lsang, u osmon kabi olijanob bo'ladi. Osmon shifobaxsh yomg'iri bilan yerni ko'kartirgani kabi ham o'z mehru shaf qati ila seni xushnud etadi. Ering sendan faqat yumshoq va shirin so'zlar eshitsin, yaramaydigan va eski libosda yoki sochlaring tartibga solinmagan holda uning oldida o'tirma. Jizim, kuyovingdan kuchi yetmagan va sotib olishga qudrati yetmagan narsalarni talab qilma. Bunday qilsang orada totuvlik yo' qoladi, turli xil janjallar paydo bo'ladi. Jizim, rashq qilishdan saqlangin, chunki u ajralib ketishning kalitidir. Eringga hadeb gina qilaverishni man etaman. Yaxshisi, sen u bilan xushmuomalada, shirin so'zli bo'lgin, bu ishing har qanday sehru jodudan yaxshidir. O'zingga xushbuy narsalar bilan oro bergil. Pokizalik hamisha yo'ldoshing bo'lsin».

82 yoshli Lev Tolstoy 1910 yil oktyabr oyining qorli, sovuq tunlaridan birida inji qayolidan (ayoli boylikka berilgan edi) qutulish maqsadida uyini tark etib, boshi ortiq qan tomonga jo'naydi. Oradan o'n bir kun o'tgach, kichkinagina temir yo'l stantsiyasida o'pka shamollashidan vafot etgan yozuvchining so'nggi so'zi shu bo'ldi: «Xotinimni yonimga yo'latmanglar». «Be'mani inji qalik — zaxri qotil», — deydi Deyl Karnegi. «O'qila rafi qam! Agar ering yoningda bo'lishini istasang, shuning payiga tushginki, toki u hech yerda sening huzuringdan kabi rohat-farog'at va muloyimlikka duch kelmasin», — deb yozganida buyuk olim Pifagor ming karra haqli edi.

SHundan so'ng o' qituvchi qo'yidagi xulosalar bilan darsni yakunlaydi va o' quvchilarni baholaydi:

1. Demak inson zotining shakllanishida oilaning o'rni katta. Chunki ma'naviyat, insonga ona suti, ota namunasi, ajdodlar o'giti bilan birga singadi. Har bir kishi tajribasi, bilimi, odob-axloqi, hatti-harakati bilan o'zining ruhiy olamini boyitib boradi. Aqlan, ahloqan va jismonan kamol topib borgan sari u o'z oldiga turli maqsad kuyib, unga erishish uchun harakat qiladi. Insonning mavjudligi uning jisman borligi bilan emas, balki ma'naviy boy ekanligi bilan belgilanadi.

2. Keyingi paytlarda xalqimizning ma'lum tabaqalari o'rtasida soxta shuhrat ketidan quvib, nomchi qarish, o'zini ko'z-ko'z qilish, keragidan ortiq dabdaba bilan nikoh to'yi o'tkazish, isrofgarchilikka yo'l qo'yish hollari ko'payib qolgan edi. Bu esa muqaddas an'analарimizni obro'sizlantirishga olib kela boshladi va oddiy odamlarning nafsoniyatiga tegar edi. Oqibatda ko'p oilalar buzilib ketdi.

3. Mamlakatimiz Prezidenti Islom Karimovning 1998 yil 28 oktyabrda qabul qilgan farmoni to'y-hashamlar, oilaviy tantanalar, maraqa va marosimlarni, marhumlar xotirasiga barishlangan tadbirlarni o'tkazishda dabdababozlik, isrofgarchilikka yo'l qo'yish kabi illatlarga barham berishni katta vazifa qilib qo'yadi.

To'ylarda yangicha tartib, yangicha rasm-rusumlarni joriy qilishda mahalla qo'mitalari, xotin-qizlar faollarining ta'siri kuchli bo'lmog'i zarur. Har bir mahallada iqtidorli ayollardan laparchilar, muvosi qachilar guruhini tashkil etish, to'yni qizi qarli, bir umrga esda qoladigan qilish uchun turli-tuman dasturlar tayyorlash, to'y ishtirokchilarining faolligini oshirish yo'llarini o'ylab topish lozim.

Savollar

1. Oila ma'naviyati haqida nimalar bilasiz?
2. Oila ma'naviyatiga e'tibor qaratilgan qanday tarbiyaviy tadbirlar zarur deb hisoblaysiz?
3. Yoshlarni ma'naviy ahloqida qanday kemtikliklarni borligini his etgansiz?

Asosiy darsliklar va o'quv qo'llanmalar

1. O.Hasanboeva va boshq. Oila pedagogikasi. T., Aloqachi, 2007y
2. A.K.Minavvarov. Oila pedagogikasi. T., O'qituvchi, 1994 y.
3. M.Inomova. Oilada bolalarni ma'naviy axloqiy tarbiyasi. T., O'qituvchi, 1999 y.
4. R.To'raqulova Oilada sog'lom muhit va reproduktiv madaniyat. . T., 2002y.
5. Reprodukativ ma'naviyat va madaniyat asoslari. To'plam. T., 2002y.
6. M.R.Bo'rieva O'zbekiston oila demografiyasi. T., Universitet, 1997y.
7. O.To'raeva Bola aziz odobi undan aziz T., O'qituvchi, 1996 y.

5.MAVZU: MEHMON KUTISH ODOBI.

Asosiy savollar:

1. O'zbek oilalarining eng qadimgi insonparvarlik an'analari
2. Ahloq - odobga oid hadis namunalari
3. Mexmon kutush odobi.

O'zbek oilalarining eng qadimgi insonparvarlik an'alaridan biri mehmondo'stlikdir. qadimgi udum bir qarashda oddiy mehmon keldi, kutildi, kuzatildi singari soddalashtirilgan, holda kishi ko'z oldida namoyon bo'ladi. Xalqimiz bu borada tarbiyaviy ahamiyatga molik naql yaratgan: "Maktab o'qib mo'lla bo'lasan, mehmon kutib (mehmon bo'lib) odamgarchilikni o'rganasan". Haqiqatan ham, bu naqlda juda katta pir ma'no yashiringan. Odatda har bir xonadonda alohida did bilan bezatilgan mehmonxonasi bo'lgan va hozir shu tarzda davom etayapti. Ilgari har bir hovlida mehmonlar uchun alohida darvozadan to'g'ri kiriladigan mehmonxonaning mavjudligi xalqimizda mehmondo'stlik an'anasining qadimiyligidan darak beradi. Buni XI asrda yashagan sharqning allomasi Yusuf Xos Hojib "qutadg'u bilig" asaridagi: "Agar sen odamlarni taklif qilayin desang, taklif qilgin va lekin taraddudlarni yaxshi ko'rib qo'y. Idish - tovoq, dasturxon, uy-joy, libos pokiza bo'lsin, pokiza ko'rpacha yoygin, ovqat va ichimliklar ham yaxshi bo'lishi kerak. Ovqat ichimliklar pokiza, totli, yaxshi bo'lsin, qo'l uzatgan havas bilan yesin. Taklif qilmasang, osh-suvning kamchiliklari bitta bo'ladi, taklif qilsang, uni ko'rgan birni ming qiladi. Uyla sen yeb - ichiladigan narsalarni yaxshi, pokiza qilgin, kelgan yaxshilar to'yib turib ketsinlar. Do'stlarni, qarindoshlarni, ular xoh uzoq, xoh yaqin bo'lsinlar, barchasini ziyofatga taklif qil, haqlariga rioya qilgin.

Keladigan keladi, agar kelmasa, uning ko'ngli taklif qilinganligi uchun qolmaydi"¹, - deb bildirgan qimmatli fikrlari ham isbotlaydi.

Hozirgi davrda ham har bir oilada katta, keng, ko'rkam, havodor bir xona maxsus jihozlar bilan bo'sh holda mehmon kutish uchun muljallab saqlash an'anaga, odatga aylangan. Mehmon uchun ohori tukilmagan bir necha ko'rpacha, ko'rpa, bolishlar, idish tovoqlar tayyorlab qo'yiladi. Imkoniyati mavjud oilalarda divan, kreslo, stol, stullar, shifoner va boshqa jihozlar bilan boyitiladi. Bunday mehmonxonani saqlashdan maqsad oilaga tashrif buyurgan kishilarga eng qulay, shinam shart - sharoit yaratish, mehmonga e'tibor, hurmat va izzat etishga qaratilgan. Axir xalqda "mehmon oz o'tirar, ko'p ko'rar" degan hikmat mazmuni asosida mehmon kutiladigan xonani toza, ozoda, tartibli, sarishtali saqlash odatga aylangan.

O'zbek xalqining mehmondo'stlik an'anasining mohiyati, mazmuni va unga qo'yiladigan talablar quyidagi: "Uying tor bo'lsa ham ko'ngling keng bo'lsin", "Mehmonga ko'ngling qo'rini ber, uyning turini ber", "Kelish mehmondan, ketish mezbondan", "Yaxshi mehmon uch kunlik", "Bug'doy noning bo'lmasa ham, bug'doy so'zing bo'lsin", "Mehmon kelar eshikdan, rizqi kelar teshikdan", "Mehmon otangdek ulug'", "Mehmon oz o'tirar, ko'p ko'rar", "Mehmonning kiyimiga qarab kutib olib, so'ziga qarab kuzatadilar", "Kulchali mehmon, suykli mehmon" singari maqollarda o'z aksini topgan. Oilada mehmon va mezbonlararo munosabatlar, burch ma'suliyat xalq maqol va hikmatlarida ifodalangan.

Ahloq - odobga oid hadis namunalarida: “Mehmondo`st bo`lmagan odamdan yaxshilik kutilmaydi”, “Uyiga mehmon quymaydiganlar yomon odamlardir” va “Rasululloh mehmon uchun ortiqcha takalluf (ziyofat uchun ortiqcha urinishni) man etganlar” singarilar alohida ta'kidlangan.

Bu hadislar mehmon kutib oluvchining mehmonga bo`lgan ma'naviy - ahloqiy normalarini belgilab beradi. Oqibatda, har bir odam o`z qadr - qimmatini, obro`sini o`zi yaratadi.

Oilaga mehmon tashrif buyurganda uy egasi bolalaridan birini qo`shni, qavmi - qarindoshlardan mehmon bilan suhbat qilishga taklif etish uchun xabar berish an'anaga aylangan. Taklif mehmonga taklif qilingan qavmi - qarindoshlarga alohida burch va ma'suliyat yuklaydi. Oilada mehmondo`stlik an'anasining bolalarni yetuk inson qilib tarbiyalashdagi imkoniyatlari katta. Mehmon kelgan uyga taklif qilingan kishi kechqurun bo`lsa, albatta quruq qo`l bilan ya'ni hech bo`lmaganda ikki dona tandir non, shirinlik yoki oilasida tayyorlangan ovqatdan biror idishga olib kelish ota - bobolarimiz tomonidan qo`llanib kelinayotgan “mehmon osh” bizning davrimizgacha davom etib kelmoqda. Mehmon osh mehmonga va mezbonga taklif qilingan kishining juda katta hurmat - e'tibori va yaqinligini ifodalaydi. Agar taklif qilinganlardan ba'zilari mehmon bilan suhbatga kelmasa, uzrli sababi bo`lmasa, u kishining munosabati vaqti bilan so`ralgan va tahlil qilingan. An'anaga ko`ra mehmondan qochgan kishi ma'naviyatli emas deb hisoblangan. Shuning uchun ham oilada mehmon kelgan xonadonga kelish oilalararo ma'naviy - ahloqiy insoniy munosabatlarni tartibga soluvchi milliy vosita bo`lib xizmat qilgan va qadrlangan. Hatto mehmonga kelmagan kishi udumga binoan nomard hisoblangan.

Mehmonni kutishda oila boshlig`i ota, ona va xizmat qilgan farzandlarning ochiq chehrasi, samimiyligi, kayfiyati ko`tarinki bo`lishga alohida e'tibor berishgan. Bu to`g`rida xalqda “Mehmon oldida mushugingni pisht dema” degan hikmatga amal qilingan. Agar mehmon shu oilaga juda ham qadrli bo`lib ko`p yillardan buyon tashrif buyurmagan bo`lsa, mehmon sharafiga qo`y, echki, ho`kkiz, xo`roz, o`rdak, ko`rka so`yib ziyofat berish an'anasi mavjud. Mehmon va taklif qilingan qo`ni - qo`shnilar uchun oila sharoitidan kelib chiqib, ziyofat dasturxoni tuzatilgan, tansiq taomlar tayyorlanib siylangan.

Agar mehmonlar ikki jinsdan tashkil topsa, taklif qilinganlar ham xuddi shunday kishilardan tashkil topadi. Bunday paytlarda erkaklar, ayollar alohida - alohida xonada o`tirishadi. Bu udum har ikki jins vakillarining erkin, osoyishta va bermalol o`tirib ko`ngilli dam olishlarini ta'minlaydi. An'anaga ko`ra kichik bolalar yoki katta yoshdagi qizlar onalar bilan birga o`tirishadi. Katta yoshdagi o`smir yoki o`spirin otasi erkak mehmonlar bilan birga bo`lishadi hamda xizmat ko`rsatish ishlarini otaning bevosita boshchiligida bajarish odatga aylangan. qo`lga suv quyish, sochiq tutish, ichkariga taklif qilish, dasturxon yozish, non va meva konfetlarni keltirib qo`yish, choy keltirish, oyoq kiyimlarni o`nglash, pechkaga olov yoqish, oziq - ovqat va idish tovoqlarni tashish va hakazo. Bola xizmat ko`rsatish munosabatlarga kirishish orqali aqliy, ahloqiy, mehnat, nafosat, jismoniy hamda ma'naviy tarbiya sohalaridagi sifatlarni, tajribalarni shu vaqtda oladi.

Umuman, tarbiya sohasidagi tushuncha, tasavvur, bilimlar, kerakli xulq - atvor faqat oila tajribasida emas, balki boshqa mehmonlarning ishtirokida tarkib topib, mustahkamlanib boradi. Bu jarayon bolalarda mustaqillikni tarbiyalashda muhim rol o'ynaydi. qiz bolalar xotin - qizlar bilan o'tirishadi va ona boshchiligida mehmonlarga xizmat ko'rsatadi. Onalarga xos barcha sifatlar: xushmuomalalik, shirinso'zlik, ochiq ko'ngillik, chaqqonlik, epchillik, uquvlilik, mehmon ko'ngliga qarab muomala qila olish, farosatlilik kabi sifatlarni ham nazariy, ham amaliy jihatdan o'zida shakllantiradi, oila hayotiga ongli tayyorlanadi. Mehmon bilan mezbonlarning turli mavzular bo'yicha suhbatlari, voqealar, siyosat, savdo - sotiq, adabiyot, san'at, ahloq, odob, fahm - farosat, muomala, xulq - atvor va ma'naviyat borasidagi tushuncha, tasavvur bilimlarini kengaytirishda samarali ta'sir ko'rsatuvchi vosita bo'ladi. Oilada bolalarning bunday davralarda bevosita ishtirok etishi, ularning aqliy, siyosiy, axloqiy, mehnat, estetik, huquqiy, iqtisodiy, jismoniy va ma'naviy tarbiyasining yaxshilashiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi, tarbiyalaydi. An'anaga ko'ra o'spirinlar mehmon, qo'shnilar, ota - onalar o'zaro gaplashganda aralashmasdan, ayniqsa, gaplarini bo'lmasdan, gap suralganda andisha bilan javob qaytarish, odob bilan kirib - chiqish, mehmonlarga ochiq chehra bilan xizmat qilish, ovozi baland ko'tarmaslik, burunni no'rin tortmaslik, badanni qashilamaslik kabi ma'naviy - ahloqiy ko'nikmalarga amal qilishi shart.

Agar mehmon yoki mezbonlar o'zlari bolalarga ruxsat bersalar muhokama qilinayotgan mavzuga o'z fikrini aytishi lozim. Mazkur an'anaga bolalarni axloqli, odobli va ma'naviy xulq - atvorli etib tarbiyalashning asosi hisoblanadi. Bolalar oilada bunday tushuncha, tasavvur va ma'lumotlarini yoshining ortib borishi bilan boyitib, kengaytirib boradi. Mehmonlar xizmat ko'rsatgani, hurmat - izzati uchun mezbonga, xususan bolalarga minnatdorchilik bildirib, xizmatni ko'ngildagidek bajarganligi uchun rahmat aytgan o'smir va o'spirinning xizmatiga umumiy baho bergan. Baho mehmon tomonidan izohlangan, bolaning yutuqlari alohida ta'kidlangan va ularning mehmon kutishga bo'lgan qiziqishini oshirgan hamma shu sohada ko'nikmalarni mustahkamlashga qulay sharoit yaratgan. Shuning uchun ham oilada mehmondo'stlik an'anasining ta'lim - tabiiyaviy imkoniyatlari katta.

Mehmonni kuzatgandan so'ng oilada ota - onalar boshchiligida barcha oila a'zolari ishtirokida mehmonga xizmat ko'rsatishda qatnashgan farzandining xizmat ko'rsatishini tahlil qilishadi. Tahlilda avval yutuqlarini ta'kidlab, kamchiliklarini bartaraf etish haqida fikr, mulohaza bildirib, foydali maslahatlar berishadi. Shundan keyin farzandning mehmonni kutishdagi umumiy faoliyatiga baho qo'yishadi. Bunday baho, tahlil, bolalarning shu sohada ma'lumot olishini ta'minlaydi. Shuning uchun ota - onalarning bu xildagi tahlillari juda qisqa vaqtda o'tkazilsa ham bolalarni oila hayotiga tayyorlashda amaliy yordam beradigan milliy tarbiya vositasi bo'lib kelgan va shunday bo'lib qolaveradi. Mehmondo'stlik nafaqat mezbonga, bolaga, balki mehmonlarga ham muayyan talablar qo'ygan. Masalan, mehmon bo'lish paytida ahloq - odob qoidalariga rioya qilish, mehmonlik izzat - hurmatini bilish, bo'lar - bo'lmas har xil talablar qo'ymaslik, xushmuomala bo'lish, boshqalarni hurmatlash, uylab mulohaza bilan fikr yuritish, taomlarni iste'mol qilishda me'yorni bilish, o'tirish - turishda madaniy xulq - atvor

ko`nikmalarini bajarish, uch kundan ortiq mehmon bo`lmaslikka harakat qilish, ko`p gapirmaslik va hakazo.

Mehmondo`stlikning yana bir xususiyati mehmonni qarindosh - urug`lar, qo`shnilar, yoru do`stlar xonadonlariga navbat bilan taklif qilishdir. Udumga binoan ishlab chiqarishga xalal bermasdan, mehmonning ra'yini, sharoitini, kayfiyatini hisobga olib, mehmonga keladigan uy egasi va boshqa ishtirokchilar bilan kelishgan holda kim qaysi vaqtda mehmonga taklif qilish tartibi belgilanadi. Mehmon va boshqalar taklif qilgan oilalarga navbat bilan mehmon bo`lib, uy sharoiti va oila a'zolari bilan yaqindan tanishadi. Har bir xonadonda turli xil taomlar tayyorlanib turli mavzularda gurgung, bahs, o`zaro fikr almashish kabi tadbirlar bilan mehmonning ko`nglini olishga va madaniy hordiq chiqarishga alohida e'tibor qaratiladi.

Mehmondo`stlik an'anasi oilalararo ahillik, yaqinlik, do`stlik, hamkorlik, hamjihatlik, kishilarning bir - biriga mehr - oqibat, hurmat - izzat, e'tibor va insonparvarlik kabi fazilatlarni shakllantirishda katta rol o`ynaydi. Ilgari vaqtlarda mehmondo`stlik spirtli ichimliklarsiz uy egalari va mehmonlarning qiziqarli davra suhbatlari asosida o`tkazilgan. Mustabid yillarida mehmondorchilikni tashkil etishda meyoridan ortiq spirtli ichimlik iste'mol qilish va dabdabozlik kabilar an'ana mazmuniga yomon ta'sir ko`rsatdi. Shuning uchun mazkur an'anaoldagi oldingi mazmunni saqlab, zamon talabi bilan uyg`unlashtirib olib borish barchamizning asosiy burchimiz bo`lib qolmog`i darkor.

Ota - onalar oilada mehmon kutishda xizmat ko`rsatishga o`smir yoshidan katta o`spirinlarni jalb qilish nihoyat darajada foydaliligini tushunib yetishlari, anglashlari zarur. Chunki bolalar kelajakda oila hayotida olib borilishi zarur bo`lgan mehmon kutish, aksincha, mehmon bo`lish bilan bog`liq ko`nikmalarni o`zlashtirishda ko`pgina qiyinchiliklarga duch keladi. Ba'zi ota - onalar bolalarini mehmondo`stlik bilan bog`liq xizmat ko`rsatish ishlariga jalb qilishmaydi. Buning natijasida bolalar voyaga yetganda mehmonni kutish va mehmon bo`lish bilan bog`liq ko`nikmalarni, odatlarni bajarishda ko`plab nuqsonlarga yo`l qo`yishadi. Buning asosiy sababi bolalarni jinsi, yoshi, rivojlanishini hisobga olib mehmondo`stlik an'anasiga o`rgatib bormasligining oqibati deb xulosa chiqarish mumkin. Aksincha o`smir, o`spirinlar mehmondo`stlikda aqliy, ahloqiy, mehnat, nafosat, iqtisodiy, huquqiy, insonparvarlik, oilaparvarlik, mehmonlarni hurmatlash bilan bog`liq tushuncha, tasavvur, ma'lumotlarini ko`nikma va odatlarini tarkib toptiradi va mustahkamlaydi. Eng muhimi mehmon kutish bo`yicha tajribalarni tuplab, uni mustaqil qo`llashga o`rganib boradi. Ota - bobolarimiz tomonidan oilada rivojlantirib, qo`llanilib kelingan mehmondo`stlik an'anasi bolalarni oila, ijtimoiy hayotga tayyorlashda milliy hayot maktabi vositasi bo`lib xizmat qiladi.

Asosiy darsliklar va o`quv qo`llanmalar

1. O.Hasanboeva va boshq. Oila pedagogikasi. T., Aloqachi,2007y
2. A.K.Minavvarov. Oila pedagogikasi. T., O`qituvchi, 1994 y.
3. M.Inomova. Oilada bolalarni ma`naviy axloqiy tarbiyasi.T., O`qituvchi, 1999 y.
4. R.To`raqulova Oilada sog`lom muhit va reproduktiv madaniyat. . T., 2002y.
5. Reprodukativ ma`naviyat va madaniyat asoslari. To`plam. T.,2002y.

6. M.R.Bo'rieva O'zbekiston oila demografiyasi. T., Universitet, 1997y.
7. O.To'raeva Bola aziz odobi undan aziz T., O'qituvchi, 1996 y.

6.MAVZU:OILADA VATAN VA VATANPARVARLIK ENG OLIY QADRIYAT SIFATIDA.

Dars o'quv maqsadi: Talabalarga nikoh oldi omillari va ularning nikoh mustaxkamligiga ta'siri

Tushunchalar va tayanch iboralar:

Asosiy savollar:

1. Oilada vatanparvarlik tarbiyasi
2. Vatanga muhabbatni tarbiyalash va baynalmilalchilik tarbiyasi.
3. Mytafakkirlar va shoirlar ijodida vatanparvarlikni talqin etilishi.

Vatan hissi... U bolada oilaga, eng yaqin kishilari –ota, ona, buva, buvi, aka –uka, opa –singillariga bo'lgan munosabatdan boshlanadi. Bu uni qadrdon uyi va yaqin kishilari bilan bog'laydigan ildizlardir.

Eramizdan oldin yashagan yunon adiblaridan biri “Vatan sha'niga” asarida: “Mening bu gaplarim g'oyat eski gaplardir. Lekin haqiqat shunday: o'z otasini sevmagan farzand o'zganing otasini ham hurmat qila olmaydi, o'z vatanini sevmagan kishi o'zgalar vatanini qadrlay olmaydi”, deb yozgan ekan. Uning bu gaplari oradan ikki ming yildan ortiq vaqt o'tgan bo'lsa ham, uning uchun o'sha paytda “eski bo'lgan gaplar” hozir naqadar zamonaviy jaranglamoqda.

Vatan deganda nimani anglash mumkin? Vatan – arabcha ona yurt degani. Vatan – bu odam tug'ilib o'sgan, tarbiyalangan, mehnat quvonchini totgan, shu odam mansub bo'lgan xalq tarixi bilan bog'langan hamda turixan shakllangan ijtimoiy – iqtisodiy, siyosiy va madaniy muhitdir.

Vatan – ko'p qirrali tushunchadir, bu ma'lum xalq yashaydigan hudud, ijtimoiy –iqtisodiy va siyosiy tuzum, milliy hayot, madaniyat, til, milliy an'analar, ya'ni kishi mansub bo'lgan jamiyatning moddiy va ma'naviy sharoitlari yig'indisini o'z ichiga oladi.

Vatanparvarlik –vatanga muhabbat, unga sodiqlik, uning manfaatlari yo'lida xizmat qilishga tayyor turish demakdir.

Vatanparvarlik ijtimoiy, tarixiy va axloqiy his- tuyg'u sifatida olamning ijtimoiy taraqqiyoti davomida paydo bo'ladi. Ibtidoiy jamoa tuzumida vatanparvarlik faqat o'z urug'doshlariga, ona yerga, ona tiliga, urf –odatlarga bog'liq his bo'lgan bo'lsa, sinflar paydo bo'lishi bilan vatanparvarlik g'oyalari chuqurlashib, ijtimoiy hayotning tobora ko'proq sohalariga chuqurroq kirib bordi. Davrlar o'tishi bilan bu tuyg'u buyuk qudratga aylanadi.

Buyuk o'zbek mutafaakirlarining fikricha, “Biz tug'ilgan yurtimizdan uzoq ketsak, bizni tortib kelaturg'on quvvat o'z vataniimizning, ona tuproqning mehru muhabbatidir”.

Biz Vatan so'zini ne-ne so'zlarga qo'shib, ne –ye qadriyatlarga sifat berib ishlatamiz: “Vatan tuprog'i”, “Vatan adabiyoti”, “Vatan tuyg'usi”, “Vatan tarixi”.

Maqollarimizda o'zbek xalqining ona vatanga bo'lgan cheksiz muhabbati, hurmati, sadoqati o'z ifodasini topgan. Ularda vatan, el –yurt ulug'lanadi, har kim

o'z elida erkin nafas olishi, izzat –hurmatda yashashi ko'rsatilib, vatanni sevish, uyga hamisha sodiq bo'lish zarurligi uqtiriladi. “Bulbul chamanin sevar, odam vatanini”, “Onaga bo'lgan muhabbat – vatanga bo'lgan muhabbatning kurtagi”, “Kim onasin sevmagan, kim vatanin sevmagan?!”, “Har kimning o'z elati o'ziga shirin”, “Har qush o'z uyasida erkin”, “Har qush o'z uyasiga qarab uchadi”, Har toycha suv ichgan bulog'ini maqtaydi”, “Har ko'katning o'z suygan tuprog'i bor”, “Tovushqonga tug'ilgan tuprog'i aziz” abi maqollarda ona yurt o'zining butun borligi bilan madh etiladi va har kimning o'z vatani o'zga yurtlardan afzalligi, naqadar yoqimli va nihoyatda azizligi faxr va g'urur ila madh etiladi.

Shu bilan birga o'z vatanini faqat sevibgina qolmay, balki uni asrab, avaylashga chaqiruvchi xalq maqol a matallarini ham ko'plab uchratish mumkin: “O'lsang o'l –vatanda bo'l”, “Vataning tinch –se tinch”, “Eling omon bo'lsa, sen omon”, “Vatanga falokat –o'zingga halokat”, “Ona yurtning omon bo'lsa, rangi – ro'ying somon bo'lmas” kabi maqollarda Vatanning tinchligini saqlash, uning dahlsizligini ta'minlay, ona tuprog'ini dushman oyog'i ostida toptamaslik, vayron bo'lishiga yo'l qo'ymaslik –oliy burch ekanligi uqtiriladi.

“Yurtim –ko'ksim, elim –iligim”, “Esi butun elidan chiqmas”, “Tog' gulining tog'da o'sgani yaxshi”, “Tuqqan yerdan oyoq uzilsa ham ko'ngil uzilmas”, “Shunqor qiyasin sog'inar, to'rg'ay uyasini”, “Oyodan yorug' narsa yo'q qora bulut bo'lmasa, odamdan g'arib narsa yo'q qaytib yurtin topmasa”, “Vafosizga vatan yo'q” kabi maqollarda unib o'sgan yurti noshukurchilik qilib tashlab ketish juda yomon va xunuk oqibatlarga olib borishi ta'kidlanadi.

Bu haqda bobokalon shoirimiz A.Navoiy shunday yozganlar:

Vatan tarkini bir nafas aylama,

Yana ranji g'urbat havas aylama.

Chunki vatandan tashqarida buxt yo'q, begona yurt hyech qachon vatan bo'lolmaydi. O'z vatanini tashlab ketishga majbur bo'lgan va chet ellarda yashashgan majbur bo'lgan zahiriddin Muhammad Bobur o'z vatanini cheksiz sevgan, o'z xalqiga chuqur hurmat bilan qaragan vatanparvar shoirdir. Uning vatan muhabbatini kuylashga bag'ishlangan chiroyli ruboiylari bor.

Tole yo'qi jonimga balolig bo'ldi,

Har ishni ayladim xatolig' bo'ldi,

O'z yurti qo'yib hind siri yuzlandim,

Yorab netayin ne yuz qaroliq bo'ldi.

U chet elda bo'lsa ham o'z ona yurtidan bir dam bo'lsa –da ko'nglini uzolmadi, ona vatanini qo'rsab azob chekdi:

Ko'pdin berikim yoru diyorim yo'qdir,

Bir lahzai bir nafas qarorim yo'qtir.

Boshqa o'rinda:

Yod etmas ermish kishini g'urbatda kishi.

Shod etmas emish ko'nglini jannatda kishi.

Ko'nglum bu g'ariblikda, shod o'lmadi oh,

G'urbatda sevinmas emish albatta kishi,

deb o'z taqdiridan noliydi.

Haqiqiy vatanparvarlik vatan manfaati yo'lida kerak bo'lsa hatto qurbon bo'lishga ham tayyor turishda namoyon bo'ladi. Chunki o'zingni vatanga qanchalar yaqin his etsang, uni shu qadar vujud kabi aniqroq va sevibroq tasavvur qilasan. O'z ota –onasi, o'z ona tuprog'i, qishlog'i, o'z millati va xalqi, o'z tarixi, madaniyatini sevmagan kimsa qanday qilib begonalarni sevolisin, qanday qilib bunday shaxsdan tom ma'nodagi baynalmilalchi chiqsin?

O'zbekiston xalq shoiri Erkin Vohidov o'zining "O'zbekim" qasidasida ona vatanni chiroyli ta'riflagan:

Tarxingdir ming asrlar ichra pinhon o'zbekim,
Senga tangdur Pomiru oqsoch Tyanshon o'zbekim,
So'ylasin Afrosiyobu so'ylasun O'rxun xati,
Ko'hna tarix shodasida bitta marjon o'zbekim.
Men buyuk yurt o'g'lidurman, men bashar farzandiman,
Lekin avval senga bo'lgum sodiq o'g'lon o'zbekim.

Tarixiy obidalarga, bolalar ruhi ufurib turgan asori –atiqalarga hurmat ila munosabatda bo'lish tarixga bo'lgan hurmat, ehtiromning bir qirrasidir. Unut bo'lgan tariximizni tiklash, payhon bo'lgan zaminimizni poklash, kelajak avlodga ajdodlarimizdan qolgan merosimizni eson –omon yetkazish –har bir insonning, vatanparvar, xalqparvar, tarixiparvar insonlarning ham qarz, ham farzidir.

Vatanparvarlik tuyg'usi, tarbiyasi ota –onaga, o'z mahalla, qishlog'iga, nohiya, shahar, viloyat va jumhuriyatiga bo'lgan cheksiz muhabbatdan, uning tarixi va madaniyatiga bo'lgan mislsiz va tengsiz hurmat va sadoqatdan boshlanadi.

Vatan tuyg'usi kichkina odam ko'z o'ngida ko'rayotgan narsadan qoyil qolishidan, uni hayratlantiradigan va qalbida aks –sado beradigan narsalardan boshlanadi.

Kattalarning vazifasi –bola oladigan ko'plab taassurotlardan unga eng tushunarli bo'lganlarini: eng yaqin kishilari, jonajon o'lka tabiati va hayvonot dunyosi, kishilarning xalq farovonligi, vatanning gullab –yashnashi yo'lidagi mehnati, o'rtoqlik, o'zaro yordam va boshqalarni tanlab berishdan iboratdir.

Xo'sh, maktabgacha tarbiya yoshidagi bolaning tushunchasiga nima ko'proq mos keladi va nima uni qiziqtirishi va hayajonlantirishi mumkin?

Dastavval, bu u tug'ilgan va yashayotgan joylardir. Jona-jon ona tabiat vatanga muhabbatni tarbiyalashning kuchli omillaridan hisoblanadi. Uning go'zalligi bilan zavqlanish. Tabiat dunyosiga ehtiyokorona munosabatda bo'lishdan, inson mehnatining tabiatdagi o'zgartiruvchilik rolini tushunishigacha –bularning hammasi jonajon o'lkaga muhabbatni shakllantirishning manbalaridir. Bolalaikda jonajon tabiat haqida hosil qilingan yorqin taassurotlar inson xotirasida bir umrga saqlanib qoladi, chunki uning obrazlarida vatan o'z ifodasini topgan bo'ladi. Odam vatanga bo'lgan muhabbatini o'zi tug'ilgan va o'sgan oilasi, bolalar bog'chasi va maktabi, bolalar bilan o'ynagan o'yinlari va joylari bilan bog'laydi.

Vatanga muhabbatni tarbiyalash. Vatanga muhabbat –eng chuqur ijtimoiy hislardan biridir. Bizning davlatimizda Vatanga muhabbat hissi baynalmilalchilik hissi bilan uyg'unlashib ketadi. Vatanga muhabbat hissi maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarda kattalar tomonidan bolalarning ruhiy taraqqiyotini va ular

tafakkurining aniq va obrazliligini e'tiborga olgan holda ma'lum izchillik bilan tarbiyalab boriladi. Shuning uchun bu yoshdagi bolalarda vatanga muhabbat hissini ularga yaqin va tanish bo'lgan aniq faktlar, yorqin misollar orqali tarbiyalab boriladi. Tarbiyachilar bolalarda o'z oilasiga, uyiga, bolalar bog'chasiga va bolalarni o'rab turgan tevarak –atrofga mehr –muhabbatni va ularga sodiq bo'lishni tarbiyalayotib, eng muhim ijtimoiy his bo'lgan vatanga muhabbatni tarbiyalab boradi.

Kichik bog'cha yoshidagi bolalar tevarak –atrofdagi voqyea, hodisalarning faqat tashqi belgilarini anglab oladilar. Ular Hayit, Navro'z bayramini hamma kishilar shodiyonalik, bilan kutib olishalirni ko'radilar, bundan juda zavqlanadilar, ammo buning saboblari, natijalari bilan qiziqmaydilar. Ammo bu yoshdagi bolalar tevarak –atrofdagi kishilar mehnati, ularning bolalarga ko'rsatayotgan g'amxo'rliklari bilan kattalar tanishtirib borsalar, aniq misollar orqali tushuntirsalar, ayni muddao bo'ladi.

O'rta guruh bolalari ijtimoiy hayot voqyealari bo'lgan kattalarning qishloq xo'jaligidagi, fabrikadagi, zavoddagi mehnatini, ular ko'pchilik manfaatini ko'zlab ishlayotganligi, shahar va qishloqlarni obod qilayotganligi, maishiy va uy –joy binolarini qurayotganligini tushunadigan bo'lib qoladilar.

Katta guruh bolalari esa bizning jumhuriyatimizda har xil millat vakillari birga yashaydi degan haqiqatni ham tushunib oladilar.

Kichkina guruhda vatanga muhabbat hissi o'z uyiga, bog'chasiga, tarbiyachiga muhabbatni tarbiyalashdan boshlanadi. Bolalar ota –onalari va pedagoglar ularga qanday g'amxo'rlik qilayotganini ko'radilar va his etadilar, natijada bolalarda ularga bo'lgan muhabbat yanada ortadi, ularning g'amxo'rligi va himoyasiga ishonch hosil qiladilar.

O'rta guruhda bolalar endi kengroq doiradagi kishilar bilan munosabatda bo'la boshlaydilar. Ular ota –onalari va tarbiyachilardan o'z shahri, qishlog'i to'g'risida ko'p narsani bilib oladilar.

Vazifa kishilarga bo'lgan muhabbat va mehribonlik tuyg'ularini ancha anglangan va ta'sirchan qilishdan iboratdir. Shu maqsadda tarbiyachi suhbatlardan, badiiy adabiyotlardan foydalanadi, rasmlar ko'rsatadi, ekskursiyalar uyushtiradi.

Bolaning o'ziga xos xususiyatini e'tiborga olish, uning axloqiy tasavvurlari bilan konkret xatti –harakati o'rtasida qarama –qarshilik bo'lishi mumkinligini nazarda tutib, kishilarga nisbatan chinakam muhabbatni tarbiyalash uchun ularga yordam berish istagini (dasturxon yozib, stol tuzash, idish –tovoqlarni yuvishga yordam berish va shunga o'xshashlar) uyg'otishga alohida e'tibor berish kerak.

Katta guruh bolalariga uyda onalariga, buvilariga va otalariga yordam berish topshiriladi. Butun guruh bolalari bilan ular oilada kattalarga qanday yordam berganliklari to'g'risida suhbatlashiladi.

Onaga hurmat va muhabbatni tarbiyalashda 8 mart bayramini uyushtirish yaxshi yordam beradi. Bu kuni bolalar va tarbiyachilar she'rlar o'qiydilar, ashulalar ijro tishadi, onalari haqida hikoya qilib berishadi.

Bayramga tayyorgarlik davrida onalari, ularning mehnati, oiladagi g'amxo'rligi haqida suhbat o'tkaziladi. “Onaga sovg'a” rasmi ko'riladi, ona va buvilarga sovg'alar tayyorlanadi.

Tarbiyachi ota –onalarga muhabbatni tarbiyalashda badiiy adabiyotdan ham keng foydalanadi.

Tayyorlov guruhidagi bolalar bilan olib boriladigan suhbatlarda ona mehnat qilib, faqat o'z oilasigagina emas, jamiyat uchun ham foyda keltirish ta'kidlanadi. Maktab temir yo'l stansiyasi, tikuvchilik ustaxonasi, pochta, kutubxonaga ekskursiyalar uyushtiriladi.

Ekskursiyalarda onalarning qanday ishlayotganlari ko'rsatiladi. Ekskursiyadan keyin "Onalar qanday ishlaydilar" degan mavzuda suhbat o'tkaziladi.

Oilaga, bog'chaga, yaqin kishilarga mehr –muhabbat hissi asta –sekin kengayib, bolalarning tug'ilgan shahri, qishlog'i, jonajon tabiatga bo'lgan mehri bilan qo'shilib ketadi va murakkablashib boradi.

Tarbiyachi bolalarga jonajon shahar, qishloqdagi eng chiroyli ko'chalarni, maydonlarni, binolarni, bog'larni ko'rsatadi. Ko'chalar, maydonlar, hiyobonlarning nomi shahar yoki qishloqning tarjiman holini, halqning o'tmishini anglatishini tushuntiradi. Bu nomlar buyuk olimlar, sarkardalar, yozuvchilar, xalq e'zolagan boshqa kishilar sharafiga qo'yilganini tushuntiradi.

Pedagog kichik guruhdan boshlab bolalarda jonajon o'lka tabiatiga muhabbat o'yg'otishi, uning go'zalligini his etish paytirish istagini uyg'otib borishi lozim. Buning uchun u bolalar bilan bog'larga, polizga, issiqxonalarga, paxta dalasiga, gulzorga, daryoga, pillaxonalarga, tovuqxona, fermalarga sayr – ekskursiyalar uyushtiradi.

U o'zbek va boshqa millat yozuvchi –shoirlarining tabiat haqidagi she'r va qo'shiqlaridan, buyuk rassomlarning rasmlaridan foydalanadi. Tarbiyachi bolalarni jumhuriyatimizning boshqa nohiya va qishloqlari, shaharlari, undagi ijtimoiy hayot bilan tanishtiradi. Bolalar kitob, hikoya, kinofilmlardan benoyon vatanimiz xalqlari, ularning hayoti va mehnati, o'lkamiz boyliklari to'g'risida tasavvurga ega bo'ladilar.

Tarbiyachi "Vatan", "Bizning shahar", "O'zbekistonning poytaxti – Toshkent", "Qishlog'imizning eng yaxshi kishilari", "shahrimizning eng yaxshi kishilari" va shunga o'xshash mavzular bo'yicha kitob va rasmlar tanlaydi, turli albomlar, papkalar tayyorlab, bolalar bilan olib boradigan ta'lim –tarbiyaviy ishida foydalanadi.

Har bir davrda yuz beradigan voqyea –hodisalar bolalarga bevosita va bovosita ta'sir etadi. Bunday voqyea –hodisalar to'g'risida tarbiyachining bolalarga mohirona hikoya qilib berishi vatanparvarlikni tarbiyalashda muhim vosita bo'lib xizmat qiladi.

Baynalmilal tarbiya. Bizning respublikamiz o'z mohiyati bilan baynalmilaldir. Shuning uchun maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarda baynalmilalchilik, xalqlar do'stligi hislarini tarbiyalab borish muhim ahamiyatga egadir.

Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarni baynalmilalchilik ruhida tarbiyalash asosida boshqa millat va xalqlarga ijobiy munosabat va do'stona his – tuyg'ular uyg'otish, turli xalqlar hayotiga qiziqish hissini paydo qilish maqsadi

yotadi. Bunday his –tuyg’ularni rivojlantirish asosan taqlid qilish orqali mukammallashib boradi.

Guruhda baynalmilalchilik tuyg’ularning shakllanishini ta’minlovchi ijobiy muhit yuzaga keltirilishi lozim. Bu bolalarning ezgu hislarini, jamoatchilik munosabatini, insonparvarlikni, birovlariga beminnat xizmat qilishni ta’minlash sharoitida o’tadi.

Bolalarni u yoki bu jumhuriyat bilan tanishtirishni har bir jumhuriyatning o’ziga xos tomonlarini, ya’ni odamlarining mehnati, ularning tashqi ko’rinishlari, madaniyati va tabiatini eslab qolishlarini ta’minlaydigan qilib tashkil etish lozim.

Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarni baynalmilalchilik his –tuyg’ulari asosini shakllantirishda avvaligi ayrim jumhuriyatlarda yashaydigan har bir millat vakillari bilan uchrashuvlar o’tkazish; ular bilan yozishmalar olib borish; maxsus mashg’ulotlarda ularning urf –odatlari, madaniyati, san’ati, tabiati to’g’risidagi adabiyotlarni o’qib berish, suhbat o’tkazish, rasmlarni ko’rsatish, diafilmlar namoyish qilish, millat bolalari hayoti to’g’risidagi, turli millat kishilarining mehnati va turmushi haqidagi hikoyalardan o’qib berish foydali bo’ladi.

Mashg’ulotlarni jumhuriyatlarni bir –biriga qiyoslagan holda olib borish maqsadga muvofiqdir. Masalan, bolalar Qozog’iston dehqonlari ko’proq g’alla yetishtirishlarini, belorussiyalik dehqonlar esa zig’ir, o’zbekistonlik dehqonlar esa paxta va turli mevalar yetishtirishlarini bilib oladilar.

Bolalar o’z jumhuriyatlari to’g’risidagi ko’p narsalarni kuzatish, ekskursiyalar o’tkazish, sayrlarga chiqish orqali hamda badiiy asarlar orqali ham bilib oladilar. Tarbiyachi yil davomida bunday asarlar, hikoyalarni o’qib, so’zlab berib boradi, she’rlarni yodlatadi.

Musiqadan foydalanish ham yaxshi samara beradi. Musiqa tinglash jarayonida kishi qalbida uyg’onadigan his –tuyg’ular bolalarda o’z xalqining milliy madaniyatiga qiziqish uyg’otadi.

Bolalarda baynalmilalchilik hissini tarbiyalashda milliy qo’g’irchoqlar katta o’rni egallaydi.

XULOSA.

Xulosa qilib aytganda maktabgacha yoshdagi bolalarda insonparvarlik hissini tarbiyalash, insoniylikka xos ijobiy sifatlarini tarkib toptirish, yasab turgan ona yurtiga mehr muhabbatni tarbiyalash har bir pedagog uchun eng asosiy vazifalardandir..

Nazorat savol va topshiriqlari:

1.Maktabgacha yoshdagi bolalarda insonparvarlik hissini tarbiyalash to’g’risida o’zingizning shxsiy fikringizni bildiring?

2.Bolalar xarakterida ahloqiy sifatlarini tarbiyalash usullari to’g’risida ma’lumot bering?

3.Vatanga muhabbatni tarbiyalash va baynalmilalchilik tarbiyasi deganda nimani bilasiz?

4.Bolalarni ahloqiy tarbiyalashda oilaning o’rni va oila, bog’cha, mahalla hamkorligixususida fikringiz?

Mustaqil ish topshiriqlari:

1.Oilada bolalarni ahloqiy tarbiyalash.

2. Maktabgacha tarbiya yoshdagi bolalarni ahloqiy tarbiyalashda xalq ijodi vositalaridan foydalanish.

3. Sharq va g’arb mutafakkirlarining ahloqiy tarbiya haqidagi qarashlari.

Adabiyotlar:

1. V. I. Loginova va P.G. Samorukovalar tahriri ostida "Maktabgacha tarbiya pedagogikasi". Toshkent "O'qituvchi" nashriyoti. 1992 yil.
2. R. Mavlonova va boshkalar. Pedagogika. -T., «O'qituvchi», 2002.
3. B. Ziyamuxdmedov va b. Pedagogika. -T., 2000.
4. P. Yusupova. Maktabgacha ta'lim pedagogikasi. -T., 1993.
5. S.A. Kozlova, T.A. Kulikova. Doshkolnaya pedagogika. -M., 2000
6. O'zbekiston Respublikasi maktabgacha tarbiya Kontsepsiyasi. Toshkent 1992 y.
7. Maktabgacha tarbiya muassasasi to'g'risidagi nizomi-1995y.
8. Sh. Shodmonova, «Maktabgacha ta'lim pedagogikasi» Toshkent-2003

7. MAVZU: NIKOH OLDI OMILLARI VA ULARNING NIKOH MUSTAXKAMLIGIGA TA'SIRI.

Dars o'quv maqsadi: Talabalarga nikoh oldi omillari va ularning nikoh mustaxkamligiga ta'siri

Tushunchalar va tayanch iboralar: jismoniy (fiziologik), jinsiy, huquqiy, iqtisodiy, ma'naviy-axloqiy, o'rtacha me'yor, ma'lum bir shartli "o'lchov birligi", ko'rsatkichlar, jinsiy, fuqarolik, kas-xunar, ijtimoiy-iqtisodiy, ma'naviy, ahloqiy va psixologik

Asosiy savollar:

1. Nikohning yosh va yetuklik xususiyatlari.
2. Nikoh mativlarining xususiyatlari.
3. Bo'lajak er-xotinlarning tanishish shartlari.
4. Oilaviy hayot haqidagi tasavvurlar.

Asosiy o'quv materialini qisqacha bayoni

Nikohga yetuklik tushunchasi ham o'z navbatida o'ta murakkab va nisbiy tushunchadir. Chunki odam doimo rivojlanib, takomillashib boruvchi, kasb-hunar faoliyatida yoki ma'naviy ahloqiy rivojlanishida muntazam yangidan-yangi cho'qqilarga erishib boruvchi mavjudotdir. Agar odamni u yoki bu faoliyatga "to'la yetukligi" haqida gapiradigan bo'linsa, demak bu uning ma'lum bir chegaraga erishgani va undan ortiq rivojlanish mumkin emasligini bildiradi. Shuning uchun har odamning nikohga yoki biron-bir faoliyatga yetukligi haqida gapirilganda "etukligi", ayniqsa nikohga, oilaviy hayotga "etukligi" haqida gapirilganda bu tushunchadan ma'lum bir umum-qabulqilingan standart, o'rtacha me'yor, ma'lum bir shartli "o'lchov birligi", ko'rsatkichlar va shu kabilar sifatidagina foydalaniladi. Shu nuqtai-nazardan olinganda "etuklik"-rivojlanishning ma'lum bir bosqich, fazasi, chegarasiga yetilganlikning sifatiiy va miqdoriy xarakteristikasini ma'lum bir aniqlikda belgilab beruvchi ko'rsatkich bo'lib xizmat qiladi. Odamning nikohga, oilaviy hayotga yetukligi masalasi esa o'ta murakkab biron-bir qat'iy me'yor bilan o'lchab bo'linmaydigan individual xarakterga ega bo'lgan ko'rsatkichdir.

Hozirgi zamon oilasining ijtimoiy psixologik muammolarini yoritishga bag'ishlangan psixologik adabiyotlarda nikoh oldi omillarining turlicha shakllari, ko'rinishlari farqlanadi. Qo'yida sizning e'tiboringizga ularning ayrimlari haqidagi ma'lumotlarni xavola etamiz.

Nikoh oldi olimlari qatoriga shu oila qurayotgan yoshlarning: oilaviy hayotga yetukligi: ularning oila qurish motivlari; ularning oila qurishlariga qadar bir-birlarini tanish muddati (qancha vaqt bir-birini tanishi) shartlari va sharoitlari; ularni o'zlarining bo'lg'usi oilaviy hayotlari haqidagi tasavvurlari kabilarni kiritish mumkin. Albatta bu omillarning har biri turli yoshlarda turlicha xarakterda bo'lishi mumkin, shu bilan birga ularning har biri o'z navbatida chna bir necha turlarga farqlanadi.

Masalan; nikohga yetuklik deyilganda oila quruvchi yoshlarning: jismoniy (fiziologik), jinsiy, huquqiy, iqtisodiy, ma'naviy-axloqiy, psixologik kabi yetuklik jihatlarini farqlash mumkin. Bularning orasida huquqiy, jinsiy yetuklik ko'rsatkichlari yetarlicha aniq alomatlariga, belgilarga esa bo'lgan va bular haqida tegishli huquqiy, tibbiy, psixologik adabiyotlarda ko'plab ma'lumotlar berilgan jihatlar bo'lsa, iqtisodiy, ma'naviy-ahloqiy, psixologik jihatlar bir oz murakkabroq, qat'iy bir ko'rsatkich, chegaraga ega emasligi bilan xarakterlanadi.

Masalan, odamlarning jinsiy yetukligi o'ziga xos omillarga ega. Klinik kuzatishlar ma'lumotlarga ko'ra, hozirgi zamon qizlarida jinsiy yetuklik (balog'atga yetish) 12-14 yoshgacha, o'g'il bolalarda esa 14-16 yoshga to'g'ri keladi. Albatta, bu yetuklik ba'zi bir bolalarda ertaroq, boshqa birlarida kechroq ro'y berishi mumkin.

Jinsiy maylning, jinsiy ehtiyojning yuzaga kelishi odamni biologik rivojlana boshlashining o'ziga xos bosqichidir. Ular bola rihiyatining rivojlanishiga, uni shaxsining shakillanishiga, hayot faoliyatining boshqa jihatlariga katta ta'sir ko'rsatadi.

Yoshlarni nikohga jinsiy yetuklik masalasidan tashqari yuqorida keltirib o'tilganidek yana bir nechta ijtimoiy yetuklik turlarini farqlash mumkin. Bular jinsiy, fuqarolik, kas-xunar, ijtimoiy-iqtisodiy, ma'naviy, ahloqiy va psixologik yetukliklardir.

Fuqarolik huquqiy yetuklik bu odamning huquqiy jihatdan balog'atga yetish yoshi bilan, u huquqiy jihatdan oila qurish, farzand ko'rish huquqiga ega bo'lgan shaxs bo'lib hisoblanishi bilan belgilanadi. Bizning mamlakatimizda bu 18 yosh deb ko'rsatilgan. Bu vaqtida u Konstituttsiyada belgilangan barcha huquq va majburiyatlardan foydalangan oladigan bo'ladi. 18 yoshni shaxsning huquqiy yetuklik yoshi deb hisoblash mumkin.

Kasb – hunar yetukligi – bu ham ancha murakkab tushunchadir. Uning murakkabligi shundanki, bir tomondan u kandaydir bilim yurtini, o'quv kurslarini bitirish, ya'ni ma'lum bir ish turini bajarish uchun zarur bo'lgan maxsus bilimlarga ega bo'lish bilan belgilanadi.

Shaxsni yetukligining yana bir jihati ijtimoiy-iqtisodiy yetuklikdir. Bundan odamning o'zini va o'z oilasini moddiy jihatdan mustaqil ta'minlay ola bilishi nazarda tutiladi. Yoshlarni oila qurishlarida, ularning iqtisodiy mustaqilligi alohida ahamiyatga ega. Bu o'rinda ham turlicha yosh chegaralari mavjud, yoshlarning ayrimlari 18-19 yoshidayoq ota-onasi oilasidan iqtisodiy mustaqillikka erishishi mumkin, boshqalari esa 25-30 yoshlarida hali ota-onalarining moddiy yordamidan foydalanadilar.

Bu yetuklik jihatlar orasida shaxsning ma'naviy va axloqiy yetukligi haqida gapirish eng murakkabidir. Chunki bu jihat haqida aniq bir mezon va tavsif hozircha ishlab chiqarilmagan.

Gap shaxsning psixologik yetukligi haqida borgudek bo'lsa bunda dastavval uning turli hayotiy vaziyatlar va sharoitlarni hushyor baxolash olishi nazarda tutiladi. Bu hushyorlik amaliylik voqealikni to'g'ri baholay olish shaxsan o'zining yutuq va kamchiliklarini bilim malaka va kobiliyatlarini yetarlicha ob'ektiv baholay olishda namoyon bo'lishi kerak. Psixologik yetuklik boshqa odamlarning xoxish istaklari, kechikmalarini tushunish bilan ma'lum darajada bog'liq. Bu o'z navbatida muloqotning hamkorlikning yaxshi yo'lga quyilishga oilali turli guruhlarda gormonik munosabatlarning o'rganilishiga imkon beradi.

Turli yoshli mansab lavozim toifadagi odamlar bilaen qiziqish odati ta'bi turmush tarzi mutlaqo boshqacha bo'lgan odamlar bilan o'rinli munosabatda bo'la olish-shaxsning psixologik yetukligining asosiy xususiyatlaridan biridir.

Psixologik yetuklik shaxs xulqini turli yashash sharoitlariga moslashuvchanligida ifodalanadi. Psixologik yetuklik shaxsning boshqa odamlarga nisbatan bo'lgan ijobiy munosabatlari hamdardlik hamfikrlik g'am-tashvishga sherik bo'la olish o'zaro yordam kabilar tarzida namoyon bo'la oladigan ma'naviy sifatlarning tarkibiy jihatlarini o'zida biriktiradi. Psixologik yetuklikning muhim mezonlaridan biri shaxsda oilaviy muammolarni adolatli hal etishga xizmat qiluvchi o'z musmusataqil fikri qarashi poziuiyasining bo'lishi zarur bo'lganda oila manfaatida o'z qarashlarini ota-onalar oldida himoya qila olishidir.

Nikoh yoshi xususiyatlari.

Demografik nuqtai-nazardan olinganda oila kurish deganda ma'lum bir kishilarning emas balki butun bir avlodning oila qo'rishi nazarda tutiladi. Bu o'rinda to'liq ishonch bilan aytish mumkinki avlod yosh jihatdan qanchalik katta bo'lsa (uning yoshi qanchalik yuqori bo'lsa) u biz ko'rib chiqayotgan jihatlarining har biri bo'yicha ko'proq yetuk bo'ladi. 20-24 yoshdagi guruh 20 yoshdan kichik bo'lgan avlodga qaraganda ko'proq hayotiy tajribaga ega bo'ladi.

Birinchi avlod vakillarida ijtimoiy iqtisodiy yetuklik darajasi yuqoriroq bo'ladi chunki aynan shu yoshda ko'pchilik yoshlar o'rta yoki oliy yurtlarini tomomlagan u yoki bu kasb hunar egallagan bo'ladilar. 25-29 yoshlarda esa 20-24 yoshdagilarga qaraganda ijtimoiy-iqtisodiy va kasb-hunar yetukligi bo'yicha yanada yuqoriroq darajaga ega bo'ladilar.

Chunki hech kimga sir emaski bugungi kunda yoshlarning kattalashuvi voyaga yetishi juda jadal amalga oshmoqda. Yuqoridagicha guruhiga kirgan 20 va 24 yoshlilarning yetukligi sifat jihatidan turli darajaga egadirlar 25 va 29 yoshdagilar haqida ham xuddu shunday deyish mumkin 29 yoshga kelib kasb-hunar yetukligi nihoyasiga yetadi va bu davrga kelib aksariyat yoshlar oila qurib bo'lgan va xatto farzandli bo'lishga ham ulgurishadi.

Turli mamlakatlarda urf-odatlar va milliy an'analarga bog'liq ravishda erkak va ayollarning turlicha minimal nikoh yoshi belgilangan. Masalan erkaklar uchun u 14 yoshda (Irlandiya, Ispaniya va Lotin Amerikasidagi ayrim davlatlarida) 21 yoshgacha (Polsha, Avstriya, Germaniya va ayrim Skandinaviya) davlatlarida

bo'ladigan davr orasiga to'g'ri keladi. Ayollar uchun minimal yosh odatda yoki erkaklar bilan teng deb yoki ularda bir necha yosh kichik deb belgilanadi.

Keltirib o'tilgan ushbu nikoh oldi omillari bilan bir qatorda nikoh mustaxkamligida hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'lgan omillardan yana biri-oilaning yuzaga kelishiga asos bo'lgan nikoh qurish motivlari va ularning o'ziga xos xususiyatlaridir.

Nikoh motivlarining xususiyatlari.

Nikoh oldi omillaridan yana biri-shu nikoh qurishiga asos bo'lgan nikoh motivlaridir. "Motiv" iborasi psixologiyada ma'lum bir xulq faoliyatning yuzaga kelishiga asos bo'lgan kuch, turtki, manba, asosni bildiradi. Xush oilalar qanday motivlar tufayli yuzaga kelishi mumkin. Psixologik adabiyotlarda bir necha o'nlab nikoh motivlari farqlanadi. Lekin ular umumlashtirgan xolda uchta klassifikatsiyaga farqlanadi. Bular sevgi tufayli oila qurish ya'ni yoshlar oila qurishdan avval bir-birlarini sevib ma'lum bir muddat sevib-sevishib yurganlaridan so'ng shu o'zaro sevgining mahsuli sifatida bir-birlarining visoliga to'y qilib oila qo'rib yetishadilar. Motivlarning ikkinchi klassifikatsiyasi moddiy yoki o'zga manfaatdorlik tufayli oila qurish. Bundan yoshlar oila qurar ekanlar nimanidir hisobga olgan holda ma'lum bir maqsadni ko'zlab oila qurishlari mumkin masalan boylikni mansabni moddiy yoki ijtimoiy manfaatdorlikni ko'zlagan holda "Agar shu yigitga turmushga chisam boy-badavlat yashayman yoki Shu qizga uylansam uning mansab mavqega erishaman – degan fikrlar asosida o'zining ijtimoiy-iqtisodiy ahvolidan kutulish yolg'izlikdan qutulish va boshqalar".

Nikoh motivlar klassifikatsiyasidan yana biri stereotik bo'yicha oila qurish deb ataladi. Bu toifa yoshlarda oldingi motivlarning ikkalasi ham kuzatilmasligi mumkin. Ular oila qurar ekanlar stereotiplarga qaraydilar. Bunday yoshlardan nima uchun oila qurganliklari so'ralsa, odatda "Hamma tengdoshlarim uylanayotgandi, men ham uylandim!" yoki "Hamma dugonalarim turmushga chiqayotgandi, men ham turmushga chiqdim!" qaqabilida javob berdilar.

Xo'sh, shu sanab o'tilgan uchala motiv: sevgi, moddiy yoki o'zga manfaatdorlik tufayli, stereotip bo'yicha qurilgan oilalarning qay biri mustaxkamroq bo'ladi, ya'ni qaysi motiv nikoh oila mustaxkamligini kuchlaroq ta'minlaydi?

Albatta, bu savolga yoshlarning aksariyati, birinchi motivni, ya'ni sevgi motivini tanlab javob berishadi. Chunki ular tufayli oila qurish nikoh mustaxkamligini ta'minlovchi eng ishonchli, mustaxkam poydevor deb hisoblaydilar. Haqiqatan ham, sevgining oila mustaxkamligidagi o'rni beqiyosdir. Haqiqatdan ham, sevgi-bu o'rta qudratli kuchdir. U tufayli inson nimalarga qodir emas?! Insoniyat o'z taraqqiyotida erishgan eng yuksak cho'qilar ham sevgi tufaylidir. Z.Freyd ta'kidlanganidek: "Sevgi-bu insoniyatni hayvonot olamidan sug'urib olgan kuchdir!" Inson yaratgan buyuk mo'jizalarning barchasi sevgi tufaylidir.

Bu aytilganlardan ko'rinib turibdiki sevgi tufayli oila qurish baxti va mustaxkam nikohning asosini ta'minlaydi.

Albatta, sevishib turmush qurgan juftlarning aksariyati eng baxtli oilaviy hayot kechiradilar. Lekin statistik ma'lumotlariga qaraganda, oilalar ajralishining

ko'pchilik qismi ham xuddi shu sevishib oila qurgan juftlarga to'g'ri kelar ekan. Xo'sh, nega endi sevishib oila qurgan juftlar oilaviy hayotlarida hamma vaqt ham baxtli bo'lavermaydilar? Nega kechagina bir-birlarini sevib, bir-birlarsiz yaashay olmasligiga to'la amin bo'lgan yoshlar bugun nikohlarini bekor qilish haqida sudga ariza beryaptilar? Ularning sevgisiga nima bo'ldi? Sevgi-o'zi nima? U bor narsami yoki yo'qmi? Bu o'rinda haqli ravishda "Sevgi oilaviy hayotning mustaxkam bo'lishiga yordam beradimi yoki xalaqit qiladimi?" degan savol tug'iladi. Agar sevishganlar oila qurganlaridan keyin murod-maqsadimga erishdim deb sevgisini ximoya qilishni uni parvarish qilishni unutsa uning uchun qurashmasa qarovsiz qolgan har bir nozik nihol nobud bo'lganidek eng nozik tuyg'u bo'lgan sevgi ham nobud bo'ladi. Novbatdagi motiv moddiy yoki o'zga manfaat tufayli oila qurishdir. Bu motivning oila mustaxkamligiga ta'siri uning keyinchalik qay darajada amalga oshirilishiga bog'liq. Oila qurishdan oldin yoshlarning hisobga olgan ko'zda tutgan narsalarining hammasi ro'yobga chiqaversa bu motiv ma'lum darajada nikoh mustaxkamligi ta'minlashga xizmat qilish mumkin. Afsuski oilaviy hayotda hamma narsa ham yoshlar kutgandek bo'lavermaydi. Bu o'rinda L.N.Tolstatning, badiiy asarlarda romanlarda kinolarda syujet voqealar rivojlanib-rivojlanib borib oxirida hammasi to'y bilan yaxshilik bilan tugaydi. Hayotda esa aksincha hamma narsa to'ydan keyin boshlanadi degan fikrini ta'kidlash maqsadga muvofiq. Shuning uchun ham oilaviy hayotda kutilgan hisobga olingan narsalarga hamma vaqt ham erishib bo'lavermaydi. Nimanidir hisobga olib oila qurgan yoshlarning oilaviy hayotiga olganlari amalga oshmay qolgundek bo'lsa unda ularning oilaviy hayoti g'urbatga turgan-bitgani azobga nizo-janjalga aylanadi. Ular uchun bunday oilada yashagandan ko'ra yashamagan afzal ko'rinadi. Bu ham oxir-oqibat oilalarning inqiroziga va xisob poydevori ustiga qurilgan imoratning qulashiga olib keladi.

Statistik ma'lumotlarga ko'ra yuridik jihatdan eng mustaxkam turg'un oilalar stereotik bo'yicha oila qurgan juftlarga to'g'ri kelar ekan. Bunday oilalarda ajralishlar miqdori oldingi ikki motiv asosida qurilgan oilalarga qaraganda juda kam ko'rsatkichni tashkil qiladi. Chunki ular hamma qatori oila qurishgan. Qarashsa-ki hamma binoyidek yashayapti bular ham yashayverishadi. Bu motiv asosida qurilgan oiladagi er-xotinlar o'ta baxtli ham o'ta baxtsiz ham bilmaydilar.

Lekin birgalikdagi hayot tufayli er-xotin o'rtasida bir-biriga nisbatan mehr-oqibat yuzaga kelib ular rivojlanib yuqorida aytganimizdek sevgi-muxabbat darajasiga o'sib yetishi ham mumkin. Bunday holatlar shubhasiz bu toifa oilalarni nafaqat rasmiy yuridik jihatdan balki emouional psixologik jihatdan ham turg'un bo'lishining ta'minlashi mumkin. Endi yuqorida berilgan savolni yana takrorlasak qanday motiv asosida oila qurgan ma'qul? Sevishibmi? Moddiy yoki o'zga manfaat asosidasi? Stereotik bo'yichami? Bu o'rinda yoshlarimiz endi bir oz o'ylanib qolishlari mumkin. Sevgi tufayli deyilsa uning ham o'ziga yarasha mashaqqatlari bor. Moddiy yoki o'zga manfaat tufayli oila qurishning oqibatlari ma'lum. Stereotip bo'yichami? Unda ehtiros jushqinlik yetishmayaptiku? Yoshlik g'ururi jushqinlik buni qabul qila olmaydi.

Bo'lajak er-xotinlarning tanishish shatlari.

Nikoh oldi omillarining xarakterlilaridan yana biri yoshlarning tanishish shartlaridir. Ular ham o'z navbatida turli-tumanlikka ega. Kimdir o'qish ish joyida, kimdir o'zi, kimdir biror-bir o'rtog'i bilan, dugonasi, qarindoshi, kimdir sovchilar yordamida kimdir ko'chada jamoatchilik joylarida transportda turli marosimlar to'ylar kechalar o'tirishlar va hokazo. Shart-sharoitlarga ko'ra tanishishlari mumkin. Albatta bularning hammasida shu yoshlarning individual xususiyatlar ma'naviy-axloqiy jihatlari madaniyati tarbiyasi shu yoshlar yashagan xudud undagi milliy urf-odatlar, an'analar etnik xususiyatlar muhim ahamiyatga egadir. O'zbek oilasining etnik xususiyatlaridan kelib chiqqan holda yosh oilaning yuzaga kelishi shartlari orasida keng tarqalganlaridan biri sovchilik tufayli oilalarning yuzaga kelishidir. Chunki bizda deyarli barcha oilalarning yuzaga kelishi yigit tomonidan kelinnikiga sovchilar borishi bilan boshlanadi. Bundan yoshlar bir-birlarini oldindan bilishlari sevishlari shunchaki uchrashib qolishi yoki sovchilar orqali qidirib kelin topishidan qat'iy nazar albatta kelinnikiga sovchilar borishi nikohning yuzaga kelishidagi etnik shart rasm-rusum urf-odatlardan biri hisoblanadi. Bularning barchasini nikoh mustaxkamligida o'ziga xos o'rni bor. Agar yoshlar o'zlari sovchilar yordamisiz bir-birlari bilan tanishgan bir-birini topishgan bo'lsalar bunda ular birinchi navbatda toplagan odamining o'zlarining ko'pchiliga didiga udealiga mos keladilar. Bu albatta kelgusi hayot uchun muhim ahamiyatga ega bo'lgan omillar hisoblanadi. Halqimizning etnik xususiyatlariga xos bo'lgan nikohning yuzaga kelishi shartlaridan biri-sovchilikdir. Sovchilik ham azal-azaldan shakllanib kelgan milliy qadriyatlarimizdan biridir. Uning ham o'ziga yarasha talablari shartlari ma'suliyati mavjud. Sovchilikka borilganda sovchilar bo'lajak er-xotinlar qudalarni har tomonlama o'rganib ularning bir-birlariga qay darajada mos kelish jihatlari puxta o'rganib chiqishga xarakat qiladilar. Sovchilikda surishtirish orqali bo'lajak kelin-kuyov uning olasi avlodi haqida har tomonlama ma'lumotlar olishiga xarakat qilinadi. Umuman sovchilikning milliy etnik an'anaviy amallariga talablariga ro'ya qilish ham nikoh mustaxkamligining muhim shartlaridan hisoblanadi. Shuning uchun ham sovchilik masalalariga o'tishda katta e'tibor berilgan va sovchilikka eng tajribali mulohazakor oqil odamlar tanlangan.

Oilaviy hayot haqidagi tasavvurlar.

Oila mustaxkamligiga hal qiluvchi ta'sirlar etuvchi nikoh oldi omillaridan yana biri yoshlarning o'z oilaviy hayoti haqidagi tasavvurlaridir. Ularning qanchalik reallikka yaqin bo'lishi shu oila mustaxkamligining bosh garovi hisoblanadi. Hind afsonalaridan biri yoshlarning oilaviy hayot haqidagi tasavvurlari va ularning reallik nisbatini qiyoslashga mos keladigan ajoyib bir rivoyat mavjud.

Rivoyatda aytishlaricha, tug'ilganidan ko'zi ojiz bo'lgan tzrt nafar ko'rga "Qarshinglarda fil turibdi, sizlar uni umuman ko'rmagansizlar, dekin uni borib ushlab, paypaslab o'rganib chiqinglarda, so'ng fil qanday mahluq ekanligini aytib beringlar", - deyilgan. Ko'rla borib filni "o'rganib" qaytishganlaridan so'ng ulardan fil qanday hayvon ekanligi so'ralganda, ulardan bir: "Fil-badani dag'al, daraxtga o'xshagan hayvon"-debdi, ikkinchisi uni inkor etib: "Yo'q, fil yerdek yumaloq, odamning qulochi yetmaydigan yumaloq bir xayvon"- debdi. Uchinchisi esa, ularni ikovlarini ham inkor qilib: "Fil ichi teshik uzun, yo'hon ichakka

o'xshaydigan hayvon"-debdi. To'rtinchisi esa: "Fil yoyiq yapaloq katta bargga o'xshagan hayvon"-deb javob berganlar va ularning har biri o'z fikrini ma'qullayman, o'tkazmayman deb bir-biri bilan janjallashib qolgan ekanlar. chunki ularning biri filning oyog'iga, ikkinchisi-qorniga, uchinchisi-xartumiga va to'rtinchi-qulog'iga kelib qolib o'zlarining imkoniyatlari doirasida filni tasavvur qilgan ekanlar. Xuddu shu to'rtta ko'zi ojizdek yoshlarimiz ham oilaviy hayotni butun borlig'icha, to'la, yaaxlit, tasavvur qila olmaydilar, buning imkoni ham yo'q. Oqibatda oilaviy hayot haqida turli tasavvurlarga ega bo'lgan yoshlarimiz oila qurgudek bo'lsalar, o'z tasavvurlarini reallikka aylantirish, ya'ni juftiga ham shunday ekanligini o'qtirishga xarakat qiladilar va ular ham yuqoridagi ko'zi ojizlardek har bir "o'zicha haq" bo'la turib, bir-birlari bilan janjallashib, kelisha olmay qolishlari mumkin.

Esini tanigandan boshlab ertaklar ruxida, badiiy filmlar, romanlar, afsona, rivoyatlar ruhida tarbiyalangan yoshlarimizda hamma vaqt ham oilaviy hayot haqida to'g'ri tasavvurlar shakllanaverishi mumkin emas. Ommaviy axborot vositalari orqali, tele-ko'rsatuvlar, radioeshittirishlar orqali yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash borasida berilayotgan materiallarda, oilaviy hayotni har bir yoqlama, faqat ijobiy tomondan taqlin qilishi hollari ham ko'p kuzatiladi. Bu kabi xolatlar xali yoshlarda oilaviy hayot haqidagi tasavvurlarning noto'g'ri shakllanishiga sabab bo'lishi mumkin.

Shuning uchun ham yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlashda oilaviy hayot, er-xotin munosabatlarini faqat bir yoqlama va faqat yaxshi tomondangina ko'rsataverish xam maqsadga muvofiq emas. Uni imkon qadar butun borligicha: baland-pastiyu, shirin-achchiq, rohat-farog'ati-yu, azob-uqubati, qorong'u kechalari-yu, yorug' yulduzlari bilan ko'rsatgan ma'qul. Shundagina yoshlarimizda oilaviy hayot haqida nisbatan adekvatroq tasavvur shakllanishi mumkin.

Nazorat savol va topshiriqlari

1. Nikohning yosh va yetuklik xususiyatlarida ayting?
2. Nikoh mativlarining xususiyatlari haqida ayting?
3. Bo'lajak er-xotinlarning tanishish shartlari haqida gapiring?
4. Oilaviy hayot haqidagi tasavvurlar haqida o'z fikrlaringizni ayting?

Tavsiya etiladigan qo'shimcha adabiyotlar

1. SHoumarov G'.B. "Muhabbat va oila" Toshkent, 1994 yil
2. SHoumarov G'.B. taxriri ostida "Oila psixologiyasi" Toshkent, 2000 yil
3. "1001 savolga psixologning 1001 javobi" SHoumarov G'.B. taxriri ostida. Toshkent 2000
4. «Xademay oila quramiz» Toshkent 2004 yil
5. Kinessa "Brak pod mikroskopom" M.1997 yil

8.MAVZU: OILAVIY NIZOLAR. AJRALISH, UNING SABABLARI VA OQIBATLARI.

Dars o'quv maqsadi: Talabalarga oilaviy nizolar. ajralish, uning sabablari va oqibatlarini o'rgatish.

Tushunchalar va tayanch iboralar: Er-xotin nizolari, ota-ona va farzandlar o'rtasidagi nizolar, qaynona va kelin o'rtasidagi nizolar, ajralish va uning oqibatlari.

Asosiy savollar:

1. Er-xotin nizolari.
2. Ota-ona va farzandlar o'rtasidagi nizolar.
3. Qaynona va kelin o'rtasidagi nizolar.
4. Ajralish va uning oqibatlari.

Asosiy o'quv materialini qisqacha bayoni

Er-xotin nizolari.

Oilaviy nizolarning eng xarakterlilaridan biri bu er va xotin o'rtasidagi nizolardir. Halqimizda bir gap bor: oshsiz uy bo'lishi mumkin lekin nizosiz uy bo'lmaydi. Faqat nizoning nizodan farqi bor aksariyat muvaffaqiyatli oilalarda tarbiya topgan yigit-qizlar o'z ota-onasi oilasini ularning turmush tarzini bir-birlarga nisbatan bo'lgan o'zaro munosabatlarini va qator shu kabilarni o'zlarining bo'lajak oilaviy hayotlari uchun ideal deb olishadi va ular ham oila kurishganlaridan so'ng o'g'il bolalar xuddi o'z otasidek va qizlarimiz o'z onalaridek "ota", "ona", "er" "xotin" bo'lishini orzu qiladilar. Chunki ular o'z ota-onalari misolida, bir-birlariga nisbatan salbiy munosabatda bo'luvchi bir-birlari bilan nizolashib turuvchi er-xotinlarni kurmaganlar. Mabodo bunday vaziyatlarda va nizolar yuzaga kelib qolgudek bo'lsa ham ularning ota-onalari bu holatni farzandlariga sezdirmaslikka xarakat qiladilar. Bundan tashqari ommaviy axborot vositalari orqali namunaviy ahil baxtli oilalar haqida berib boriladigan materiallarda ham aksariyat xollarda er-xotinlik munosabatlarini bir yoqlama faqat yaxshi tomondan ko'rsatish an'analar mavjud. Bularning hammasi yoshlarda oilaviy hayot haqida bir yoqlama ijobiy tasavvurlarning shakllanishiga asos bo'ladi. Shunday ertakmopand tasavvurlar orzular og'ushida oila qurgan yoshlar o'zlarining oilaviy hayotlarida dastlabki muammolarga duch kelishlari bilanoq ularning oilaviy hayotlari o'zlari qutganlaridek bo'lmayotganligi turmush o'rtog'ini tanlashda xato qilganligi ular oldingi (to'ydan oldingi) xolatiga nisbatan ma'lum darajada (albatta) salbiy tomonga o'zgarib qolganligi kabilarni tushuna boshlaydilar. Shuningdek yosh oilada er-xotinlarning o'zaro munosabatlari rivojlanishining o'ziga xos qonuniyatlari ayniqsa yosh o'zbek oilasida uning etnik hududiy xususiyatlaridan kelib chiqqan holda yosh kelin va kuyovning yangi ijtimoiy sharoitlarga moslashish jarayoni bilan bog'liq qiyinchiliklar er-xotin munosabatlarida nizoli vaziyatlar va nizolarni yuzaga keltirishi mumkin. O'tmish donishmandlaridan biri haqli ravishda er-xotin nizolarini garmdoriga qiyoslagan ekan. Nizoli vaziyatlar har qanday oilada u yoki bu darajada yuzaga keladi. Oila qanday bo'lishidan qat'iy nazar nizolardan mutlaqo holi (ximoyalangan

kafolatlangan) bo'lsa olmaydi. Chunki oiladagi shaxslararo munosabatlar odatda nizosiz bo'lmaydi. Bu nizolar ma'lum darajada er-xotin munosabatlarini rivojlantiruvchi katalizator vazifasini o'taydi. Lekin nizoning nizodan farqi bor. Ular kelib chiqishi tashqi ifodalanishi takrorlanib turish tezligi (soni) va nihoyat oqibatlariga ko'ra bir-birlaridan farqlanadi. Ma'lumki bir-birlaridan aynan o'xshash, mos ikki odamning bo'lishi mumkin emas chunki shaxs va uning individualligi takrorlanmasdir. Shunday ekan ikki va undan ortiq shaxsdan (individuallar)dan tashkil topgan oila ham ikki uch karra takrorlanmasdir. Bir oila uchun meyorida bo'lgan shaxslararo munosabatlar tizimi ikkinchi bir oilaga mutlaqo mos kelmasligi yoki biron bir oila uchun u qadar ahamiyatga ega bo'lmagan nizo va uning sababi boshqa oila a'zolarining o'zaro munosabatlarida jiddiy oqibatlar olib kelishi mumkin va xakazo. Oilada yuzaga kelishi ehtimoli bo'lgan nizo-janjallarning sabablarning aniqlash va ularning oldini olish masalalarini ijobiy hal qilish uchun birinchi navbatda ularni kimlar o'rtasida yuz berayotganligini farqlab olish maqsadga muvofiqdir. Oilaviy nizolarda kimlar ishtirok etayotganiga ko'ra ularni quyidagicha asosiy turlarga ajratish mumkin.

Er-xotin o'rtasidagi nizolar qaynon- kelin o'rtasidagi nizolar, qaynona-kuyov o'rtasidagi nizolar, ovsinlar o'rtasidagi nizolar, ota-onalar va farzandlar o'rtasida nizolar.

Biz dastavval muvoffaqiyatli va muvoffaqiyatsiz oilalarda ro'y beradigan nizolarni ko'rib chiqaylik. Muvoffaqiyatli oilalardagi nizolar biriktiruvchi va muvoffaqiyatsiz oilalardagi nizolar esa ajratuvchi xarakterga ega psixologik adabiyotlarda nizolar shartli ravishda konstruktiv (biriktiruvchi) va destruktiv (ajratuvchi) nizolarga farqlanadi. Ular o'zlarning yuzaga kelishiga asos bo'lgan muammolar bu muammolarning hal etilishi kechishi ishtirokchilari oqibatlari va boshqalarning xarakteriga ko'ra bir-birlaridan farqlanadi.

Biriktiruvchi nizolarning yuzaga kelishiga asos bo'lgan muammolar va ularning hal qilishini ham er-xotin ham xotinning butun oilaning manfaatlariga qaratilgan bo'ladi. Agar ular hal etilsa buning oqibatida oilaning umumiy manfaatlariga oid muammolar o'z yechimni topadi. Bunday nizolarga oiladagi tartib intizom ozodalik oila byudjetini yuritish saranjomlik tejamkorlik isrofgarlikka yo'l qo'ymaslik bola tarbiyasi va boshqa shu kabi toifadagi nizolar misol bo'la oladi. Ular asosan er-xotin o'rtasidagina yuzaga keladi, ularning ishtirokchilari ham faqat er-xotinlarning o'zlarigina xisoblanadilar. Bunday nizolarning muvaffaqiyati xal etilishida er-xotinlarning bir-birlarini yanada yaqinroq bilib tushunib bir-birining salbiy va ijobiy xususiyatlarini o'rganib borish, bir-birlariga moslashish muammolarni hal etish borasida xamkorlik qilish kabi oilaviy hayot mustaxkamligi ta'minlashga xizmat qiluvchi jarayonlar amalga oshadi. Boshqacha qilib aytganda bunday nizolar er-xotinning urushi-doka ro'molning qurishi kabi nizolar toifasiga kiradi. Doka ro'molning qurishi er-xotin o'rtasidagina xamkorlik rivojlantiradi.

Ajratuvchi nizolarda ularning yuzaga kelishiga aso bo'lgan muammo va uning yechimi er-xotinlardan birining manfaatiga qaratilgan bo'ladi. Bunday nizolarda bir tomon manfaatining xal etilishi ko'pincha ikkinchi tomon manfaatining boy berilish xisobiga amalga oshadi. Masalan erni yoki xotinni

shaxsan o'zi uchun biron nima xarid qilishi erning yoki xotinning qarindosh urug'lari bilan bo'ladigan nizolar shularjumlasiga kiradi. Ajratuvchi nizolar aksariyat xalarda chegaralanmagan nizolar bo'lib o'z xarakteri ishtirokchilari xal etilishi va oqibatlariga ko'ra chetga chiqadi. Bunday er-xotin nizolariga oilaning boshqa a'zolari: qaynona, qaynsingil ovsinlar va boshqalar ham aralashadi. Oilashunoslik da gap so'z gizo haqidagi ma'lumot bir og'izda chiqib kishilarning keng tomoniga qarab harakatlana boshlaydi. Uning ko'lami ma'lumot bo'lgan baidan uzoqlashib undan xabardor bo'lgan va unga jalb etilgan ishtirokchilar soni ortib borgan sari sengayib boraveradi. Er yoki xotin bir-birlari bilan urushib qolganlaridan so'ng haqda bir odamga gapiradigan bo'lsa imkon qadar shu uchunchi odamni uning manfaatlarini ximoya qilishiga og'dirib olish maqsadida bir yoqlama gapiradi. Oilaviy hayotda ro'y berish mumkin bo'lgan nizolarga birdek salbiy jihatdan qarayverish ham yoki ularni birdek oqlash ham maqsadga muvofiq emas. Yoshlarimizning oilaviy hayotga ro'y beradigan biriktiruv nizolarga tayyor bo'lishlari ularni biriktiruvchilariga ularning o'zaro munosabatlarining rivojlanishi ta'minlovchi ularning har ikkaloviningham ya'ni bizning manfaatiga qatarilgan nizolarning biriktiruvchanlik imkoniyatlaridan samarali foydalanishga ularni salbiy oqibatlariga olib keluvchi nizolarga aylantirib yubormaslikka o'rganishlari lozim.

Ota – onalar va farzandlar o'rtasidagi nizolar.

Bunday kelishmovchiliklar uchun zamin bo'lib quyidagilar xizmat qiladi.

1. Dunyoqarashlar orasidagi mavjud farqni xisobga olinmasligi.
2. Yoshlarining bo'sh vaqtini mustaqil tashkil etishi do'stlar tanlashdagi mustaqilligigi hissiyot sohasidagi mustaqilligi shodaga bugungi kunga talabiga mos kiyinish kasb tanlashdagi mustaqilligi umr yo'ldosh tanlashda mustaqillik uchun ota-onalari bilan ba'zi kurash olib borishining xush kelmasligi.
3. Ota-onalar ichkilikka ruju qo'yishi yoki ornomusni yig'ishtirib qo'yib buzo'qchilik qilish.
4. Ba'zi bolalarni mehnat qilishiga o'rgatilmaganligi va buning oqibatida yengil-elpi hayot kechirishga o'rganib qolishi.
5. Ayrim yoshlarning farzandlik burchini unutib qo'yishi va xakazo.
6. Ota-onalarining psixologik-pedagogik bilim saviyalari yetarli darajada emasligi natijasida yuzaga keladigan kelishmovchiliklar. Ota-onalar va bolalar munosabatiga oid yuqoridagi kabi kamchiliklar natijasida oiladan halovat yo'qoladio'rtaga sovuqchilik tushadi. Farzandlik burchini bajarmaslik u yoqda tursin hatto ichib kelib ota-onasiga ko'taradigan farzandlar ota-onasini sharmanda qilayotgan suyuqoyoq faxshparastlar boriligiga nima deysiz. Ba'zi ota-onalarda 3,6,13,14 yoshlarda muqarrar ravishda yangi psixologik qo'shilmalar yuzaga keladi. Bu esa ularning kattalar jumladan ota-onalar bilan bo'lgan munosabatalarida ko'zga tashlanadi. Buni sezmagani ba'zi ota-onalar bolam nihoyatda qaysar ko'loqsiz bo'lib qoladi deb o'ylaydilar va shikoyat qilishga tushadilar. Bunday qarashi o'zlaricha chora-tadbirlar belgilashlari natijasida ota-ona va bola bir-birlarini tushunolmay qoladilar. Bolaning ota-onadan bezish xollari kuzatiladi.

Qaynona -kelin o'rtasidagi nizolar.

Oilaga yangi tushgan kelinlarning ko'pchiligi yuzaga keladigan ba'zi qiyinchiliklarni osonlik bilan yengib kelinlik vazifalarini ko'ngildagiday eplab keladilar qaynonalarini ro'zg'or tashvishlaridan xalos qiladilar tezda ularning mehriga sazavor bo'ladilar. Qaynonalar ham bunday kelinni qizim deb bag'rilariga oladilar bilmaganini o'rgatadilar quynalganida yordam beradilar hayotiy yo'l-yo'riq ko'rsatadilar. Ularga uy-ruzg'or ishlarida va bolalar tarbiyasida yaqin ko'makdoshga aylanadilar. Biroq hayotda qaynona-kelin orasida turli tuqnashuvlar ham sodir bo'lib turadi. Gap qaynona-kelin o'rtasida borar ekan shuni aytib o'tishimiz lozimki, bu masala azal-azaldan odamlarining insoniyatning atoqli namoyondalarining diqqat e'tiborida bo'lib kelgan muammolardan biridir. Jumladan XIX asrning ikkinchi yarmida yashab ijod etgan sharq mutafakkirlaridan biri Axmad Donish o'zining "Nvadir ul vaqoe (Nodir voqealar) nomli kitobida qaynona kelin nizolari haqida yozar ekan shunday deydi". "Qaynona-kelin nizolari bundan oldingi oilalarda ham bo'lgan, xozir ham bor va bundan keyin ham bo'ladi. Ular doimo urushaveradilar. Ular nima uchun urushadilar chunki ular nima uchun urushayotganliklarini o'zlari ham bilmaydilar. Shuning uchun urushadilar. Bunday kelishmovchiliklarni keltirib chiqaruvchi sabablardan ayrimlarini ko'rib chiqamiz.

1. Ba'zi qizlarda nikohgacha oilaviy hayotga qaynonaga, qaynona-kelin munosabatlariga nisbatan salbiy tasavvur shakllangan bo'ladi. Ayniqsa yoshlar qaynonani oldindan faqat salbiy qiyofa siqatida tasavvur qiladilar. Keyin esa oila qurib tasavvuridagi emas balki hayotdagi qaynona bilan yashay boshlaydilar. Oqibatda ular o'z tasavvuridagi qaynonaga xos bo'lgan kamchilik va illatlarni hayotdagi qaynonadan axtara boshlaydilar. Borishi-ku topishlari aniq hatto yo'g'ini ham topishga xarakat qiladilar. Chunki tasavvurlari ularni aldaganini tan olishni istamaydilar. Kelinlar o'zlari tushgan yangi oila a'zolariga ilk taassurot asosida baxo berishga oshiqmasliklari lozim. Aks holda pashshadan fil yasash ham hech gap emas. Kelinlar og'ir-bosiq sabr-toqatli bo'lishlari iloji boricha o'zlari tushgan xonadan a'zolarining yaxshi tomonlarini ko'rishga intilishlari eri shu xonadan a'zosi ekanligini unutmasligi lozim. Ana shunda bu oila tinch-totuv bo'ladi.

2. Qaynona-kelinning dunyoqarashi va uy-ro'zg'or tutishlari orasida kelishmovchilik paydo bo'ladi va keskinlashadi. Ikki avlodning dunyoqarashi hayotiy tamoyiillari o'rtasida tafovot bo'lishi tabiiy xoldir. Ammo aksariyat hollarda qaynona-kelinlar ko'p jihatdan bir-birining aksi bo'ladilar. Ayrim hollarda esa qaynona-kelin andishani yig'ilishtirib quyib, har-birlari o'z gaplarini o'tkazishga harakat qiladilar. Bunday kelishmovchiliklarning oldini olish uchun kattalar yoshlarni kiyinishi, soch turmaklashi, yoqtirgan kuyva ashulalarni tinglashi va shu kabi boshqa masalarda ularni o'z holiga ko'yish lozim. Yoshlar ham o'z navbatida iloji boricha ota-onalarini tushunishga intilishlari, ularni g'ashiga tegadigan noo'rin qiliq va odatlardan qaynonaga xush kelmaydigan salbiy "xoyi-xavaslardan" o'zlarini tiyishlari kerak.

3. Ba'zi kelinlar kelinlik va onalik vazifalarini bajarishga tayyor bo'lmaydilar. Shunday kelinlar bo'ladiki, ular na ovqat pishirishni, na kir yuvishni, na kattalar bilan muloqot qilishni biladilar. Kelin kelinligining birinchi kunidayoq hamma narsani kerakligicha bilishi va katta tajribaga ega bo'lgan qaynonasi darajasida turmishi juda qiyin. U darajada bilmasa ham, mayli-ya, lekin bilishini

istamasa qiyin. Shuning uchun nikohgacha qizlariga onalar osh-ovqat pishirishni, meva-savzovotlardan qishga sharbat, tuzilama, murabbolar tayyorlashni, uy-joyni saranjam-sarishta tutishni, did bilan mehmon kutishni, tejamkorlikni, oila byudjetini, iqtisod qilishni uy-andjomlari jihozlardan asrab-avaylab foydalanishni va shu kabi uy-ro'zg'or ishlarini o'rgatishga aloxida e'tibor berishlari zarurdir. Qaynonalar ham kelinlardan hadib kamchilik va qo'sir axtarmasdan uni o'z farzandidan ko'rib, bilmaganini sabr-toqat bilan o'rgatib borishi lozim. Kamchiliklarini yuziga solavermasdan yaxshi tomonlarini gapirib turishlari kerak.

4. Ayrim hollarda qaynona-kelin bolalar tarbiyasi masalasida kelisha olmay qoladilar. Ayrim oilalarda bolalar bobo-buvilar yoki toa-onalar tomonidan me'yoridan ortiqcha erkanib yuboriladi. Natijada ota-onalar bilan bobo-buvilar o'rtasida bolaga kim tarbiya berishi kerak degan masalada kelishmovchilik kelib chiqadi. Aslida ular ham bular ham bolalarni kelajakda yaxshi kishilar bo'lib yetishishini istaydilar, tanlagan yo'llar esa turlicha, biroq bir bitimga kelib olishmasa, bola tarbiyasining holiga voy deyaviring. Buning uchun ular boladan hali joyda bir murosaga yaqdil qarorga kelib olishlari lozim.

5. Ba'zan katta xonadonda ovsinlar qaynona iltifotini qozinish yo'lida bir-birlaridan rashk qilishlari asosiy kelishmovchiliklar kelib chiqadi. Oilada ikki va undan ortiq kelin bo'lsa, qaynona ularning hammasi bir hilda qaray olmasligi tabiiy holdir. Kelinlardan birontasi qaynonaning didiga yaqinroq, b'zisi uzoqroq bo'ladi. Ayollar o'ta ruhiy sezgirliklari tufayli buni qaynona o'rtasida kelishmovchilik boshlanadi. Bunday holning olidni olish va ovsinlar orasiga sovuqchilik tushirmaslik uchun qaynona o'z kelinlariga mumkin qadar bir xilda munosabatda bo'lishi (ammo bu yer har bir kelinning muomilasi, munosabatini, qaynonaga bo'lgan mehrini hisobga olish inkor etilmaydi) rashk qilishlariga imon yaratib qo'yishidan ehtiyot bo'lishlari kerak.

6. Ba'zi hollarda qaynona kelinning yosh xususiyatlarini, qiziqishni, orzu-xavaslarini, ishlashi yoki o'qishini hisobga olmaydi. Aynonalar orasida umr bo'yi uy bekasi bo'lganlari ham bor. Ular ishlash bilan uy-ro'zg'or ishlarini boravar olib borishni o'z boshidan o'tkazmagan. Ana shunday qaynonalar yoshligida o'zlarini risoladagiday kelin bo'lganman deb biladilar. Qaynota-qaynonalarini qanday izzat qilganliklarini "ularning soyalariga ko'rpacha solganlarini"(rostmi-yolg'onmi bari-bir) tez-tez eslashni yaxshi ko'radilar va kelinlarining ham "o'zlariday" bo'lishini istaydilar. Ba'zan esa uni o'g'il orqali ochidan-ochiq talab qiladilar. Bunga kelinlarining imkoni bormi, yo'qmi yo'lab ham ko'rmaydilar. Bunday qaynonalar "ehtiyojini qondirish imoniyatiga ega bo'lmagan kelinlar ularning g'azabiga uchraydilar. Kelini haqida bo'lar-bo'lmas gaplarni o'g'illarining qulog'iga quyadilar". O'g'limga aytib seni quydirib yubormasam yurgan ekanman –deya do'q-po'pisa qiladilar. Ba'zi hollarda maqsadlariga erishadilar ham. Bunday qaynonalar o'g'illariga kabilari baxtidan ko'ra o'z xuzur-xalovatlarini ko'proq o'ylaydilar.

7. Ayrim kelinlarning yangi oilaga moslashishi qiyin bo'ladi, oqibatda qaynona-kelin orasida kelishmovchiliklar kelib chiqadi. Har bir oilaning o'ziga xos muhiti qonun-qoidalari, an'analari, atrofda yuz berayotgan voqea-xodisalarga beradigan baho mezonlari hatto faqat shu honadon a'zolari tushunadigan shartli

ravishda qabul qilishgan so'z iboralari bo'ladi. Yangi tushgan kelin o'zi bilan o'z tug'ilib o'sgan uyining muhitini odat-ko'nikmalarini ham olib keladi. Shuning uchun ham ayrim hollarda kelin bilan qaynonaning oilaviy muhitlari mos kelmay qoladi. Ota-onalar iqtisodiga tafovut ham aksariyat kelin-kuyov orasidagi munosabatlarni keskinlashuviga ta'sir qilishi mumkin. Bunda iqtisodiy omil shu bilan ifodalandiki kelin yangi tushgan xonadonda qizlik xonadonidagi iqtisodiy mo'l-ko'lchilikni ko'rmasdan o'z turmushidan sovish mumkin. Shuning uchun ham donolar "Qiz bersang o'zingdan bir pog'ona balandga ber" senning xonadoningda ko'rmaganini yangi xonadonida ko'rib yangi xonadonga ko'nikishi oson kechadi. Qiz olsang o'zingdan bir pog'ona pastdan ol. Shunda kelin o'z o'lida ko'rmagan mo'l-ko'lchilikni senning xonadoningda ko'rib bu muhitga tez ko'nikadi deganlar.

Madaniy-ijtimoiy omil. Kuyov ma'lumotli madaniyatli oildan bo'lib kelin aksincha dehqon ishchi yoki savdogar oiladan bo'lsa yoki er-xotindan biri shahardan ikkinchisi qishloqdan bo'lsa bu ijtimoiy-madaniy tafovutlar ham er-xotin o'rtasidagi ixtiloflarni keltirib chiqarishi mumkin. Bordi-yu kelin boshqa millatga mansub bo'lsa uning yangi oilaga moslashishi yanada qiyin bo'ladi, uning yangi oilaga moslashishi yanada qiyin bo'ladi. Masalan o'zbek xalqida kekirish to'yganlik shukronalik belgisi hisoblanib kelgan. Rus xalqida esa bu odat o'ta odobsizlik hisoblanadi. Shu sababli yangi oilaga moslashish ham osonlikcha kechavermaydi.

Ajralish va uning oqibatlari.

Gap nikoh-oila munosabatlari haqida borar ekan shubxasiz jiddiy muxokama qilinadigan masalalar qatorida nikoh oila munosabatlarining bo'zilihi er-xotinlarning ajralishi muammosi turadi. Ajralish muammosi hozirgi zamon insoniyat jamiyatining eng muhim ijtimoiy muammolaridan biri hisoblanadi. Shuning uchun chet ellarda ham O'zbekistonda ham ajralish muammosini o'rganishga keng ilmiy jamoatchilike'tibori qaratilib kelinmoqda. Bu muammoni turli soha mutaxassislari: yuristlar, demograflar, iqtisodchilar, sotsiologlar, psixologlar va boshqa fan sohalari mutaxassislari o'rganmoqdalar. Ularning e'tibori bu xodisa sabablari omillari motivlarini o'rganish ularni bartaraf etish ajralishlarning salbiy asoratlarini kamaytirish masalalariga qaratilgan. Chunki oilalarning buzilishi tufayli nafaqat shu ajralishga er-xotin va ularning farzandlari balki jamiyat ham ko'p zarar ko'radi. Ajralishlar ko'plab noxush xodisalar: noto'liq oilalar sonning ortishi bolalar va o'smirlar o'rtasida qonun buzarlilikning ko'payishi, pedagogik nazoratsiz qolgan bolalar va sonining ortishi yolg'iz sobiq er-xotinlar va qarindoshlarning o'zaro munosabatlarning yomonlashuvchi kabilarning yuzaga kelishiga sabab bo'lishi mumkin. Ajralishlarning o'ziga xos ijtimoiy-psixologik va etnopsixologik xususiyatlar oilalarning buzilishiga olib keladigan sabablar ularning amalga oshish jarayoni, oqibatlari ajralishgacha va undan keyingi davrlardagi er-xotinlarning axvoli kabilarda ifodalanadi. Sharq oilalarida ayniqsa o'zbek va qishloq oilalarida ajralish tashabbuskori ko'proq erkaklar bo'ladilar va aksincha Yevropa xalqlari oilalarida yoki oilalarda va urbanizatsiyalashuv darajasi yuqori bo'lgan shahar oilalarida ajralish tashabbuskor ko'proq ayollar bo'ladi. Ajralishlarning sabab-oqibatlari haqida fikr-

muloxazalarimizni bildirishdan oldin o'zbek oilalarida ajralishlarning o'ziga xos xarakteri ya'ni boshqa (ayniqsa chet mamlakatlaridan) millatlardan farq qiluvchi jihatlariga to'xtalib o'tish lozim topdik. Bu quyidagi ob'ektiv omillarga bog'liq bo'lish mumkin birinchidan qishloq joylarda ajrashgan ayol erkak nisbatan jamoatchilik tomonidan ko'proq tanqidiy muxokama qilinadi. Ikkinchidan qishloq joylarda ajralishgandan so'ng ayollarning ahvoli erkaklarga nisbatan yomonlashadi. Negaki o'zbek millatidagi o'ziga xos urf-odatlar o'zbek ayolning uy-joylarni eriga qoldirib o'z ota-onasinikiga (uning aka-ukalari o'z oilasi xotinni bolalari bilan yashayotgan va ajrashgan ayol uchun ahvolni yanada jiddiylashtiruvchi joyga) borib yashashga majbur bo'ladilar.

Uchinchidan qishloq ayollarida ajralishgandan so'ng qayta oila qurish imkonini nixoyatda kamdir. Agar ajralish "ozodlik" deb hisoblanadigan bo'lsa unda hozirgi zamon nikoh oila qonunchiligiga ko'ra bu ozodlik kimga qancha tushadi? Shaxar joylarda istiqomat qiladigan Yevropa xalqlariga mansub bo'lgan yosh oilalarda bu quyidagi formula tarzida bo'lish mumkin.

Ayollar uchun

Ajralish = ozodlik = bola+ aliment = uy+yolg'iz onalarga beriladigan imtiyozlar=yangi oila qurish muammosi.

Erkaklar uchun

Ajralish q ozodlik-bola-alimentiquy Q yangi oila qurish imkoniyati.

Agar ajralishlarning ayol va erkakka ko'rsatadigan asosiy bo'lsak ular quyidagicha bo'ladi.

Jamiyat uchun. Noto'liq oilalar soni ko'payadi oilalararo yoki qarindoshlararo adovat yuzaga keladi bir jinsning ikkinchi jinsiga nisbatan nafrati paydo bo'ladi. Foxishabozlik ortadi teritanoslik kasalliklarning ortishi kuzatiladi shaxsning ijtimoiy faolligi susayadi.

Erkak uchun – yolg'izlik xissining ortishi giyoxvandlik va ichkibozlikka berilish turli kasalliklar.

Ayollar uchun- yolg'izlikni xis qilishning ortishi qayta oila qurish imkoniyatining cheklanganligi nervozlar stresslar turli xastaliklar o'z jonga qasd qilish.

Ma'lumki o'zbek oilalarida ajralishlar miqdori boshqa millatlar masalan rus oilalarnikiga qaraganda ikki marta kam. Lekin har bir ajralishga oila to'g'ri keladigan tirik yetim bolalar soni o'zbek oilalarida 2-2,5 marta ko'p. Shu bilan birga ajralish ma'daniyatini quyi saviyada ekanligi va o'ziga xos milliy xususiyatlari bilan ifodalanishi o'zbek oilalarida ko'proq salbiy oqibatlar olib keladi. Shunga ko'ra ajralishlarning salbiy asoratlari o'zbek oilalarida boshqa millatlar oilalaridagiga nisbatan kuchliroq ifodalanadi.

Nazorat savol va topshiriqlari

1. Er-xotin nizolari haqida ayting?
2. Ota-ona va farzandlar o'rtasidagi nizolari haqida gapirib bering?
3. Qaynona va kelin o'rtasidagi nizolar haqida tushuntiring?
4. Ajralish va uning oqibatlari haqida aytib bering?

Tavsiya etiladigan qo'shimcha adabiyotlar

1. SHoumarov G'.B. "Muhabbat va oila" Toshkent, 1994 yil
2. SHoumarov G'.B. taxriri ostida "Oila psixologiyasi" Toshkent, 2000 yil
3. "1001 savolga psixologning 1001 javobi" SHoumarov G'.B. taxriri ostida. Toshkent 2000
4. «Xademay oila quramiz» Toshkent 2004 yil
5. Kinessa "Brak pod mikroskopom" M.1997 yil

9.MAVZU: OILA VA NIKOHNING HUQUQIY KAFOLATI.

Dars o'quv maqsadi: Talabalarga Oila va nikohning huquqiy kafolatini o'rgatish.

Tushunchalar va tayanch iboralar:

Asosiy savollar:

1. Oila jamiyatning birinchi va birlamchi bo'g'ini.
2. Oilaning muhim ijtimoiy vazifalari.
3. Oila huquqining asosiy printsiplari .

Oila bo'lib yashash barcha maxluqotlar orasida faqat inson zotigagina xosdir. SHu bois oila jamiyatning birinchi va birlamchi bo'g'ini hisoblanadi. SHunga ko'ra hech mubolag'asiz aytilish mumkinki, oila fuqarolik jamiyatining tayanch nuqtasi, tayanch tuzilmasidir. CHunki bu muqaddas dargohda nafaqat inson dunyoga keladi, balki u ma'nan va axloqan tarbiya topadi.

Binobarin, oila er-xotin, ularning bola-chaqalari, eng yaqin tug'ishganlaridan iborat kishilar guruhi, ya'ni xonadon hisoblanadi. Ayni chog'da oila odamlarning tabiiy, iqtisodiy, huquqiy, ma'naviy munosabatlariga asoslangan ijtimoiy birligi hamdir.

Demak, oila jamiyatning tabiiy hujayrasidir, ijtimoiy asosdir. Oila qanchalik mustahkam bo'lsa, jamiyat ham shunchalik mustahkam bo'ladi va tez rivojlanadi. Zero, jamiyat asosi – oila moddiy va ijtimoiy jihatdan mustahkamlanib borishi g'oyat muhim ahamiyatga ega.

O'zbekiston SHarq mamlakatlari sirasiga kiruvchi davlatdir. Ma'lumki, SHarqda qadimdan oila muqaddas maskan sanalgan. Unga bunday e'zozli munosabat bugungi kunda ham o'zgargani yo'q.

«Oila, - deydi mamlakatimiz rahbari **I.A.Karimov**, - hayotning abadiyligini, avlodlarning davomiyligini ta'minlaydigan, muqaddas urf-odatlarimizni saqlaydigan, shu bilan birga, kelajak nasllar qanday inson bo'lib yetishishiga bevosita ta'sir ko'rsatadigan tarbiya o'chog'i...». SHu fikrning o'ziyoq oilani e'zozlash, uning qadrqimmatini yuksakka ko'tarish bizning ongimizga mustahkam jo bo'lganligining yorqin dalilidir.

O'zbek oilasi serfandzandlik, bolajonlik, oilaparvarlik kabi ijobiy xususiyatlari bilan ajralib turadi.

O'zbek oilasining o'ziga xos etnografik xususiyatlari: **ko'p bolalik, ko'p tabaqalilik (bir necha avlod vakillarining birga yashashlari), avlodlar**

o'rtasidagi bog'liqlikning boshqa mamlakatlardagina nisbatan kuchliligi va shu kabi qator xususiyatlari uning psixologik ahamiyatini yanada orttirib yuboradi.

O'zbekiston dunyoda aholisining soni ancha tez ko'payib borayotgan mamlakatlar qatoriga kiradi.

Oila erkak va ayolning nikohdan o'tib, biryostiqqa bosh qo'ygan kunidan boshlanadi. Uning eng muhim vazifasi nasl-ni davom ettirish hamda otabobolarning eng yaxshi an'ana va udumlarini davom ettirish, turmushni mustahkamlashdan iboratdir.

Oilaning muhim ijtimoiy vazifalari quyidagilardan iborat:

Birinchidan, u jamiyatning demokratik hujayrasini tashkil etib, odamlar shu muqaddas maskanda tug'ilib, o'sib, jamiyat tarkibini tashkil etadi.

Ikkinchidan, oila muhim bo'g'in bo'lib, unda biz mehnat jarayonida sarf qilgan kuchlarimizni tiklash imkoniyatiga ega bo'lamiz.

Uchinchidan, oila muhim tarbiya o'chog'i.

Va nihoyat, to'rtinchidan, oila nodir ruhiy muhitdir.

Oila a'zolari o'rtasidagi munosabatlar axloq-odob va huquqiy qoidalar bilan birga tartibga solinadi. SHuning uchun ham oila huquqi huquqning mustaqil sohasi bo'lib, nikoh, qon- qarindoshlik, bolalarning nasl-nasabini belgilash, ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalarni joylashtirish shakllaridan kelib chi qadigan munosabatlarni huquqiy tartibga soladi.

Agar oila huquqi tushunchasiga muxtasar ta'rif berib aytadigan bo'lsak, bu er-xotinlar, qarindoshlar, ota-onalar (farzandlikka oluvchilar) va bolalar o'rtasidagi shaxsiy nomulkiy va ular bilan bog'liqlik mulkiy munosabatlarni tartibga soluvchi huquq tarmog'i hisoblanadi. SHu ta'rifdan ham ko'rinib turibdiki, oila huquqi fuqarolik huquqi bilan chambarchas bog'liqlik bo'lish bilan birga, farq qiluvchi xususiyatlarga ham ega. Ya'ni: birinchidan, oilaviy munosabatlar fuqarolik huquqi qiga xos bo'lmagan yuridik faktlar (nikoh, qarindoshlik, onalik, otalik, farzandlikka olish va hokazolar) asosida vujudga keladi, ikkinchidan, oilaviy munosabatlar fuqarolik huquqi qidan farq qilib, ko'proqlik shaxsiy-huquqiy mohiyatga ega bo'ladi, uchinchidan, oilaviy huquq sub'ektlarining huquqva majburiyatlari ularning o'zlarigagina tegishli huquq va majburiyatlar sanaladi.

Oila huquqi qining asosiy printsiplari quyidagilardan iboratdir:

- 1) oilaning jamiyat va davlat muhofazasida bo'lish huquqi printsiplari
- 2) barcha fuqarolar, jinsi, irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, e'tiqodi, shaxsiy va ijtimoiy mavqeidan qat'i nazar, qonun oldida tengligi printsiplari
- 3) hamma oilaviy munosabatlarda ayol bilan erkak teng huquqliligi printsiplari
- 4) oilaviy munosabatlarda ishtirok etuvchilarni ma'naviy va moddiy qo'llab-quvvatlash hamda ularning o'zaro bir-biriga g'amxo'rlik qilishi printsiplari
- 5) Davlat tomonidan onalik, otalik va bolalikni muhofaza etish va ularning manfaatlarini har taraflama himoya qilish printsiplari
- 6) Ixtiyoriy va erkin nikoh printsiplari
- 7) Faqat yakka nikohlikni tan olish va uni mustahkamlash uchun yordam berish printsiplari
- 8) Davlat tartibi asosida nikohdan erkin ajralish printsiplari

9) Bolalarni musta qillik va milliy istiqlol mafkurasi g'oyasi asosida tarbiyalash printsipli.

Nikoh fuqarolik holati dalolatnomalarini yozish organida ro'yhatdan o'tkazilgan va qatnash boshlab nikoh tuzuvchilar er-xotin hisoblanadilar va shu paytdan boshlab ular o'rtasida er-xotinlik huquq va majburiyatlari vujudga keladi. Endi ular o'rtasidagi munosabatlar axloq-odob qoidalariga bilangina emas, balki qonunlar, huquqiy qoidalar bilan ham tartibga solinadi. Bunda xotin-qizlar siyosiy masalalarda erkaklar bilan teng huquqqa ega bo'lganlaridek, oilada ham barcha shaxsiy va mulkiy masalalarda erkaklar bilan teng huquqlardan foydalanadilar va bab-baravar majburiyatlarga ega bo'ladilar. Bu qoida o'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 46-moddasida mustahkamlab qo'yilgan.

Amaldagi qonunlar turmushga chiqqan ayolni muomala layoqatida hech qanday cheklamaydi, uni eriga bo'ysindirib, qaram qilib ham qo'ymaydi. Barcha huquqiy munosabatlarda er-xotin huquqning teng sub'ekti hisoblanib, ularga bab-baravar huquqlar beriladi va tegishli majburiyatlar ham yuklanadi. o'zbekistonda er va xotin rasmiy jihatlaridagina emas, balki oilada ham teng huquqqa egadir. Oila huquqiga asosan er-xotin umumiy xo'jalik ishlarini birgalikda, o'zaro hamjihatlik asosida olib boradilar. Ular bir-birlariga ma'naviy yordam berib, ko'makdosh bo'lib yashaydilar, hamma masalalarni bamaslahat hal qiladilar. Biroq er-xotindan birining shaxsiy huquqini amalga oshirishga muntazam xalaqit berish (masalan, erning yoki xotinning mashg'ulot turi, kasb tanlashiga xalal yetkazish), shaxsiy huquqlarni amalga oshirishni suiiste'mol qilish, oila manfaatlariga qarshi qaratilgan xatti-harakatlar nikohdan ajralishga olib kelishi mumkin.

Familiya tanlash huquqi er-xotinning muhim shaxsiy huquqlaridan hisoblanadi.

Oil kodeksining 20-moddasiga binoan, «Nikoh tuzish va qatnash er va xotin o'z xohishi bilan eri yoki xotinning familiyasini umumiy familiya qilib tanlaydi yoki ularning har biri nikoxgacha bo'lgan o'z familiyasini saqlab qoladi.

Er va xotindan birining familiyasini o'zgartirishi bosh qasning ham familiyasini o'zgarishga olib kelmaydi».

Keyinchalik familiyani o'zgartirishga faqat umumiy asoslarda, qonunda belgilangan hollarda yo'l qo'yiladi.

Er va xotinning oilaviy munosabatlarda teng huquqliligi va bab-baravar majburiyatlarga ega ekanligi mulkiy munosabatlarda ham o'z ifodasini topgan.

Er-xotinning mulkiy huquq va majburiyatlariga iqtisodiy mazmundagi masalalar kiradi. Er-xotinning birgalikdagi umumiy mulkiga nisbatan bo'lgan huquq va majburiyatlarini, er-xotinning har birini alohida xususiy mulkiga bo'lgan huquq va majburiyatlari, o'zaro moddiy ta'minotidagi aliment huquq va majburiyatlari shular jumlasidandir.

O'zbekiston Respublikasi mustaqil bo'lishi, uning bozor iqtisodiyotiga o'tishi, tadbirkorlik faoliyatiga keng o'rin berilishi bu masalada ham amaldagi oila qonunchiligida tegishli o'zgartirishlar kiritilishini taqozo etdi. Chunki qonun bugungi kun talablariga to'la javob berishi lozim.

Oil kodeksining 23-moddasiga binoan: «Er va xotinning nikoh davomida o'rttirgan mol-mulkari, shuningdek, nikoh qayd etilgunga qadar, bo'lajak er-

xotinning umumiy mablag'lari hisobiga olingan mol mulklari, agar qonun yoki nikoh shartnomasida bosh qacha hol ko'rsatilmagan bo'lsa, ularning birgalikdagi umumiy mulki hisoblanadi.

Oila kodeksida er-xotinlarning mulkiy huquqiy munosabatlarini tartibga soluvchi normalarda ham bir qator o'zgarishlar sodir bo'ldi.

Avvalo, bu o'zgarishlar, yangiliklar mulkiy munosabatlarni tartibga soluvchi printsiplarda ifoda etiladi.

Er-xotinning qonuniy tartibdagi mulki ularning qonun xujjatlarida belgilangan imperativ normalar bilan tartibga solinadigan mulkidir.

Nikoh shartnomasi deb, nikohlanuvchi shaxslarning yoki er va xotinning nikohda bo'lgan davrida va (yoki) er va xotin nikohdan ajratilgan taqdirda ularning mulkiy huquq va majburiyatlarini belgilovchi kelishuvga aytiladi.

«Nikoh shartnomasi nikoh davlat ro'yxatiga olinguniga qadar ham, shuningdek, nikoh davrida ham tuzilishi mumkin.

Nikoh davlat ro'yxatiga olingunga qadar tuzilgan nikoh shartnomasi nikoh davlat ro'yxatiga olingan kundan boshlab kuchga kiradi» (Oila kodeksining 30-moddasi).

Agar nikoh shartnomasi nikoh davlat ro'yxatiga olingunga qadar tuzilgan bo'lsa, bunday nikoh shartnomasi kechiktirib bajariladigan shartli bitim hisoblanadi. U faqat nikoh tuzilgandan so'ng kuchga kiradi.

Nikoh shartnomasi er-xotinlar bir-birlarini moddiy ta'minlash yoki biri ikkinchisini moddiy ta'minlashini ko'rsatish huquqiga ega. Shartnomada belgilangan shartlar aliment majburiyatining umumiy qoidalariga mos kelmog'i kerak. Xususan, muomalaga layoqatsiz er yoki xotinning huquqlari buzilmasligi lozim. Ammo nikoh shartnomasida qonun bo'yicha aliment olish huquqiga ega bo'lmagan er yoki xotining aliment belgilanishi mumkin. Birinchi navbatda, bu o'z xohishlari bilan, oila manfaatini o'ylab ishi yoki o'qishini qoldirgan er-xotinlarga taaluqli bo'ladi.

Savollar

1. Sog'lom turmush tarzini yaratishda nimalarga e'tibor berishni istaysiz?

2. O'zingiz yashayotgan maqollaringiz faoliyatiga qanday ijtimoiy ishlar bor?

Asosiy darsliklar va o'quv qo'llanmalar

1. O.Hasanboeva va boshq. Oila pedagogikasi. T., Aloqachi, 2007y
2. A.K.Minavvarov. Oila pedagogikasi. T., O'qituvchi, 1994 y.
3. M.Inomova. Oilada bolalarni ma'naviy axloqiy tarbiyasi. T., O'qituvchi, 1999 y.
4. R.To'raqulova Oilada sog'lom muhit va reproduktiv madaniyat. . T., 2002y.
5. Reprodukativ ma'naviyat va madaniyat asoslari. To'plam. T., 2002y.
6. M.R.Bo'rieva O'zbekiston oila demografiyasi. T., Universitet, 1997y.
7. O.To'raeva Bola aziz odobi undan aziz T., O'qituvchi, 1996 y.
8. www.Ziyo.net

9. <http://www.uralrti.ru>.

10.MAVZU. OILADA SOG'LOM TURMUSH TARZINI VUJUDGA KELISHI

Dars o'quv maqsadi: Talabalarga oilada sog'lom turmush tarziga amal qilish masalalarini o'rgatish.

Tushunchalar va tayanch iboralar: oila,sog'lom turmush tarzi, oila va nikoh masalalari

Asosiy savollar:

- 1.Oilada sog'lom turmush tarzini shakllantirish,
- 2.SHarit ilmda oila va nikoh masalalari.
- 3.Qizlarni oilaviy hayotga tayorlash.

Sog'lom jamiyat sog'lom oila negizida qaror topadi. Jamiyatimizda tub islohotlar amalga oshirilayotgan bir davrda inson salomatligi davlatimiz va xukumatimiz faoliyatiing ustuvor yo'nalishlari negizini tashkil etadi. Prezidentimiz Islom Karimov tomonidan 2000 yilni "Sog'lom avlod yili" deb e'lon kilinishi va shu munosabat bilan Sog'lom avlod Davlat dasturining qabul qilinishi xamda gazeta nashr etish yo'lga kuyilganligi mamlakatimizda sog'lom avlodni shakllantirishga nechog'lik yuksak ahamiyat berilayotganligidan guvoxlik beradi. Mazmun va mohyatiga ko'ra o'ta salmo qli - Sog'lom avlod Davlat dasturi kabul kilinganligi hech kaysi mamlakat tajribasida ko'rilmagan. Zero, har bir fuqarosining salomatligi, ma'naviy, jismoniy va ruhiy barkamolligi ha qida uzluksiz g'amxo'rlik qilishni hech bir xukumat o'z zimmasiga olgan emas. Bunday mas'uliyatli vazifani bizning xukumatimiz o'z zimmasiga olganligi dunyo hamjamiyati uchun yana bir ijobiy xoldir.

Isti qboliy adamiyatga ega bulgan Davlat dasturini amalga oshirish, uni 2000 va keyingi yillarda tegishli resurslar bilan ta'minlash vazifasi davlat tomonidan kafolatlandi.

Vazirlar Maxkamasining 2000 yil 15 fevral qaroridagi: "Soglom avlodni tarbiyalashga, yuksak umuminsoniy qadriyatlarga asoslangan, xayotiy o'rniga ega bo'lgan ma'naviy boy, axloqan yetuk, intellektual rivojlangan, yuqori bilimli, jismonan bakuvvat, har tomonlama kamol topgan shaxsni shakllantirish" degan suzlar ma'nosi yanada oydinlashtirildi.

"Biz mustakdligamizning ilk yillaridanoq sog'lom avlod tarbiyasini eng ustuvor vazmfa deb belgiladik, — deydi Prezidentimiz Islom Karimov, — Barkamol avlodni tarbiyalash masalasini davlat siyosati darajasiga kutardik. Musta qil Vatanimizning birinchi ordeneni «Sog'lom avlod uchun» deb atalgani, "Sog'lom avlod uchun" xalkaro jamgarmasi tuzilgani buning tasdig'idir. Bir suz bilan aytganda, oldimizga qo'ygan barcha maqsadlarimizning, siyosiy, iktisodiy va ma'naviy g'ayotimizda, davlatimiz, jamiyati-miz qurilishida amalga oshirilayotgan o'zgarishlarning, ezgu intilishlarimizning ma'nomoxhiyati sog'lom avlodni tarbiyalab voyaga yetkazish emasmi? Kadrlar tayyorlash Milliy dasturimizni ishlab chiqqanimiz va xayotga tatbiq etayotganimizdan maqsad

ham aynan shu emasmi?!. Buyuk davlatni fa qat sog'lom millat, sog'lom avlodgina qura oladi".

Albatta, Sog'lom avlod yili va shu bilan bog'li q ravishda hayotga tatbi q etilayotgan Davlat dasturi g'oyasi o'z-o'zidan paydo bulib qolgani yu q: ularning uziga xos izchil manti qiy tadriji mavjud. Buyuk davlatni ko'ra oluvchi, erkin fu qarolik jamiyatini barpo eta oluvchi sog'lom millat, sog'lom avlod g'oyasi — bu, "ajdodlarimizdan bizga o'tib kelayotgan, kon- qonimizga singib ketgan mu qaddas intilish" asrlar davomida xal qimizning ko'ngil mulki sifatida rivojlanib, boyib kelgani, Mustakdlikning yuzaga kelishidagi ma'naviy omillardan bo'lgani, isti qlolning birinchi kunlaridan e'tiboran davlat siyosatining ustuvor yunalishiga aylangani hech kimga sir emas, albatta.

Alisher Navoiy yili, Amir Temur yili, Inson manfaatlari yili, Oila yili va Ayollar yilida belgilangan vazifalarni bajarish jarayonida xosil bo'lgan tajriba mazkur ustuvor yo'nalishni yanada kengro q va ser qirrali mi qyosda kun tartibiga ko'yish imkonini yaratdi. Bunda ma qsadning ani q va yuksakligi, uni xayotga tatbi q etishning izchilligi, eng muximi, avvalo, hu qu qiy asos bilan mustaxdamlangani ya q qol ko'rinib turganligini ta'kidlashga zarurat bo'lmasa kerak. Sog'lom avlodni tarbiyalash vazifasining pirovard ma qsadi millatning har tomonlama uyg'un barkamolligini ta'minlashdan iborat. Natijada esa sog'lom millat buyuk davlatni, mukammal, erkin fu qarolik jamiyatini bunyodga keltiradi.

"Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi", "Soglom avlod" Davlat dasturi va bosh qa muhim hujjatlarni amalga oshirishga aholining barcha qatlamlari tobora faol qatnashayotgani ham muvaffa qiyatlarimiz garovi xisoblanadi. Bundan asosiy ma qsad millat genafondini sog'lomlashtirish, o'zbek xal qining ma'naviy va jismoniy barkamolligini butun dunyoga namoyish qilishdan iboratdir. Jumladan, «Fu qarolar SOG'LIGINI sa qlash to'g'risida»gi Jonunning qabul qilinishi, Vazirlar Mahkamasining sog'lomlashtirishga oid qator qarorlari, xotin- qizlar ishlar bo'limi tomonidan ishlab chi qilgan «Ekologiya va ayol» (1996 yil, fevral), «Sog'lom avlod-sog'lom jamiyat negizi» (1996 yil, may) kabi dasturlari har bir oila a'zosining salomatligini ta'minlashga qaratilgan muhim chora-tadbirlardir.

Mazkur Jonun, qaror va bosh qa davlat xujjatlariga binoan onalik va bolalikni ijtimoiy ximoya etish, sog'li qni sa qlash tizimi faoliyatini takomillashtirish, qishlo qdagi qishlo q vrachlik ambulatoriyalari, fel'dsherlik-akusherlik punktlari ishini yaxshilash borasida olib borilayotgan chora-tadbirlar, homilador va yosh bolalik ayollarga berilayotgan imtiyozlar xal q salomatligini, millat kelajagini ta'minlashda o'zining dastlabki ijobiy samarasini bermo qda. SHuningdek, sog'li qni sa qlash tizimida kunduzgi statsionarlar, kunduzgi davolanadigan bo'limlar, ambulatoriya jarrohligi, ambulatoriya davolash ixgisoslashtirilgan kurs markazlari paydo bo'lishi inson salomatligi borasida hukumatimiz tomonidan amalga oshirilayotgan ijobiy ishlardan hisoblanadi.

«Fuqarolar sog'ligini saqlash to'g'risida»gi qonunning qabul qilinishi bugungi kunda SOG'LI QNI sa qlash tizimidagi dolzarb masalalarga, ya'ni: sog'li qni saqlashda ko'p tizimlilikning qonuniy joriy etilganligi, sog'liqni saqlash tizimida bepul xizmatning saqlab qolingani, nogironlar va tibbiy- ijtimoiy himoyaga

muhtoj shaxslarning kuch- quvvatini tiklaydigan muassasalar tashkil etish va ular faoliyatini ta'minlash, fu qarolarga sanitariya-gigiena va ekologiya ta'limi berishni tashkil etish, tibbiyotda xususiy faoliyatga keng o'rin berilganligi bilan belgilanadi. SHuningdek, oila qurishdan oldin tibbiy xodimlar konsultatsiyasidan o'tish, oilaviy shifokor masalasi, balog'atga yetmaganlarning SOG'LI QNI sa qlashga doir hu qu qlarini himoya qilish, ularning jismoniy, ma'naviy kamol topishi uchun qulay sharoit yaratish, maktabgacha tarbiya, umumta'lim maktablari va bosh qa muassasalarda tibbiy xizmatni yo'lga qo'yishga e'tiborni kuchaytirish ham mamlakatimizdagi sog'li qni sa qlash siyosatining kuchliligidan dalolat beradi.

Xo'jalik hisobi printsiplari asosida ishlayotgan muassasalar tarmog'i kengaymo qda, tibbiy kooperativlar, oila shifokorlari keng quloqchoy yoymo qda, dori-darmonlar chi qarish korxonalari tarmog'i rivojlanmo qda. Xal q tabobati bilan shug'ullanishga qonuniy yo'l ochib berildi.

SHunday qilib, «Solom avlod»ni shakllantirish davlat siyosati darajasiga ko'tarilgan. Davlatimizning bunday siyosati negizida bugungi kunda xotin- qizlar ichidagi ekstragenital kasalliklarning iavjudligi, balog'atga yetmasdan ona bo'lish holatlarining uchrashi, chala tug'ilayotgan bolalar hamda nogironlikning o'sishi oldini olishdek muhim vazifalar yotibdi. SHuningdek, o'smir qizlarni ona bo'lishga tayyorlash, istalmagan homiladorlikni oldini olish, ekologik holat, atrof-muhitdagi sanitariya - epidemiologiya holatlarini talab darajasida tashkil etishga e'tiborni kuchaytirish oilada salomatlik masalasida hech qanday muammosiz hal bo'lishi garovidir.

Hech kimga sir emas, sog'lom onadan sog'lom bola tug'iladi. Avlod salomatligini ta'minlash uchun avvalo onaning o'zini asrab-avaylamo q zarur. Bu o'rinda dastlab xal q qadriyatlariga amal qilish maqsadga muvofiq qdir. Ya'ni, chilla sa qlash, yosh bo'shangan onani va bolani asrash, ona suti bilan bo'qish masalalari bo'yicha keng targ'ibot va tashviqot ishlari olib borish joylardagi mutasaddi tashkilotlarning asosiy vazifalaridan hisoblanadi.

Ona suti bolaning suyagini butun, iligini ba quvvat qiluvchi, uni turli kasalliklarga qarshi kurashda bir umrga yetadigan immunitet hosil qilish quvvatiga ega. Buni har bir ona, akusher-ginekolog tom ma'noda anglab yetmog'i zarur.

SHunisi quvonarliki, 1993 yildan e'tiboran bola tug'ilgandan 15-20 daqiqadan so'ng chaqaloq onaga emizish uchun berilmoqda.

SHarqda qadimdan emizikli ayol taomnomasiga alohida ahamiyat berib kelingan. Yosh ona sut keltiruvchi kuchli taomlar iste'mol qilgan, kayfiyatining buzilishiga yo'l qo'yilmagan, u har qanday yomon tashqi muhitdan, ko'ngilsizliklardan asralgan. Bola ov qatiga alohida e'tibor berish esa hamma zamonlarda muhim ahamiyat kasb etadi. Bugungi kunda sog'lom avlod uchun kurash ketayotgan bir davrda Respublikamizda har bir ota-ona oldida turgan mas'uliyatli ishlardan biri ham shundan iboratdir.

SHaxsiy gigiena qoidalariga to'liq amal qilish, toza ovqatlanish, jon-jismini, turar joyini ozoda tutish salomatlik negizidir. har bir ayol uchun, qiz bola uchun tibbiy savodxonlik hayotiy ehtiyojdir.

SHu ehtiyojni qondirish maqsadida umum ta'lim maktablari, oliy o' quv yurtlarida tibbiyot asoslari o' quv kurslarini tashkil etish, xotin- qizlar uchun maslahatxonalarda maxsus dasturlar asosida tibbiy bilimlar berishni yo'lga qo'yish, shaxsiy gigiena qoidalari, bo'lajak onalar, homilador ayollar, yosh onalar, o'smir qizlar uchun kichik-kichik hajmdagi turli risolalar, metodik tavsiyalar ishlab chi qish va ularga yetkazish, matbuot, ommaviy-axborot vositalari va turli shakldagi tadbirlardan foydalangan holda targ'ibot-tashvi qot ishlari olib borish ko'zlangan natijani beradi. Ya'ni, uzluksiz tibbiy bilim berish ishini yo'lga qo'yish kerak. Ibn Sino «harakatdagi tanaga davo kerak emas» deb aytgan . SHuning uchun, biz davo qiluvchi meditsinani emas, balki profilaktik, ya'ni kasallikning oldini oluvchi meditsinani targ'ib etmog'imiz lozim, bu ish avvalo oilada amalga oshiriladi.

Oilada sog'lom turmush tarzini shakllantirish, uning ma'naviy va tibbiy salomatligi negizidir.

Sog'lom turmush tarzi kishilarning hayot darajasi bilan, sixat-salomatligi, kayfiyati, intilishlari, ishonchi, kundalik o'zgarishlar bilan, bu o'zgarishlar qay darajada xal qimizning ehtiyojini qondirishi bilan, jamiyatning ijtimoiy-i qtisodiy va ma'naviy tara q qiyoti darajasi bilan, eng muhimi yosh avlod tarbiyasini yuksak samaradorligini ta'minlaydigan chora-tadbirlar bilan bog'li qdir.

SORLOM turmush tarzi oilaning farovonlik darajasi, sog'ligi, maishiy xizmatga bo'lgan ehtiyojlarini to'la qondirish demografik jarayonlarni ma qbul holatga keltirish, oila a'zolarining ma'naviy madaniyati, ongliligi, ahlo qiy jihatlari va ijtimoiy mehnatdagi faolligi bilan belgilanadi.

Oilda turmush tarz n jismonan sog'lom va a qlan barkamol yangi avlodni shakllantirish, mehnat qilish, dam olish va ijtimoiy faoliyat ko'rsatishga yordam beruvchi o qilona hayot tarzini tashkil etadi.

Sog'lom turmush tarzini shakllantirish uy-joy sharoitini yaxshilash, oila byudjetini to'g'ri ta qsimlash, to'g'ri va sifatli ov qatlanish, spirtli ichimliklar, giyohvandlik, chekishni qat'iyan man etish, muntazam ravishda jismoniy tarbiya bilan shug'ullanish, sanitariya-gigiena qoidalariga to'la rioya qilish, ma'naviy intellektual shaxs bo'lishni talab etadi. Oilani moddiy imkoniyatlarini yaratish, ota-onalarning ongliligi, ma'naviyati darajasi farzandlarni jismonan sog'lom, ma'nan boy qilib o'stirishga imkoniyat yaratadi.

Atrof-muhitning ekologik musaffoligini ta'minlash, ekologik ong va tafakkurni shakllantirish ham aynan oilada amalga oshirilgandagina oilada sog'lom turmush tarzini shakllanishida o'zining ijobiy samarasini beradi.

Juda kup epshitamiz, anemiya, kam qonlik bilan ona bulishmo qda degan gaplarni. Lekin xotin- qizlardagi ekstrogetal va surunkali kasalliklarning oldini olish, bemor onalarga tibbiy yordam kursatish borasida hukumatimiz tinimsiz chora-tadbirlar kurayotganligi ham ayon. Bugun biz shu xolatni ko'z oldimizga keltirib, bo'lg'usi onaning ta qdiri tug'risida ko'proo q qayg'urishimiz kerak. Tibbiyot xodimlari bilishadi, ko'pinchalik onalar u yoki bu infektsiyaning tashuvchilari sifatida ona bo'lishadi, u xomiladan bolaga o'tadi, natijada, gudaklar o'rtasida, knchik yoshli bolalar o'rtasida turli kasalliklar ani qlanmo qda. SHuning uchun ham eng avvalo, 2003 yil avgust oyida qabul qilingan Vazirlar

Mahkamasining 365- qarorinng mohiyatini maktablarning yu qori sinflari o' quvchilari, kollej va litseylarning qizlariga tushuntirishimiz, kasalliklarning oldini olib, qizlarni sog'lom onalikka tayyorlashimiz kerak. Bu ham yosh onalarga, bulg'usi avlodga g'amho'rligimiz bo'ladi.

Bugungi kunda Respublika «Oila» ilmiy-amaliy markazi xodimlarining ustivor maqsadlaridan biri ham mutaxassislar, tibbiyot xodimlari, maxalla faollari, xotin- qizlar kengashlari faollari ishtirokida ushbu yo'nalishdagi mavjud muammolar va ularning yechimini aniqlash. Zero, o'tkazilgan tadqiqotlarimizga ko'ra, 1,5 foiz texnik yunalishdagi va 1,8 foiz gumanitar yunalishda ta'lim olayotgan talabalarda reproduktiv madaniyat va xu qu q qa oid elementar tasavvur va bilimlar bor, xolos. Buning o qibatida:

- a) onalikka tayyor bulmasa-da, yosh qizcha qo'rqqmay tug'adi;
- b) anemiya bo'lishiga qaramay, tanasini qiynab turgan boshqa xastaligi bulsada, tavakkal qilib, tug'ish holatlari kuzatilmoqda;
- v) yosh ayol tug'ish intervaliga rioya etmasdan turmush o'rtog'i yoki qarindoshlar ta'zig'i bilan ikkinchi, xattoki uchinchi farzand ko'ryapti. Talabalar o'rtasida o'tkazilgan izlanishda ular orasida ham bakalavriant o' qishi davridayok, 2-3 ta farzandning onasi bo'lgan. Salomatligi tekshirilganda, deyarli nogiron bo'lib qolgan onalar borligi aniqlandi.

Bu vaziyat qizlarimizning, ayni qsa, talaba qizlarimizning reproduktiv hu qu qlari va ularni anglashlari borasida katta muammo borligini isbot etmo qda. Ya'ni, ayolning, kelinchakning uz salomatligi holatidan kelib chi qib, ongli ravishda ona bo'lishni rejalashtirishi, tug'ilajak bolaning sog' tug'ilishiga shaxsiy mas'uliyatini anglatsh, reproduktiv madaniyatning, renroduktiv hu qu qlarini bilishning ajralmas bo'lagi. Aks holda o'zbekona andisha bilan qizlarimiz hayotlarida ham qiz uchun, ham bolasi uchun tavakkal qilib, ona bulaveradilar, salbiy o qibati yana oilaga, jamiyatga ta'sir qilaveradi

Bu maqsadga erishishda tibbiyotimiz taraqqiyoti va moddiy-texnik ta'minlanishi, ayollarimizning tibbiy ma'rifati darajasi va aholi ma'naviyatining yuksalib borishi muhim rol o'ynaydi.

Bu o'rinda oila a'zolari o'rtasida targ'ibot va tashvi qot ishlarini kuchaytirish ijobiy natijalar garovidir. Ularda fa qatga sog'lom ota-onadan sog'lom farzand tug'ilishini, yoshlarning tug'ilgandan boshlab, muntazam o'z salomatligiga ahamiyat berishlari lozimligi, jinsiy tarbiyani oilada, maktabda to'g'ri ashkil qilish zarurligi, qarindosh-urug' o'rtasidagi nikohning zararli o qibatlari, 15-16 yoshli qizlarni turmushga chi qishi qonun yo'li bilan ta' qi qlanishi, sog'lom onadan sog'lom farzand tug'ilishi oilaning balog'at yoshidagi har bir a'zosi, tug'ish yoshidagi ayollar ongiga singdiriladi.

Darxa qi qat demografik vaziyat murakkab bo'lgan o'zbekiston uchun oilani mustahkamlash, uni rejalashtirish - bugungi kunda shunchaki oddiy bir masala emas, balki uning yechimini to'g'ri topish - respublika tara q qiyotini ta'minlashning omilidir.

Albatta oilani rejalashtirish ha qida ran borar ekan, ran bu yerda tug'ishni cheklash ha qida emas, balki tutish oralig'ini uzaytirish hisobiga sog'lom va jismonan ba quvvat bolani dunyoga keltirish, onaning salomatligini tiklash nazarda tutiladi. Bu o'z va qtida oilaning iqtisodiy barqarorligini ta'minlanishida ham muhim rol o'ynaydi. Oilani rejalashtirishning o'ziga xos xususiyatlari, nazariy va amaliy jihatlari ha qida o'smirga, butun aholiga berilayotgan axborotlar mazmunini boyitish va takomillashtirish davr talabidir.

Respublikamizdagi demografik vaziyatni inobatga olib, oilani rejalashtirish, oila a'zolari salomatligining tibbiy-biologik asoslarini ilmiy-amaliy tadbiq etish, uslubiy tavsiyalar ishlab chiqarish va ularni amaliyotga keng tadbiq etish hozirgi ijtimoiy-iqtisodiy va demografik sharoitda mustahkam oilani shakllanishi uchun zarurdir.

Oila jamiyatdagi iqtisodiy, ma'naviy va madaniy munosabatlardan tashqari tabiiy-biologik munosabatlarni ham ifodalaydi. Ya'ni, oilada avlod davom ettiriladi. Jamiyat erkak va ayol o'rtasidagi tabiiy munosabatlar madaniyatini tarbiyalash orqali ular o'rtasidagi ahillikni mustahkamlashga ko'maklashadi. Bu munosabatlar madaniyatini shakllantirish oila hayotiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi, bolalar salomatligi, soni va tug'ilish muddatlarini maqsadga muvofiqlashtirishni, oilaning rivojlanish jarayonini ongli ravishda boshqarishni ta'minlaydi.

Tabiiyki, jamiyat tug'ilish muammosiga befarq qaray olmaydi, bu holat uning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotiga katta ta'sir ko'rsatadi. Respublikamiz aholisi tez sur'atlar bilan o'sayotgan mamlakatlar qatoriga kiradi. Uning asosiy sabablarini quyidagi omillar bilan izohlash mumkin: nikohlanish ko'rsatkichlarining yuqoriligi, barvaqt nikohlanish, migratsion harakatning pastligi, xalqimizning serfarzandligi va bolajonligi kabi.

Tug'ish yoshidagi ayollarning salomatligini mustahkamlash, tug'ilajak farzandning hech qanday asoratsiz sog'lom tug'ilishni ta'minlash maqsadida tug'ilgan farzandlar oralig'i 2 yoki 3 yil bo'lishi tibbiy nuqtai nazardan tavsiya etilmoqda. Bu esa kelajagi buyuk o'zbekistonimizni mutaroqqiy etgan davlatlar qatoridan o'rin olishda o'zining ma'naviy va jismoniy barkamolligi bilan ulush qo'shadigan farzandlarni dunyoga kelishi, millatimiz genafondining saqlanishi uchun zamin hisoblanadi.

Jizlarning balog'atga yetmasdan turmushga chiqish, yoki juda kech turmushga chiqib ona bo'lish holatlari ona va bola salomatligi uchun zararli oqibatlar keltirishi shubhasiz. Buning oldini olishda xotin-qizlar qo'mitalari «Sog'lom avlod uchun», «Bolalar», «Mahalla» jamg'armalarining faoliyati onalar va bolalarning salomatligini ta'minlashga, aholining tibbiy ongini shakllantirishga qaratilgandir.

Insoniyat tarixida oilaning paydo bo'lishi, shakllanishi va rivojlanishi tarixi, uning etnopedagogikasi va etnopsixologiyasi - mohiyatini davr talabi nuqtai nazaridan chuqur o'rganish, ilg'or g'oyalarni amaliyotga tadbiq etish oila farovonligi va barqarorligini ta'minlash uchun zamindir. Shuningdek, xalqaro hamkorlik asosida umumjahon ilg'or tajribalardan o'zbek oilasi mentalitetiga mos foydalanish o'zbekiston oilasini jahonga namoyon etishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Oilada ma'naviy va jismoniy barkamol avlodni tarbiyalash, yoshlarni oilaviy hayot qurishga tayyorlash, ularni zamonaviy kasb-hunar sirlari bilan qurollantirish bilan bir qatorda, xalqimizning asrlar davomida shakllanib kelgan kasb-hunar, qadriyatlarga hurmat va e'zozni shakllantirish oilaning iqtisodiy va ijtimoiy manfaatlarini himoya qilishda muhim omil hisoblanadi.

Jamiyatning asosiy tayanchi hisoblanmish oila barqarorligi, farovonligi, tinch-totuvligi va mustakamligini ta'minlash bilan bog'liq masalalarni hal etishda jamiyatning ushbu masalaga daxldor barcha institutlarning hamkorligini ta'minlash oila manfaatlarini ta'minlashda ijobiy samaralar garovidir.

Oila - mahalla – bog'cha - maktab - oliy va o'rta maxsus ta'lim - jamoatchilik tizimida amalga oshiriladigan barcha ta'limiy-tarbiyaviy ma'rifiy-madaniy targ'ibot va tashviqot ishlari sistemalik, mustahkam hamkorlik, izchillik, uzviylik, ketma-ketlik tamoillari asosida tashkil etilgan taqdiridagina jamiyat rivojida oila o'zining ijtimoiy vazifalarini to'la ado etish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Mustaqil respublikamiz iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy va ma'naviy yuksalishning muhim omillaridan biri oila, mahalla, maktabning hamkorlikda olib boradigan tarbiyaviy jarayonni amalga qaratilgan faoliyati hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasining Ta'lim to'g'risidagi qonunida oilaning jamiyat, davlat oldidagi mas'uliyatini anglab yetadigan komil insonni tarbiyalashdagi roliga alohida e'tibor berildi. Bu borada «Oila- mahalla-maktab» dasturining yaratilishi muhimdir.

Oilada bola tarbiyasini yo'lga qo'yishda mahallaning roli kattadir. Jadimdan o'zbek xalqi maxalla-jamoatchilik bilan hamjihatlikda yashab, oilaviy urf-odat va an'analarni ular ishtirokida, ular bilan bamaslahat o'tkazganlar.

Mahalla kishilarni birlashtiradigan, ijtimoiy-siyosiy, madaniy-ma'rifiy va tarbiyaviy ahamiyatga ega bo'lgan jamoa vazifasini bajarib kelgan.

Maktab aholining, birinchi navbatda, ota-onalarning pedagogik uquqini amalga oshiradi, har bir oilada o'zaro hurmat, bir-biriga yordam, insoniy munosabatlar muhiti yaratilishini qo'llab-quvvatlaydi, ko'p bolali va kam ta'minlangan oilalarning bolalariga moddiy yordam ko'rsatish yo'lida fuqaro qaro mehr-shafqat dasturini amalga oshirishda o'zining tarbiyaviy imkoniyatlarini ochib beradi. Oila esa, o'z navbatida o'quv-tarbiya jarayonini qayta qurishda maktabga yaqindan yordam berib, o'quvchilarning ta'lim-tarbiyaning barcha jabhalarini egallashlari uchun maktab jamoasiga yaqindan ko'maklashadi.

SHuning uchun ham oila, maktab va mahalla hamkorligi masalasi hozirgi davrning asosiy talabidir.

Maktab tarbiyaviy ta'sir ko'rsatishning pedagogik jihatdan malakali, maqsadga muvofiq omillariga hamda keng imkoniyatlariga ega. Maktabdan tashqari qarida olib boriladigan tarbiyaviy ishlar pedagogik-psixologik qoidalarga amal qilinmagan, maktab, oila va jamoatchilikning tarbiyaviy jarayonidagi talabi bir xilda bo'lmagan taqdirda oilada ayrim hollarda tarbiyasi og'ir bolalar paydo bo'ladi, murakkab muammolar yuzaga keladi. Bunday holatning oldini olishning muhim vositasi oila-mahalla va maktabning hamkorlik dasturi asosida ta'lim-tarbiyaviy ish olib borishni ta'minlashdan iboratdir.

Bunday mushtarak tarbiya asosida avlodlar vorisligi yotmog'i lozim. Vorislikni ta'minlashning muhim omili oila qadriyatlariga asoslanishdan iboratdir. Eng muximi, yoshlar ongiga, shuuriga kattalarga hurmat, ishda, o' qishda odamlar bilan munosabatda ota-onadan o'rnak olish, tarbiya, mehnat, insonparvarlik, vatanparvarlik qadriyatlarini chuqurroq o'rganish va ularga amal qilish, umriboqiyqligini ta'minlashdek muhim ishni amalga oshirish bugungi kunda ijtimoiy ehtiyojga aylanib qolmog'iga erishish zarur.

Yana bir muhim masala - bu qizlarning, onalarning jismoniy salomatligi. Bu masala oilaviy sportni rivojlantirish, uni ommalashtirish masalasi bilan bog'liq. Zero, jismonan chinniqqan qiz bola ertaga ona bo'lganda, uncha-muncha infektsiyaga yoki xastalikka bardoshli, uning bolasida ham immunitet kuchli bulishi fanda isbotlangan.

Zero, hammamizga ma'lumki, bugun yurtimizda sportga va aynan bolalar sportini rivojlantirishga mamlakat rahbarining uzi boshqosh bo'lib turibdi. Chunki Prezidentimizning ta'birlari bilan aytganda, «Sportning milliy genofondni yaxshilash, ijtimoiy muammolarni muvaffaqiyatli hal etish, millatning g'ururiftixorini ko'tarish, yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash va boshqa soxalardagi ahamiyati beihoya kattadir». Demak, jismoniy chingiqish va sport bilan shug'ullanishning ma'naviy-ma'rifiy imkoniyatlari cheksiz. Agar yigit va qizlarimiz ilk yoshlikda sport bilan shug'ullansa, uni o'zining turmush tarzidagi muhim, ajralmas odat va ko'nikma tarzida ongiga singdira olsa, bu narsa uning inson sifatida shakllanishi, faoliyati uchun muhim bo'lgan boshqa mashg'ulotlarni ham qiyinchiliklarsiz yenga olishga, salomatligiga qadriyat sifatida qarashga o'rgatadi. Masalan, bir xonadonda oilaboshlig'i bo'lgan otabolasi ilk yoshligidan shug'ullanishi uchun oddiy trenajyorni o'z qo'li bilan yasab berdi va kuniga shug'ullanish odatini farzandida shakllantirdi, deylik.bola katta bo'lgan sari, u endi bu mashg'ulotni hovlida, bog'chasida, so'ngra maktabida davom ettiradi. SHu kabi o'zbek mintalitetimizga mos sport turlarini qizlar orasida keng qulochoyozdirish, millat onasining sog'lom bo'lishiga yordam beradi.

Demak bugun sportni rivojlantirishh, u orqali millatning ham qizi, ham o'g'lini tarbiyalash masalasi o'zbek oilasini mustahkamlash, jamiyatni poklash, ma'naviyatni barqarorlashtirish kabi muhim ishlarning asoslari bilan bog'lanmoqda. Yoshlar orasida bu borada targ'ibot – tashviqot qilganimizda uning mohiyatini to'g'ri tushuntirish, bola sport bilan faqat o'zining jismoniy quvvatini tiklash va bo'sh vaqtini maroqli o'tkazish uchun emas, balki u orqali sog'lom turmush tarziga amal qilish, ma'naviy va jismoniy kamolga intilish, turli salbiy ta'sirlar va zarali odatlardan halos bo'lish, kuchli xarakterni shakllantirish uchun shug'ullanishni o'qtirishimiz kerak Demak, ana shunday fazilatlariga ega bo'lgan qizlar bugun bizga, hammamizga kerak-ota-onaga ham, ustoz murabbiyga ham mahalla faollariga ham, ishlab chiqarishni tashkil etuvchi mutasaddilarga ham. Eng muhimi- bu qadriyatlardan shaxsning o'zi – bo'lg'usi onalarning o'zlari birinchi navbatda manfaatdor.

Demak, ushbulardan mantiqqan jismoniy madaniyat va tibbiy-reproduktiv madaniyatni oshirishga umumxalq tadbirideb qarashimiz to'g'ri bo'lishi fikri kelib chiqadi. Bu xulosa uchun yana ikkita kuchli asos bor. Birinchisi- sportning,

ayni qsa, qizlar sportining o'zi ommaviy tus olgandagina samarali bo'lishini tushunishimiz lozim. Ya'ni, bu ishga qizlarimiz yoshlikdan faqat tilda emas, balki dildan yaxshi ko'radigan mashg'ulotga qaraganday munosabatida bo'lgandagina ommaviy tus oladi.

Demak, bu strategik masaladimiz - mildiy genofondni yaxshilash, barkamol va sog'lom avlod tarbiyasi borasida amalga oshirayotgan ishlarimizni sifat pog'onasiga kug'o'taradi. Olimlardan biri - F. Naytingeyl yozgan ekan: «hozir hamshiralar bemorlarga qaramoqdalar, lekin shunday vaqtlar keladiki, ularning qaramog'idagilar sog'lom bulib, hamshiraning vazifasi faqat ularning betob bo'lib qolmasliklari uchun qayg'urish bo'lib qoladi». Bugun bolalar sportini rivojlantirishga qo'shayotgan hissamiz, onalar va qizlarning jismonan baquvvat va solom bo'lishlariga qayg'urayotganimiz kelajakda, albatta, bemor onalar kam bo'lib, faqat o'zlarini chiniqtirish uchun ongli tarzda sog'lom turmush tarzini shakllantira oladigan insonlar jamiyatiga kelishimizga imkon beradi.

SHunday qilib, biz bugun bajarayotgan ishlarimiz, yechimini kutayotgan muammolarimiz kup. Bu ishlarni bajarishda barcha davlat va nodavlat, jamoatchilik tashkilotlari bir yoqadan boshchi qarib ishlashlari lozim.

SHariat ilmidagi oila va nikoh masalalari

Xalqimizning milliy qadriyatlari salkam 14 asrdan beri Islom qadriyatlari bilan chambarchas bog'lanib, bir-biriga singib ketgan. SHunday ekan, otabobolarimiz ulug'lagan odamiylik, ma'rifat, poklik dini bo'lgan islomning jamiyatni ruhiy-ahloqiy jihatdan sog'lomlashtirish borasidagi ta'limoti, xususan, uning uzviy qismlaridan bo'lgan oila tarbiyasiga oid qarashlarini chuqur o'zlashtirish, o'z kelajagini qurishga bel bog'lagan har bir kishiga har tamonlama kamolga yetgan avlodni vujudga keltirishga yordam beradi. Ma'lumki, oila qurish insonlar o'rtasidagi ijtimoiy munosabatdir. Bu munosabatlarning mustahkamligi jamiyatning barqarorligini belgilaydi.

Oilalarda ota-onalarning dinga bo'lgan munosabatlari, uni qay darajada anglab yetishlari, umuman olganda diniy dunyo qarashlari darajasini baxolash uchun 2004 yilda sotsiologik Respublika «Oila» ilmiy –amaliy Markazi tomonidan adiq qotlar olib borilgan.¹

Islom oilaning pokligi, jipsligi, osoyishtaligiga e'tibor bilan qarab kelgan. U oilaning bosh muammosi sanalmish nikohni inson munosabatlari ichida eng muqaddasi deb hisoblaydi.

Ayollar manfaati toptalgan davlatlar inqirozga yuz tutgan, uni ezozlagan yurtlar taraqqiyotga yuz burgan. Qur'on va hadislarni o'qir ekanmiz, ularda ayollar ezozlanganligining guvohi bo'lamiz. Islom shiati qoidalarida ayol kishi avvalo ayolligini – ibo-hayosini, nazokatini, odobu hulqini, o'z salomatligini asrash zarurligi, u birinchi navbatda ona ekanligi, ya'ni, hayot manbai hisoblanishi o'qitiladi. Jumladan, Niso surasida ayol beqiyos ulug'langan.

Islom boshqa jahon dinlari orasida davlat va huquqqa nisbatan juda ham yaqin aloqada bo'lib, bu shariat shaklida mavjud bog'liqlikning uzviyligini ta'minlashga xizmat qilmoqda. Islom davlat dini hisoblangan ko'pgina

¹ <http://www.uz.uz>

mamlakatlarda hu qu qiy qonunlar shariat asosida chi qarilib, qur'on bilan ichilgan qasamni buzish katta gunohi azim va jinoyat hisoblanadi. qur'on va hadislarga tayangan holda shariat qonunlari oila va jamiyat, mol-mulkka egalik, jinoyat hu qu qi, xazina-soli q va moliyaviy tartib va hakoazolarni bosh qaradi.

SHariat so'zi aslida arabchadan olingan bo'lib, uning lug'aviy ma'nosi to'g'ri yo'l, ilohiy yo'l, qonunchilik, demakdir.

SHariat musulmonlarning hu qu qiy hayotidan tash qari ularning ahlo qiy va diniy marosimchilik talablarining majmuini ham o'z ichiga oladi. Islomdagi diniy-hu qu qiy mazhablar va ularning asoschilari, himoyachi-o qlovchi (advokat)larga oid tartib- qoidalar, qozilar faoliyatining tashkiliy va tartib qoidalari, qasam (ont) ichish, va'da berish va qasamyod qilish, qarzni uzish, kafillik, kafolat berish, omonat sa qlash tahlili va ularga mansub tartib qoidalar shariatning asosiy bo'limlaridan hisoblanadi.

SHariat jazoga nisbatan o'z yo'l-yo'ri q dasturlarining butun qahru g'azabini axlo qi buzu qlarni va gunoh hisoblanadigan hatti-harakatlarni keskin bartaraf etishga qaratgan. SHariat zo'ravonlik, zino va o'g'rilikka qarshi shaf qatsiz jazo berish choralarini ham belgilaydi.

Misol uchun, SHariat qonun- qoidasiga ko'ra zino qilishda ayblangan ayol toshbo'ron qilingan yoki sochidan otning dumiga bog'lanib sahroga haydab yuborilgan. o'g'rilikda ayblangan kishining esa dastlab bitta barmog'i, bu ish qayta- qayta takrorlansa panjasi, bilagi va oxirida boshi tanasidan judo qilinib sha'riy yo'l bilan jazoga tortilgan.

SHariatning mol-mulkka egalik hu qu qlari va soli q qa oid tartib- qoidalariga qaratilgan bo'limi ham di q qatga sazovordir. Bu bo'limda shariat qonun va qoidalari, mol-mulkka egalik qilish va meros hu qu qi, ijara va kira (ishchi kuchini yollash) qilish, va qf va vasiyatga binoan, yerga egalik qilish (zamindorlik) va yerni ijaraga olish, soli q qa oid tartib- qoidalar, xums, zakot, sada qa, ushr, ajnabiylardan olinadigan soli q qa nisbatan o'z zamonasining siyosatini in'ikos etdiradigan tartib va qoidalar, qonunlar majmuining batafsil bayoni berilgan. Savdo bitimlarini rasmiylashtirish va bekor qilish, hayvonlarni so'yish, ovchilik va hatto bali q ovlash tartib- qoidalari ham shariat nazaridan chetda qolmagan.

Asosiy darsliklar va o'quv qo'llanmalar

1. O.Hasanboeva va boshq. Oila pedagogikasi. T., Aloqachi,2007y
2. A.K.Minavvarov. Oila pedagogikasi. T., O'qituvchi, 1994 y.
3. M.Inomova. Oilada bolalarni ma'naviy axloqiy tarbiyasi.T., O'qituvchi, 1999 y.
4. R.To'raqulova Oilada sog'lom muhit va reproduktiv madaniyat. . T., 2002y.
5. Reprodukativ ma'naviyat va madaniyat asoslari. To'plam. T.,2002y.
6. M.R.Bo'rieva O'zbekiston oila demografiyasi. T., Universitet, 1997y.
7. O.To'raeva Bola aziz odobi undan aziz T., O'qituvchi, 1996 y.